ISSN 3030-3672

HCSD

Human capital and social development.

2025 – volume 15, issue 3

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali.

2025 – 15-jild, 3-son

www.hcsd.samdu.uz

Samarqand_2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali
Journal Human capital and social development
Журнал Человеческий капитал и социальноеразвитие
Jurnali

15-jild, 3-son (iyun) 2025.
Jurnal 2021-yilda tashkil topgan.
Davriyligi: har ikki oyda

Davriy nashirning rasmiy nomi: “Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish”-“Human capital and social development”-“Человеческий капитал и социальное развития” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 19.05.2021 sanada berilgan №1179 guvohnomasi bilan ro‘yhatdan o‘tgan.

Junal: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 30-noyabrdagi 342/3-son qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) Ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yhatiga kiritilgan.

Jurnal asoschilari: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla tarqqiyotini boshqarish instituti.
Nashr etuvchi: SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi.
Xalqaro indeksi: ISSN 3030-3672
Tahririyat telefoni: +998 (94) 283 56 78, +998 (90) 502 13 03
Pochta manzili: 140104, Samarqand shahar., Universitet xiyoboni, 4
Web-sayt: www.hcsd.samdu.uz.
E-mail: muhriddinrabbimov@gmail.com

«INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANISH»
«HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT»
«ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ»
JURNALI

Bosh muharrir: t.f.d., prof. Xalmuradov Rustam Ibragimovich
Bosh muharrir o‘rinbosari: i.f.d., prof. Arabov Nurali Uralovich
Kotib: PhD, dots. Nasimov Ikrom Xusanovich
Texnik muharrir: assistent., Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g‘li

TAHRIRIYAT KENGASHI
O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. Abdurahmonov Qalandar Xodjayivech
O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich
DSc, professor Daler Mirpochoyev (Iqtisodiyot va savdo instituti, Tojikiston)
PhD, professor Arindam Banik (Xalqaro menejment instituti, Hindiston)
PhD, professor Jiye Li (Sian Jiatong universiteti, Xitoy Xalq Respublikasi)
PhD, professor Bayong Van Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)
PhD, professor Vonyong Li (Yongnam universiteti, Janubiy Koreya)
PhD, professor Yan Patterson (Kvinslend universiteti, Avstraliya)
PhD, dots. Djurakulov Shoxrux Davronovich (SamDU)
i.f.n., dots. Yuldashev Shamsiddin Qiyomiddinovich (SamDU)
i.f.n., dots. Nizamov Axtam Numonovich (SamDU)
i.f.n., dots. Bozorov Berdimurod Ulug’murodovich (SamDU)
i.f.n., dots. Boboqulov Bahromqul Mamatkulovich (SamDU)
i.f.n., dots. Usmonova Dilafruz Karshiyevna (SamDU)
i.f.n., dots. Alibekova Saodat Lapasovna (SamDU)
PhD, dots. Ulug‘murodova Nodira Berdimuradovna (SamDU)
PhD, dots. Sharifov Shuhrat Saidahmadovich (SamDU)
PhD, dots. Bakayev Ziyovuddin Toshbolta o‘g‘li (SamDU)
PhD, dots. Karjavova Xurshida Abdumalikovna (SamDU)
PhD, dots. Mansurova Nargiza Shamsiddinovna (“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti)
PhD, dots. Djalilov Faxriddin Azimovich (SamDU)
PhD, dots. Boltayev Burxon Sadinovich (SamDU)
PhD, dots. Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna (SamDU)

SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION - INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH HOLATI VA INVESTITSIYALARNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI

A.B.Bektemirov, A.A.Axrorov

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti i.f.d., professor
Email:
abdumalikbektemirov.57@gmail.com
Tel: *+99890 250 57 64*

Axrorov Abbos Aslamjon o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti magistri
Email: *abbosaxrorov@gmail.com*

Received: 15 May 2025
Revised: 22 May 2025
Accepted: 14 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot ishida Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar kontekstida viloyatning investitsion salohiyati, innovatsion muhit va tarmoqlar bo‘yicha investitsiyalar taqsimoti ko‘rib chiqilgan. 2020–2024-yillarga oid statistik ma’lumotlar asosida investitsiyalarning hajmi, moliyalashtirish manbalari, tarmoqlar kesimidagi ulushi hamda innovatsion loyihalarning o‘sish sur’atlari tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, investitsiyalarning tarkibi, iqtisodiy islohotlar, texnoparklar, erkin iqtisodiy zona, strategik loyihalar, raqamli transformatsiya, yashil energetika.*

СОСТОЯНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ

Аннотация: *В данной исследовательской работе дан глубокий анализ состояния повышения инвестиционной и инновационной активности в Самаркандской области и структурные особенности инвестиций. В контексте реализуемых в Республике Узбекистан экономических реформ рассмотрен инвестиционный потенциал региона, инновационная среда и распределение инвестиций по отраслям. На основе статистических данных за 2020–2024 годы проанализированы объемы инвестиций, источники финансирования, их доля по отраслям, темпы роста инновационных проектов, а также разработаны практические рекомендации по решению существующих проблем и их устранению.*

Ключевые слова: *инвестиционная активность, инновационное развитие, структура инвестиций, экономические реформы, технопарки, свободная экономическая зона, стратегические проекты, цифровая трансформация, зеленая энергетика.*

STATE OF INCREASING INVESTMENT AND INNOVATION ACTIVITY IN SAMARKAND REGION AND STRUCTURAL FEATURES OF INVESTMENTS

Annotation: *This research work provides an in-depth analysis of the state of increasing investment and innovation activity in Samarkand region and the structural features of investments. In the context of economic reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan, the investment potential of the region, the innovative environment and the distribution of investments by sectors were considered. Based on statistical data for 2020–2024, the volume of investments, sources of financing, their share by sector, and the growth rates of innovative projects were analyzed, and practical recommendations were developed to address existing problems and eliminate them.*

Keywords: *investment activity, innovative development, investment structure, economic reforms, technoparks, free economic zone, strategic projects, digital transformation, green energy.*

Kirish.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishda hududlarning investitsion va innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish zamonaviy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan chuqur institutsional islohotlar, xususan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hududiy farqlarni bartaraf etish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan.

Bu jarayonda Samarqand viloyatining investitsion-innovatsion faolligini oshirish masalasi alohida e’tiborni talab qiladi. Chunki viloyat geografik joylashuvi, transport-logistika imkoniyatlari, turizm salohiyati, boy tabiiy resurslari va mehnat bozorining sig‘imi bilan ajralib turadi. Biroq mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, investitsiyalarning tarkibiy jihatdan yetarlicha diversifikatsiya qilinmagani, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarining sanoat bilan zaif integratsiyalashgani, texnologik yangilanish sur’atlarining sustligi ushbu hududda investitsion-innovatsion faollikni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda viloyatda erkin iqtisodiy zonalar, sanoat zonalari, innovatsion texnoparklar va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muayyan infratuzilmalar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning faoliyati ko‘proq tashqi investitsiyalar oqimiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, investitsiyalarning sohalar bo‘yicha taqsimoti, ularning tarkibiy tarkibi, ichki va tashqi kapital manbalari, iqtisodiy samaradorlik darajasi viloyat bo‘yicha yetarlicha tahlil qilingan emas.

Shu bois, Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikning hozirgi holatini ilmiy asosda baholash, mavjud imkoniyatlar va mavjud to‘siqlarni aniqlash, investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, hamda bu asosda takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Hududiy investitsion-innovatsion faollikni oshirish, investitsiyalarning tarkibiy tarkibini tahlil qilish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari bugungi kunda iqtisodiy nazariya, mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya va innovatsiya siyosati sohasidagi muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu masala bo‘yicha xalqaro va milliy miqyosda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda hududiy investitsiya jozibadorligini baholash va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish borasida keng nazariy va amaliy asoslar ishlab chiqilgan. Jumladan, M. Porterning “Raqobat ustunligi” konsepsiyasi hududlarning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi asosiy omillarni, jumladan, investitsion oqimlar va innovatsion muhit bilan bog‘liq jihatlarni yoritadi. U hududiy raqobatdosh ustunliklarni to‘rtta omil – ishlab chiqarish resurslari, mahalliy talab, tarmoqlararo aloqadorlik va firmalar o‘rtasidagi raqobatga asoslangan tarzda baholaydi, bu esa mintaqaviy investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim mezon hisoblanadi.

J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan “OLI paradigm” (Ownership-Location-Internalization) modeli esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimlarini tushuntirishda ishlatiladi. Unga ko‘ra, mintaqalarga investitsiyalarni jalb etish jarayoni mulkdorlik afzalliklari, joylashuv va ichki resurslardan foydalanish imkoniyatlariga bog‘liq.

Innovatsion rivojlanish masalasida esa P. Drucker, R. Solow, K. Freeman, J. Schumpeter kabi olimlar innovatsiyalarni iqtisodiy o‘sish va hududiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida ko‘rib chiqadi. Ayniqsa, Schumpeterning “ijodiy buzilish” nazariyasida innovatsiyalar iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratishi va eskirgan tizimlarni o‘zgartirish orqali barqarorlikni ta’minlashi ta’kidlangan.

O‘zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan ham ushbu yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O.Xoshimov o‘z tadqiqotlarida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning ahamiyatiga urg‘u berib, ishlab chiqarish infratuzilmasi, moliyaviy resurslardan foydalanish va inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini baholash mezonlarini taklif qiladi.

M.Jo‘rayev hududiy investitsion siyosatni takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining roli va erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati samaradorligini o‘rganib, ularni rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqqan.

R.Qurbonov esa o‘z asarlarida viloyatlar kesimida investitsiyalarning tarkibiy tuzilmasi, tashqi va ichki manbalar nisbatining o‘zgaruvchanligi, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda mahalliy boshqaruv organlarining bu boradagi tashkiliy funksiyalarini tahlil qilgan.

Bundan tashqari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan muntazam ravishda tayyorlanadigan “Hududiy investitsiyaviy salohiyat” tahliliy sharhlari, Davlat statistika agentligining Samarqand viloyatiga oid iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining investitsiya siyosatiga oid farmon va qarorlari mavzuga oid dolzarb manbalar sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro darajadagi nufuzli tashkilotlar – UNCTAD, World Bank, OECD, WEF kabi institutlar tomonidan tayyorlanadigan “World Investment Report”, “Global Competitiveness Index”, “Ease of Doing Business” kabi hisobotlar orqali investitsion muhit va innovatsion faollik darajasi ko‘rsatkichlari mezonli tarzda taqqoslab tahlil qilinadi.

Shuningdek, 2020–2024 yillar davomida O‘zbekistonda qabul qilingan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi”, “Hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi”, “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish kontsepsiyasi” kabi hujjatlar tadqiqot mavzusining normativ-huquqiy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda Samarqand viloyatining investitsion-innovatsion salohiyati, uning tarkibiy xususiyatlari va rivojlanish omillari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy tahlil, hududiy iqtisodiyot, innovatsiyalar nazariyasi, modernizatsiya jarayonlari hamda investitsion faoliyatni strategik boshqarishga doir ilg‘or ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, taqdim etilgan statistik tahlil, solishtirma (komparativ) tahlil, gipotezali yondashuv

grafik va jadval usullari va ekspert baholash usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi, jumladan, Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollik sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu holat mamlakatda olib borilayotgan chuqur institutsional va iqtisodiy islohotlarning samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, investitsiya va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan kompleks davlat siyosati, xususan, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ), sanoat zonalari va innovatsion texnoparklarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish, sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish, soliq va bojxona imtiyozlari berish orqali investitsiyalarning hududiy oqimini faol qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, hududiy rivojlanish strategiyalarida har bir viloyatning o‘ziga xos salohiyati va ehtiyojlariga mos yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, Samarqand viloyatida sanoat, turizm, transport-logistika va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani, xorijiy va mahalliy investorlarning faol ishtiroki, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sarmoyalar hajmining ortib borayotgani bu hududni respublika miqyosida yetakchi innovatsion markazlardan biriga aylantirmoqda.

Davlat tomonidan yaratilayotgan tashkiliy-institutsional infratuzilma, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ishlab chiqarish subyektlari o‘rtasida aloqalarning kuchayishi Samarqand viloyatida innovatsion faoliyat ko‘lamining kengayishiga, raqamli texnologiyalar asosidagi boshqaruv tizimlarining shakllanishiga va iqtisodiy samaradorlikning ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

1-jadval

2020–2024-yillarda Samarqand viloyatida investitsiyalarning tarkibiy ko‘rsatkichlari (trln. so‘mda)

Yil	Umumiy investitsiyalar	Davlat investitsiyalari	Xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar	Mahalliy investitsiyalar
2020	15,2	5,3	4,1	5,8
2021	18,6	6,2	5,7	6,7
2022	22,3	8,1	6,5	7,7
2023	26,7	9,3	7,6	9,8
2024	30,1	10,2	8,9	11

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Samarqand viloyatida investitsiyalarning umumiy hajmi barqaror o‘sishga erishgan. 2020-yilda 15,2 trln. so‘m bo‘lgan investitsiyalar hajmi 2024-yilda 30,1 trln. so‘mgacha yetgan. Bu holat investitsion muhitning yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi.



1-rasm. 2020–2024-yillarda Samarqand viloyatida investitsiyalarning manbalari tarkibiy ko‘rsatkichlari (trln. so‘mda).

Xususan, Davlat investitsiyalari hajmi 2020-yildagi 5,3 trln. so‘mdan 2024-yilga kelib 10,2 trln. so‘mga yetishi kutilmoqda. Ushbu o‘sish ijtimoiy infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga ajratilgan mablag‘larning oshganini ko‘rsatadi.

Xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (TTXI) hajmi ham izchil ravishda oshib borgan. 2020-yilda 4,1 trln. so‘m bo‘lgan TTXI 2024-yilga kelib 8,9 trln. so‘mni tashkil qilmoqda. Bu viloyatda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratilganini, investorlar ishonchining ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Mahalliy investitsiyalar esa, 2020-yildagi 5,8 trln. so‘mdan 2024-yilga kelib 11 trln. so‘mga oshgan. Bu ko‘rsatkich mahalliy tadbirkorlarning faolligi, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yengilliklar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarining natijasi hisoblanadi.

Samarqand viloyati misolida investitsion faollik tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi besh yillikda, xususan 2020–2024-yillarda hududiy investitsiyalar hajmi va sifati jihatidan EIZilarli o‘sishga erishilgan. Bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, investorlar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va hududiy infratuzilmaning modernizatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ushbu yillarda viloyatda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Xususan, sanoat, transport-logistika, turizm, qishloq xo‘jaligi hamda qurilish sektorlarida xorijiy va mahalliy investorlar ishtirokida yirik sarmoyalar kiritildi.

E’tibroli jihati shundaki, 2021-yilda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’kidlangan strategik maqsad va marralarga bugungi kundagi viloyat ko‘rsatgichlari allaqchon yetishib oldi. Xususan, 2021-yil sentyabr oyidagi prezidentimiz nutqida shunday deyilgan edi: - “Kelgusi 5 yilda Samarqandda bir qator yirik “mega-loyihalar”ning ishga tushirilishi viloyatni mamlakatning “Innovatsion sanoat xabi”ga aylantiradi. “Kelgusi besh yilda viloyatda 8 milliard dollarlik 5,5 mingdan ziyod katta-kichik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 250 ming doimiy ish o‘rinlari yaratiladi. Ushbu loyihalar viloyat uchun “drayver” hisoblangan tarmoqlarda amalga oshiriladi.

Jumladan, to‘qimachilik sanoatida besh yilda umumiy qiymati 750 million dollarlik 182 ta loyihalar ishga tushirilib, 19 mingta yangi ish o‘rinlari yaratiladi va ip-kalavani qayta ishlash darajasi 100 foizga yetkaziladi.

Qurilish materiallari sanoatida Nurobod, Qo‘shrabot, Narpay, Past Darg‘om, Paxtachi tumanlari va Kattaqo‘rg‘on shahrida 1,4 milliard dollarlik 21 ta loyiha amalga oshirilib, 10 mingta ish o‘rni tashkil etiladi.

“Urgut” erkin iqtisodiy zona tajribasidan kelib chiqib, Past Darg‘om, Jomboy, Samarqand tumanlari va Samarqand shahrida elektrotexnika sohasida 200 million dollar investitsiyalar hisobiga 4,5 ming ish o‘rinlik alohida sanoat klasteri ishga tushiriladi. Natijada, viloyatda maishiy texnika ishlab chiqarish hajmi 10 barobarga, eksporti 6 barobarga oshiriladi.

Shuningdek, charm-poyabzal va ipakchilik sanoatlarida 260 million dollarlik 52 ta loyihalar amalga oshirilib, 10 mingta yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi. Viloyatning ahamiyatli sohalaridan biri – meva-sabzavotni qayta ishlash sanoatida 75 ta loyiha amalga oshirilib, 180 million dollar investitsiyalar o‘zlashtiriladi va 5 mingta doimiy ish o‘rinlari yaratiladi. Eng muhimi – viloyatda yetishtiriladigan meva-sabzavotlarning qayta ishlash darajasi 50 foizga yetkaziladi.

Kelgusi 5 yilda Samarqandda bir qator yirik “mega-loyihalar”ning ishga tushirilishi viloyatni mamlakatimizning “Innovatsion sanoat xabi”ga aylantiradi. Jumladan, Samarqand metallurgiya zavodida 300 million dollar investitsiya hisobiga, metallurgiya klasteri tashkil etiladi. Klasterda har yili 870 ming tonna metall mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Xuddi shunday, “Samavto” korxonasida kelgusi yilda 50 million dollar investitsiyalar o‘zlashtirilishi hisobiga avtobus, yuk va maxsus avtomobillarni ishlab chiqarish 2,5 barobarga oshiriladi (4 mingdan 10 mingtaga). Shuningdek, “UrGaz karpet” va “SAG” korxonasi negizida sun'iy toladan to tayyor gilam va to‘qimachilik mahsulotlarigacha ishlab chiqarish jarayonini qamrab olgan 500 million dollarlik klaster barpo etiladi. Natijada, 5 mingta yangi ish o‘rinlari yaratiladi va 250 million dollarlik qo‘shimcha eksport hajmlari qo‘shiladi.

Ushbu yirik loyihalarni amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi tomonidan tuziladigan “Milliy sanoat xoldingi” mablag‘lari jalb etiladi”.

Investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri shundaki, ular o‘z navbatida Samarqand viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YAHM) o‘sishida muhim rol o‘ynadi. Masalan, 2020-yilda viloyat YAHM hajmi 36,5 trln. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 57,8 trln. so‘mga yetgan. Bunday EIZilarli o‘sish sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sohasi kengayishi va turizm infratuzilmasining rivojlanishi evaziga erishildi.

Samarqand viloyatida investitsion faollikni rag‘batlantirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan:

- Erkin iqtisodiy zonalar faoliyati – "Urgut" va "Samarqand" EIZ orqali sanoat kooperatsiyasi kuchaydi;
- Xalqaro hamkorlik – Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Rossiya bilan amalga oshirilgan qo‘shma loyihalar;
- Transport infratuzilmasining rivoji – Samarqand xalqaro aeroportining

modernizatsiyasi va temiryo‘l tarmog‘i kengaytirilishi;

- Davlat kafolatlari – Strategik loyihalarni moliyalashtirishda kafolatlar va imtiyozlar berilishi.

Yuqori investitsion faollik faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga emas, balki ijtimoiy ko‘rsatkichlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, 2020–2024-yillarda viloyatda 12 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilgan, qishloq hududlarida 50 dan ortiq ijtimoiy obyekt foydalanishga topshirilgan.

Samarqand viloyati misolida ko‘rilganda, investitsion faollikning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri beqiyosdir. 2020–2024-yillarda bu holat iqtisodiy o‘sish sur’atlarida, yangi korxonalarning ishga tushirilishida, eksport hajmining ortishida va ijtimoiy barqarorlikda yaqqol namoyon bo‘ldi. Shunday qilib, investitsiyalarni strategik yo‘nalishda boshqarish va rag‘batlantirish Samarqand viloyatining uzoq muddatli taraqqiyoti uchun asosiy omil bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, Samarqand viloyatida innovatsion rivojlanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2020–2024-yillar oralig‘ida viloyatda ilm-fan va texnologiyalarning iqtisodiy tarmoqlarga integratsiyasini kuchaytirishga doir izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu davr mobaynida innovatsion loyihalar soni, ularni moliyalashtirish hajmi, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik hamda texnoparklar faoliyati EIZilarli darajada faollashdi.

Innovatsion faoliyat ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda viloyatda amalga oshirilgan innovatsion loyihalar soni 52 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkich 143 taga yetdi. Innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan mablag‘lar esa 2020-yildagi 98 mlrd so‘mdan 2024-yilda 392 mlrd so‘mga yetgani kuzatilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar viloyatda ilmiy salohiyatning asta-sekin iqtisodiyotga xizmat qila boshlaganidan dalolat beradi.

Innovatsion faollikning tahlilida shuni ta’kidlash kerakki, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) sektori eng jadal o‘sish sur’atini ko‘rsatgan tarmoq bo‘lib, bu sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2020-yilda 22 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 110 mlrd so‘mga yetgan. Viloyat miqyosida raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv va xizmat ko‘rsatish tizimlarining joriy qilinishi, elektron hukumat tizimining kengaytirilishi bu jarayonda muhim omil bo‘ldi.

2020–2024-yillar davomida Samarqand viloyatida innovatsion faollik izchil o‘sib borgan. Innovatsion muhitni shakllantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, grantlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari, texnoparklar faoliyati, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasi kabi yo‘nalishlar muhim rol o‘ynadi. Kelgusida viloyatning xalqaro innovatsion reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashi uchun mavjud infratuzilmani takomillashtirish, ilmiy kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarga keng yo‘l ochish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining yirik hududiy markazlaridan biri bo‘lgan Samarqand viloyati geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, rivojlangan infratuzilmasi va boy madaniy merosi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda hududga investitsiyalar oqimi EIZilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa viloyatda sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, transport va turizm kabi tarmoqlarning rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Mazkur bobda Samarqand viloyatida iqtisodiyot tarmoqlariga jalb

etilayotgan investitsiyalar holati, ularning tarkibi, tarmoqlar kesimidagi taqsimoti va istiqbollari tahlil qilinadi.

Yirik investitsiya loyihalari tahlili.

- Samarqand xalqaro aeroportining modernizatsiyasi: 2023-yilda yakunlanib, xalqaro reyslar soni 1,5 barobarga oshdi;
- Urgut erkin iqtisodiy zonasi: elektrotexnika va farmatsevtika korxonalari faoliyati 2024-yilda to‘liq ishga tushirilmoqda;
- Kattaqo‘rg‘on quyosh elektr stansiyasi: 2024-yilda yillik 300 MVt quvvat bilan foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan;
- Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash loyihalari: Past Darg‘om va Toyloq tumanlarida 2023-yilda boshlangan.

Samarqand viloyatining ijobiy omillari:

- Geografik qulaylik va transport yo‘llari;
- Turizm rivojlanishida jahon miqyosidagi qiziqish;
- Innovatsion markaz va IT park filiallari ochilishi.

Mavjud muammolar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Energetika bilan ta’minlashdagi uzilishlar (ayniqsa 2023-yil qish mavsumida);
- Ba’zi hududlarda yer ajratish va ruxsat olish tartiblarining murakkabligi;
- Malakali ishchi kuchi taqchilligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun Taklif va tavsiyalar

- Sanoat klasterlari rivojini tezlashtirish;
- GIS texnologiyalari asosida investitsiya monitoringini yo‘lga qo‘yish;
- Kichik va o‘rta biznesga grant va kredit imtiyozlarini oshirish;
- Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, ayniqsa turizm infratuzilmasida.

2022–2024-yillarda Samarqand viloyatida investitsiyaviy faollik barqaror o‘sib bormoqda. Yirik loyihalarning amalga oshirilishi, xorijiy investitsiyalarning oshishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatining kengayishi hudud iqtisodiyotiga EIZilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mavjud muammolarni hal qilish esa Samarqand viloyatini yanada jozibador investitsiya manziliga aylantirishi mumkin.

Innovatsion faollik, asosan, quyidagi sohalarda ko‘paymoqda:

- Elektrotexnika va elektroenergetika: Urgut erkin iqtisodiy zonasi doirasidagi ishlab chiqarish korxonalari;
- Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari: Past Darg‘om va Toyloqdagi qayta ishlash va agroklaster loyihalari;
- Axborot texnologiyalari: Samarqand IT parkining filiallari orqali raqamli xizmatlar rivoji;
- Yashil energetika: Kattaqo‘rg‘on quyosh elektr stansiyasi loyihasi.

Investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari

1. Moliyaviy manbalar bo‘yicha:

Xorijiy investitsiyalar: umumiy hajmning 18–20%.

Davlat byudjeti mablag‘lari: 25–27%.

Mahalliy xususiy mablag‘lar: 50% dan ortiq.

2. Tarmoqlar bo‘yicha:

Sanoat sektori: umumiy investitsiyalarning 37%.

Qishloq xo‘jaligi: 17%.

Transport-logistika: 12%.

Turizm va xizmat ko‘rsatish: 13%.

Ta’lim va sog‘liqni saqlash: 10%.

2. Innovatsion texnologiyalar ulushi: Investitsiyalarning kamida 15–18 foizi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga yo‘naltirilmoqda. Misol uchun, quyosh va shamol energetikasi loyihalari, raqamli xizmatlar, agrotexnologiyalar va innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘nalishlari.

Asosiy muammolar:

- Energetika tizimining modernizatsiyaga muhtojligi;
- Innovatsion mahsulotlar bozorida talabning yetarlicha shakllanmaganligi;
- Mahalliy kadrlar tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha yetarli salohiyat mavjud emasligi.

Imkoniyatlar:

- Turizm va servis sohasida yangi texnologiyalarni joriy qilish imkoniyati;
- Innovatsion klasterlar tashkil etish orqali sanoatni rivojlantirish;
- Yashil energetika loyihalarini kengaytirish.

Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollik yil sayin ortib, iqtisodiyotning ko‘plab sohalarida yangi texnologiyalarni joriy qilish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu boisdan, mazkur jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsion muhitni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va yosh mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu orqali, kelajakda innovatsion faollikni yanada oshirish orqali mamlakatimizda investitsion faollikni ya’ni investitsiyalar hajmini o‘stirishda yuqori natijalarga erishishimiz mumkin.

Xulosa

Samarqand viloyatida 2020–2024-yillar davomida investitsion-innovatsion faollik EIZilarli darajada oshdi. Bu holat mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, qulay investitsion muhit yaratish, texnologik modernizatsiya va xalqaro hamkorlikning kuchayishi bilan bog‘liqdir. Tadqiqot natijalaridan quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Investitsiyalarning hajmi va tarkibi bo‘yicha o‘sish sur’atlari barqarorligini saqlab kelmoqda. 2020-yilda 15,2 trln. so‘m bo‘lgan umumiy investitsiyalar hajmi 2024-yilga kelib 30,1 trln. so‘mga yetgan bo‘lib, bu hududda barqaror iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratmoqda.

2. Investitsiyalarning asosiy manbalari sifatida davlat, xorijiy va mahalliy mablag‘lar muhim o‘rin tutmoqda. Xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushi ortib, viloyat jahon investitsiya maydonida jozibador hudud sifatida shakllanmoqda.

3. Innovatsion faollik viloyat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. 2020-yildan 2024-yilga qadar innovatsion loyihalar soni 2,7 barobarga, ularga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi esa 4 barobarga oshdi. Bu ilmiy salohiyatning iqtisodiyotga integratsiyalashayotganidan dalolat beradi.

4. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport-logistika, turizm, axborot texnologiyalari va yashil energetika tarmoqlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ular nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

5. Viloyatda mavjud bo‘lgan muammolar: energetika tizimidagi uzilishlar, malakali kadrlar yetishmasligi va ruxsat olish tartiblarining murakkabligi kabi masalalarni hal qilish zarur.

6. Kelgusida investitsion-innovatsion faollikni yanada oshirish uchun quyidagi takliflar muhim ahamiyatga ega:

– sanoat klasterlari va texnoparklar faoliyatini jadallashtirish;

– GIS texnologiyalari asosida investitsiya monitoringini joriy qilish;

– innovatsion startaplar va kichik biznes subyektlariga grant va imtiyozli moliyaviy ko‘mak ko‘lamini kengaytirish;

– yosh mutaxassislar tayyorlash tizimini innovatsion ehtiyojlarga moslashtirish.

Shunday qilib, Samarqand viloyatining investitsion-innovatsion faolligi hududiy iqtisodiy rivojlanishning drayveriga aylanmoqda. Bu jarayonni tizimli tarzda boshqarish va qo‘llab-quvvatlash orqali viloyatni nafaqat respublika, balki Markaziy Osiyodagi innovatsion sanoat markazlaridan biriga aylantirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Porter M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
2. Dunning J.H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions, Journal of International Business Studies, 1988.
3. Schumpeter J. A. Capitalism, Socialism and Democracy. – London: Routledge, 1942.
4. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship.–New York:Harper&Row, 1985.
5. Freeman C. Technology, Policy, and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter, 1987.
6. Solow R. M. Technical Change and the Aggregate Production Function. – Review of Economics and Statistics, 1957.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi // Lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi – Hududiy investitsiyaviy salohiyat tahlillari. www.miit.uz
9. Davlat statistika agentligi. Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2020–2024). www.stat.uz
10. Qurbonov R. Hududiy investitsiya siyosatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. – T.: Iqtisodiyot, 2021.
11. Jo‘rayev M. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning ilmiy asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2022.
12. Xoshimov O. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhit omillari. – T.: Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2020.
13. World Bank. Doing Business 2020. www.worldbank.org
14. UNCTAD. World Investment Report 2023. www.unctad.org
15. World Economic Forum. Global Competitiveness Report 2023. www.weforum.org

“YASHIRIN IQTISODIYOT”GA METODOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

N.R.Abduvohidov

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Abduvohidov Najmiddin Rahmatullaevich
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti mustaqil izlanuvchisi, Samarqand viloyati, Samarqand viloyati soliq boshqarmasi xodimi.
Email:
najmiddinabduvohidov@gmail.com
Tel: *99893 720 03 18*

Received: 20 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 11 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotasiya: *maqolada “yashirin iqtisodiyot”ga metodologik yondashuvni takomillashtirish masalalari qarab chiqilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarini rivojlanishi, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonining takomillashib borayotganligi bilan hamohang ravishda yashirin iqtisodiyotning ko‘rinishlari ham takomillashib borayotganligiga ham urg‘u berilgan. Raqamli iqtisodiyot orqali amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida zamonaviy nazorat mexanizmlari yaratilishiga qaramasdan yashirin iqtisodiyotning zamonaviy ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda.*

Kalit so‘zlar: *yashirin iqtisodiyot, soyadagi iqtisodiyot, ikkilamchi iqtisodiyot, xufiyona iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, noqonuniy iqtisodiyot, qora iqtisodiyot, kuzatilmaydigan iqtisodiyot, soxta iqtisodiyot.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА К “ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКЕ”

Аннотация*: в статье рассмотрены вопросы совершенствования методологического подхода к теневой экономике. В частности, уделено внимание тому, что с развитием информационных технологий и усовершенствованием экономических процессов одновременно развиваются и формы теневой экономики. Несмотря на создание современных механизмов контроля в рамках мероприятий по цифровой экономике, продолжают появляться новые формы теневой экономики.*

Ключевые слова*: теневая экономика, неформальная экономика, нелегальная экономика, черная экономика, скрытая экономика, неподконтрольная экономика, фиктивная экономика.*

IMPROVING THE METHODOLOGICAL APPROACH TO THE “HIDDEN ECONOMY”

Annotation*: this article examines the issues of improving the methodological approach to the shadow economy. In particular, it highlights that with the development of information technologies and the improvement of economic processes, forms of the shadow economy are also evolving. Despite the implementation of modern control mechanisms within the framework of digital economy initiatives, new forms of the shadow economy continue to emerge.*

Keywords*: shadow economy, informal economy, illegal economy, black economy, hidden economy, unobserved economy, fictitious economy.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashirin iqtisodiyot masalasi eng dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda, uni ko‘lamini qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, yashirin iqtisodiyotning zamonaviy shakllarda paydo bo‘lishi davom etmoqda. Ayniqsa axborot texnologiyalari, internet tarmoqlarini rivojlanishi oqibatida yashirin iqtisodiyot ko‘lami transchegaraviy muammoga aylanib bormoqda. Bu borada mamlakatimizda ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu haqda ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Bo‘lganda ham natija sezilarli darajada ta’sirchangligi kam bo‘lmoqda. Chunki bu hamon saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan ushbu ish, bugungi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalqaro miqyosda yashirin iqtisodiyot muammolarini tadqiq qilgan olim va tadqiqotchilar jumlasiga: E.Shutherland, K. Hart, E.Fayge, P. Gutmann, G.Yamada, A.Portes, S.Sass en-Koob, D.Mead, S.Morrisson, B.Dallago, F.Shnayder, A.Buex, P.Lemieuks, S.Villiams, D.Andrevs, A.Sanchez, A.Jonsson, L.Feld, S.Larsen, R.Dell Anno va boshqalar. Mamalakatimizda ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borgan olim va tadqiqotchilar jumlasiga: A.O‘lmasov, Sh.Qobilov, K.Mambetjanov, A.Xudoynazarov, A.Axmadaliev, N.Abulqosimov, N.Mo‘minov, R.M.Alimov, V.N.Galkin, Z.S.Zaripov, T.V.Iminov, A.T.Isaxodjaev, I.Ismoilov, M.Q.Pardaev, M.M.Muhammedov, Q.Mirajonov, A.A.Ortiqov, X.Odilqoriev, I.Rustamov, G‘.N.Alimardonov, Z.K.Toshev kabilarni kiritish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy yondoshuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez hamda iqtisodiy tahlilning boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Xalqaro miqiyosda ham, MDH davlatlari va mamlakatimizda ham yashirin iqtisodiyot bo‘yicha atamalarni qo‘llashda bir xillik mavjud emas. Ushbu iqtisodiy munosabatda-yashirin iqtisodiyot, soyadagi iqtisodiyot, ikkilamchi iqtisodiyot, xufiyona iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, noqonuniy iqtisodiyot, qora iqtisodiyot, kuzatilmaydigan iqtisodiyot va boshqa atamalar qo‘llaniladi.

“Yashirin iqtisodiyot”ning xalqaro e’tirof etilgan yagona tarifi hamda uning ko‘lamini aniqlashning aniq usullari mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda, asosan rus tilida ko‘proq “Soyadagi iqtisodiyot” (tenevaya ekonomika) va o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda “Yashirin iqtisodiyot” atamasi qo‘llanib kelinmoqda. Bu ikki atama mazkur iqtisodiy jarayonni umumlashtiruvchi atamasi sifatida o‘quvchilar tomonidan qabul qilinayotgan bo‘lsada, ularning har bir turining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

O‘zbek tilidagi adabiyotlarda yashirin iqtisodiyotga berilgan tariflar bilan tanishadigan bo‘sak, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasining Ya-harfi bo‘limida, “**yashirin iqtisodiyot**, **xufiya iqtisodiyot** — ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlari”, deb izoh

berilgan. So‘ngra unga yanada aniqlik kiritish uchun “Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste’mol jarayonlari-iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi” degan tushuncha ham keltirilgan. Milliy ensiklopediyaning mazkur bo‘limida yashirin iqtisodiyotning maqsadi, iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra 6 ta turga bo‘lingan holda tushuncha berilgan.

H.P.Abulqosimov va M.H.Abulqosimovlarning muallifligida 2015 yil “Noshirlik yog‘dusi” nashriyoti tomonidan chop etilgan -IQTISODIYoT-qisqacha izohli lug‘atining 386-betida: “Xufyona (yashirin) iqtisodiyot – davlat statistika organlarida hisobga olinmagan, g‘ayriqonuniy va iqtisodiy faoliyatga teskari bo‘lgan harakatlar yig‘indisi. Xufyona iqtisodiyot – unda iqtisodiy faoliyat qonun doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan, ya’ni bitimlar qonundan, xo‘jalik turmushining huquqiy me’yorlari va rasmana qoidalaridan foydalanilmagan holda amalga oshi-riladigan soha”, deb tushuntirilgan. Ushbu asarda xufyona (yashirin) iqtisodiyotni 3 toifaga ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi (hozirda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi)ning 2024 yil 27 maydagi 114-buyrug‘i bilan tasdiqlangan Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha uslubiy nizom tasdiqlanib, yashirin iqtisodiyotni statistik baholash nuktai nazaridan **kuzatilmaydigan iqtisodiyot** atamasidan foydalanilgan va uning 3 ta tarkibiy qismi sifatida tarif berilgan, jumladan:

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot – doimiy statistika kuzatuvlarida to‘liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko‘rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari, deb qaralib, ularni quyidagi uchta turi keltirilgan:

-**norasmiy iqtisodiyot** – uy xo‘jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat;

-**yashirin iqtisodiyot** – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat;

-noqonuniy iqtisodiyot – qonun bilan ta’qiqlangan yoki vakolatga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilganda qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladigan iqtisodiy faoliyat turlari.

Yashirin iqtisodiyotning bir ko‘rinishi yoki shakli hisoblangan norasmiy iqtisodiyotning nazariy masalalarini takomillashtirish bo‘yicha G‘.N.Alimardonov tomonidan ham tadqiqotlar olib borilgan, “Ko‘pincha yashirin yoki yashirin iqtisodiyot deb ataladigan norasmiy iqtisodiyot rasmiy sektorning me’yoriy-huquqiy bazasidan tashqarida yuzaga keladigan bir qator iqtisodiy operatsiyalar va amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Norasmiy iqtisodiyot davlat tomonidan ro‘yxatga olinmagan, tartibga solinmagan yoki soliqqa tortilmaydigan faoliyatni o‘z ichiga oladi” - deb ko‘rsatib o‘tgan.

Fernando de Soto “Boshqa yo‘l” asarida, ***xufyona iqtisodiyot***ni xalqning, korrupsiyalashgan davlatning, qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga

nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi.

1-jadval

Iqtisodiy-statistik (davlat budjeti manfaati) nuqtai nazardan yashirin iqtisodiyotning nomoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari*



Xufyona iqtisodiyotni o‘rganish va tahlil etish taxminan yarim asrdan buyon davom etayotgan bo‘lsa ham, olimlarda va tahlilchilarda uni tahlil qilishning yagona yondashuvi hanuzgacha mavjud emas. Masalan, ingliz tilidagi manbalarda “informal economy” (norasmiy iqtisodiyot), “underground economy” (yashirish (maxfiy) iqtisodiyot), “s’hadow economy” (soyadagi (pana) iqtisodiyot), “black economy” (qora iqtisodiyot) kabi terminlarni uchratish mumkin, va bu terminlar turli tadqiqotchilarda turli ma’noda izohlanishini ko‘rsamoqda.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar natijasida, yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy (davlat budjeti) nuqtai nazaridan namoyon bo‘lishini 3 ta guruhga bo‘lishimiz mumkin(1-jadval):

I.Rasmiy sektorda, yashirin iqtisodiyot;

II.Norasmiy iqtisodiyot;

III.Noqonuniy iqtisodiyot.

Rasmiy sektorda, yashirin iqtisodiyot, - bu rasmiy ravishda ro‘yxatdan o‘tgan sub’ektlar (yuridik va jismoniy shaxslar)da, norasmiy bandlik, bajarilgan ish va xizmatlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, sotilgan tovarlar hajmini rasmiy hisobotlarda ko‘rsatmaslik, kamaytirib ko‘rsatish, soliqlarni yashirish yoki kamaytirib ko‘rsatish hamda soxta (har xil qo‘shib yozishlar) ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Norasmiy iqtisodiyot, - bu mamlakat qonunchiligida ta’qiqlanmagan faoliyat turlari bilan rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan holda shug‘ullanish bo‘lib, undagi barcha faoliyatlar (bandlik, ishlab chiqarish, realizatsiya va boshq.) norasmiy (yashirin) tarzda amalga oshirilib, soliq va statistik hisobotlarda aks ettirilmaydi;

Noqonuniy iqtisodiyot,-mamlakat qonunchiligida ta’qiqlangan faoliyat turlari (narkobiznes, o‘q-dori, qurol-aslaha, odam savdosi, fohishabozlik, qimor va boshq.) bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat bo‘lib, soliq va statistik ko‘rsatkichlarda qayd etilmaydi.

Rasmiy sektordagi yashirin iqtisodiyot jarayoni ancha murakkab jarayon bo‘lib, uni ayrim ko‘rinishlari soliqqa tortilmasdan davlat statistikasida qayd etilmasdan amalga oshirilsa, ayrimlari soliqqa tortilib, statistika ko‘rsatkichlarida aks ettirilishi, ayrimlari esa, statistika ko‘rsatkichlarida aks ettirilsada soliqqa tortilmasdan qolishi mumkinligi kuzatilmoqda.

Bu holat esa yuqorida ko‘rib o‘tilgan yashirin iqtisodiyotga berilgan tariflarda - yashirin iqtisodiyot soliqqa tortilmasligi va davlat statistikasida aks etmaydigan jaryon ekanligi kabi tushunchalarga zid keladi.

Mazkur tadqiqotimizda rasmiy sektordagi yashirin iqtisodiyotni murakkabligidan kelib chiqib, uni tizimlashtirishga harakat qildik.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, rasmiy sektordagi yashirin iqtisodiyot ham o‘z navbatida 3 ta turga bo‘linadi:

1.Rasmiy sektorda norasmiy bandlik;

2.Rasmiy sektorda, tovar ish va xizmatlar ishlab chiqarish hamda sotish hajmlarini ko‘rsatmaslik yoki kamaytirib ko‘rsatib shu orqali soliqdan qochish;

3.Rasmiy sektorda soxta iqtisodiyot.

Rasmiy sektordagi norasmiy bandlik ham **ikki xil** ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

-to‘liq norasmiy bandlik - bunda mazkur ishchi-xizmatchilar rasmiy ravishda ishga qabul qilinmasdan, og‘zaki kelishuv asosida ishlab, ish haqini “konvert” usulda oladi, ularga ish haqidan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisoblanmaydi, davlat statistika ko‘rsatkichlarida aks etmaydi, mazkur

norasmiy band fuqarolarning mehnat, dam olish va boshqa huquqlari cheklanadi. Rasmiy band bo‘lgan xodimlarga ish haqining bir qismi “konvert” usulda beriladi, mazkur “konvert”da to‘langan ish haqi miqdoriga ish haqidan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisoblanmaydi, davlat statistikasida ish haqining mazkur qismi aks ettirilmaydi.

Rasmiy sektordagi norasmiy bandlik iqtisodiyotning barcha sohalarida mavjud, ayniqsa qishloq xo‘jaligi, qurilish, sanoat, xizmat ko‘rsatishning umumiy ovqatlanish sohasida yuqori ulushni tashkil etmoqda.

2023 yil davomida Samarqand viloyat soliq idoralarining amalga oshirgan chora-tadbirlari natijasida 8502 ta rasmiy sektordagi xo‘jalik sub’ektlarida norasmiy band bo‘lgan 40367 nafar fuqarolar rasmiy bandligi ta’minlanib, ularga 117,5 mlrd so‘m soliqlar hisoblanishi ta’minlangan.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot ishi davomida yashirin iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorda iqtisodiyot nuqtai nazaridan nomoyon bo‘lishini va ularni tizimlashtirish yo‘nalishlari nazariy jihatdan ko‘rib chiqilib, quyidagi xulosalar qilindi:

Birinchidan, rasmiy sektordagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun qo‘shib (kamaytirib) yozish va noqonuniy iqtisodiyotni oldini olish hamda bartaraf etish uchun hukumat tomonidan zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilanishi lozim;

Ikkinchidan, rasmiy sektordagi yashirin iqtisodiyotni oldini olish va bartaraf etish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonini takomillashtirib borish ham maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, yashirin iqtisodiyotning nomoyon bo‘lish shaklidan biri *norasmiy iqtisodiyotga* nisbatan hukumat tomonidan “yumshoq” munosabatda bo‘lib, ularni rag‘batlantirish orqali rasmiy sektorga jalb qilish jarayonini takomillashtirish ham o‘ta dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Орлова Д.Р., -“ Теневая экономика”. Учебное пособие. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Мир науки, 2023. 4-стр;

2. Turdiev B.S.,-“Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish va unga qarshi samarali kurashish yo‘llari, “Yurist axborotnomasi” jurnali 2020 yil 4-son, 1 jild, 168-bet;

3. O‘lmasov A, Qobilov Sh.,- O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Ya-harfi, yashirin iqtisodiyot, xufiya iqtisodiyot;

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligining 27.05.2024y. dagi 114-buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kuzatil-maydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha uslubiy nizom” 1-bet;

5. Alimardonov G‘.N., -“Norasmiy iqtisodiyotning mavjudligini nazariy masalalari”-“Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” ilmiy elektron jurnali, 2023 yil avgust 4-son, 116-bet;

6. Abulqosimov H.P., Mo‘minov N.G., “Xufyona iqtisodiyot”-o‘quv qo‘llanma, Toshkent “Yangi nashr” -2020;

OILA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH DASTURI DOIRASIDA BANKLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLARNING AHAMIYATLI JIHATLARI.

Z.D.Niyozov, **A.A.Axrorov**

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Z.D.Niyozov
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti mustaqil izlanuvchisi, Samarqand viloyati, Samarqand viloyati soliq boshqarmasi xodimi.
Email:
najmiddinabduvohidov@gmail.com
Tel: *99893 720 03 18*

A.A.Axrorov
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti talabasi.
Email: axrorov0888@gmail.com

Received: 15 May 2025
Revised: 22 May 2025
Accepted: 14 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida oila tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari doirasida banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda 2023–2024-yillardagi bank kreditlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, oila tadbirkorligini rivojlantirishdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlangan. Natijalar banklarning maxsus kredit dasturlari, moliyaviy savodxonlikni oshirish va xalqaro tajribalarni moslashtirish orqali oilaviy biznesning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *oila tadbirkorligi, bank kreditlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy savodxonlik.*

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ, РЕАЛИЗУЕМОЙ БАНКАМИ В РАМКАХ ПРОГРАММЫ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.

Аннотация. *В статье анализируются механизмы финансовой поддержки, предоставляемой банками в рамках программ развития семейного предпринимательства в Республике Узбекистан. В ходе исследования проанализированы статистические данные по банковским кредитам за 2023–2024 годы, выявлены основные проблемы в развитии семейного предпринимательства и пути их решения. Результаты показали, что банки способствуют устойчивому развитию семейного бизнеса посредством специальных кредитных программ, повышения финансовой грамотности и адаптации международного опыта.*

Ключевые слова: *семейное предпринимательство, банковские кредиты, финансовая поддержка, экономическое развитие, финансовая грамотность.*

IMPORTANT ASPECTS OF THE WORK IMPLEMENTED BY BANKS WITHIN THE FRAMEWORK OF THE FAMILY ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT PROGRAM.

Annotation: *This article analyzes the mechanisms of financial support provided by banks within the framework of family entrepreneurship development programs in the Republic of Uzbekistan. The study analyzed statistical data on bank loans for 2023–2024 and identified the main problems in the development of family entrepreneurship and ways to overcome them. The results showed that banks contribute to the sustainable development of family business through special loan programs, and adapting international experiences.*

Keywords*: family entrepreneurship, bank loans, financial support, economic development, financial literacy.*

Kirish. Oila tadbirkorligi O‘zbekiston iqtisodiyotidagi kichik va o‘rta biznesning muhim tarmoqlaridan biridir. Bu soha aholi bandligini ta’minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, xususan, imtiyozli kreditlar va maxsus dasturlar oilaviy biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq, hududiy infratuzilma muammolari, axborotlashtirishning past darajasi va moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi kabi to‘siqlar ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda. Ushbu maqola banklarning oila tadbirkorligini rivojlantirishdagi rolini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni yechish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Oila tadbirkorligini moliyalashtirish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar (Smith, 2020; Johnson & Lee, 2022) banklarning maxsus kredit dasturlari kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, Joseph Schumpeter (1934)-Tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rib, oila tadbirkorligini mahalliy iqtisodiyotlarda innovatsiyalar va ish o‘rinlari yaratishning muhim manbai deb hisoblaydi. Uning “ijodkor yo‘qotish” (creative destruction) nazariyasi oilaviy bizneslarning bozor dinamikasiga moslashuvchanligini ta’kidlaydi. Hernando de Soto (2000)-Rivojlanayotgan mamlakatlarda oila tadbirkorligining rivojlanishi mulk huquqlari va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. U O‘zbekiston kabi davlatlarda mulkiy huquqlar tizimini mustahkamlash orqali oilaviy bizneslarni rivojlantirish mumkinligini aytadi. Peter Drucker (1985)-Tadbirkorlikning ijtimoiy va iqtisodiy rolini tahlil qilib, oila tadbirkorligini “iqtisodiyotning yuragi” deb ataydi, chunki u mahalliy jamoalarni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi maxsus kreditlash dasturlari orqali oilaviy biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa bu borada olib borilgan tadqiqotlar (Aliyev, 2021; Qosimov, 2023) asosan davlat dasturlariga e’tibor qaratgan, lekin banklarning amaliy faoliyati va ularning hududiy ta’siri yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston banklarining oila tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashdagi amaliy ishlarini tahlil qiladi.

Metodologiya.

1. Tadqiqot usullari: miqdoriy va sifatli yondashuvlarning kombinatsiyasi

Tadqiqotda ikkala yondashuv (miqdoriy va sifatli) qo‘llanilgan, bu esa natijalarning to‘liqligini ta’minlagan:

- Miqdoriy tahlil: 2023–2024-yillardagi bank kreditlari hajmi (1,2 milliard so‘mdan 3,8 milliard so‘mgacha o‘sish) kabi raqamli ma’lumotlar ishlatilgan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Markaziy banki va Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlariga asoslangan.

- Sifatli tahlil: 50 ta oilaviy tadbirkor bilan suhbatlashuv va so‘rovnoma o‘tkazish orqali byurokratik to‘siqlar (65%) va moliyaviy savodxonlik muammolari (45%) kabi ijtimoiy omillar aniqlandi.

Bu kombinatsiya statistik aniqlik bilan tadbirkorlarning shaxsiy

tajribalarini uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

2. Ma’lumotlar manbalari: ishonchlilik va vakillik

Tadqiqot quyidagi asosiy manbalarga tayanadi:

- Rasmiy statistika: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Milliy statistika qo‘mitasining ochiq ma’lumotlari.

- Bank hisobotlari: “Xalq banki” va “Ipoteka bank” kabi yirik banklarning kredit dasturlari bo‘yicha ma’lumotlar.

- Birinchi qo‘lda ma’lumotlar: Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi 50 ta tadbirkor bilan suhbatlar.

Bu manbalar tadqiqotning ob’ektivligini ta’minlaydi, chunga ular davlat va banklar tomonidan tasdiqlangan rasmiy ma’lumotlardir.

3. Geografik va vaqt doiyasi: aniq chegaralanganlik

- Hududiy doiya: Toshkent va Samarqand kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlar tanlangan, bu esa O‘zbekistonning umumiy iqtisodiy holatini aks ettirish uchun yetarli.

- Vaqt doiyasi: 2023–2024-yillar oralig‘i – bu davrda oila tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlari kengayganligi sababli tanlangan.

4. Tahlil usullari: statistik va SWOT tahlili

- SPSS dasturida statistik tahlil: Kreditlar hajmi, foiz stavkalari va tadbirkorlarning javoblarini matematik usullarda tahlil qilish.

- SWOT tahlili: Banklarning kredit siyosatining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, tashqi imkoniyatlar (masalan, xalqaro tajribalar) va tahdidlar (byurokratiya) aniqlangan.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekiston banklari tomonidan oila tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun 1,2 milliard so‘m kredit ajratilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,8 milliard so‘mga yetgan. Bu kreditlar asosan qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi oilaviy bizneslarga yo‘naltirilgan. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadbirkorlarning 65% kredit olish jarayonida murakkab byurokratik to‘siqlarga duch kelgan, 45% esa moliyaviy savodxonlikning yetishmasligini muammo sifatida keltirgan.

Asosiy muammolar quyidagilar edi:

- Axborotlashtirishning past darajasi, xususan, onlayn kredit arizalari tizimining yetarli rivojlanmagani;

- Tadbirkorlar o‘rtasida moliyaviy savodxonlikning past darajasi.

Muhokama. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Maxsus kredit dasturlari: Banklar tomonidan oila tadbirkorligiga yo‘naltirilgan past foizli va soddalashtirilgan kredit dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Masalan, Janubiy Koreyaning “Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash” dasturi O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirilishi mumkin.

2. Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Aholi o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun seminarlar va onlayn kurslar tashkil etilishi lozim.

3. Axborotlashtirishni rivojlantirish: Bank xizmatlarini raqamlashtirish, xususan, onlayn kredit arizalari va monitoring tizimlarini joriy etish.

4. Davlat-xususiy hamkorlik: Davlat va banklar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash orqali hududiy infratuzilmani yaxshilash.

Davlat dasturlari doirasida ajratilgan kredit liniyalarni 2020 — 2022-yillarda qaytarish.

mlrd so'm

T/r	Tijorat banki nomlanishi	Jami	2020-yilda qaytadigan resurs	shu jumladan:				2021-yilda qaytadigan resurs	2022-yilda qaytadigan resurs
				I chorakda	II chorakda	III chorakda	IV chorakda		
JAMI:		2 248,7*	1 019,3	249,2	258,3	259,2	252,5	748,4	481,1
1.	Milliy bank	507,8	282,9	67,3	70,6	73,4	71,7	93,7	131,2
2.	Asaka bank	217,5	95,7	21,4	25,0	24,9	24,5	89,2	32,5
3.	O'zsanoatqurilishbank	206,3	96,1	24,6	25,1	24,0	22,4	81,1	29,1
4.	Ipoteka bank	283,7	118,4	29,6	30,0	29,7	29,0	103,8	61,5
5.	Qishloq qurilish bank	372,7	147,2	36,1	37,5	36,7	36,9	143,5	82,0
6.	Aloqa bank	12,2	6,8	1,9	1,7	1,6	1,6	5,3	0,1
7.	Turon bank	18,9	9,6	2,4	2,4	2,4	2,4	8,9	0,4
8.	Hamkorbank	214,3	89,8	22,3	22,4	22,7	22,4	77,4	47,2
9.	Ipak yo'li banki	103,1	36,0	9,1	8,7	9,1	9,0	40,1	27,1
10.	Trast bank	77,0	20,4	4,5	5,5	5,5	4,9	32,1	24,5
11.	Kapitalbank	55,1	23,28	5,8	6,00	6,06	5,41	18,80	13,02
12.	Aziya alyans bank	42,7	20,6	5,4	5,4	5,3	4,6	16,5	5,5
13.	Infin bank	73,5	35,9	8,7	9,1	9,1	9,0	16,3	21,4
14.	Universal bank	19,1	8,6	2,1	2,2	2,2	2,2	7,7	2,8
15.	Oriyent Finans bank	4,2	2,2	0,6	0,6	0,6	0,5	1,5	0,5
16.	Madad Invest bank	6,1	3,8	0,9	0,9	0,9	0,9	1,8	0,6
17.	Savdogar bank	20,5	13,1	4,3	2,9	2,9	3,0	7,1	0,4
18.	Davr-bank	13,9	8,8	2,2	2,3	2,3	2,1	3,5	1,6

** Resurslarni qaytarish oyma-oy amalga oshiriladi, belgilangan parametrlardan ziyod qaytarish ruxsat etiladi.*

Xulosa. Oila tadbirkorligini rivojlantirishda banklarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi oshgan bo‘lsa-da, byurokratik to‘siqlar va axborotlashtirishning yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Taklif qilingan choralar, xususan, maxsus kredit dasturlari va moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar moliyaviy risklarni boshqarish va xalqaro tajribalarni chuqurroq o‘rganishga qaratilishi lozim.

Oila tadbirkorligini rivojlantirish dasturlari O‘zbekiston iqtisodiyotidagi kichik va o‘rta biznesning muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy barqarorlik, aholi bandligi va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada O‘zbekiston banklari tomonidan oila tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilgan moliyaviy choralar tahlil qilinib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samarasi, shuningdek, mavjud muammolar va yechim yo‘llari keng yoritildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2023–2024-yillarda banklar tomonidan oila tadbirkorligiga ajratilgan kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgan (1,2

milliard so‘mdan 3,8 milliard so‘mga yetgan). Bu kreditlar asosan qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda faoliyat yurituvchi oilaviy bizneslarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Biroq, so‘rovnoma natijalari tadbirkorlarning katta qismi (65%) kredit olish jarayonida byurokratik to‘siqlarga duch kelganini, 45% esa moliyaviy savodxonlikning yetishmasligini muhim muammo sifatida qayd etganini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, axborotlashtirishning past darajasi va qishloq hududlarida bank xizmatlariga kirishning cheklanganligi kabi infratuzilmaviy muammolar ushbu sohada sezilarli to‘siqlar sifatida aniqlandi.

Maqolada taklif qilingan yechimlar, xususan, past foizli va soddalashtirilgan kredit dasturlari, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlari, bank xizmatlarini raqamlashtirish va davlat-xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash oila tadbirkorligini rivojlantirishda muhim qadamlar sifatida ko‘riladi. Xalqaro tajribalar, masalan, Janubiy Koreya va Germaniyaning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash modellari, O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirilganda yuqori samaradorlik ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidlandi. Shu bilan birga, Joseph Schumpeterning “ijodkor yo‘qotish” nazariyasi, Hernando de Soto‘ning mulkiy huquqlar tizimi va Peter Druckerning tadbirkorlikning ijtimoiy roli haqidagi qarashlari ushbu dasturlarning nazariy asoslarini mustahkamlashda muhim hissa qo‘shadi.

Kelajakda ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlar moliyaviy risklarni boshqarish strategiyalariga, xalqaro tajribalarni chuqurroq o‘rganishga va raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etishga e’tibor qaratishi lozim. Shuningdek, gender tengligi va qishloq hududlarida ayollarning tadbirkorlikdagi ishtirokini oshirish kabi ijtimoiy jihatlar ham muhim yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Ushbu choralar O‘zbekiston iqtisodiyotida oila tadbirkorligining barqaror rivojlanishini ta’minlash, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy diversifikatsiyani rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Smith, J. (2020). Financial Support for Family Businesses: Global Perspectives. Journal of Economic Development, 45(3), 123–135.

2. Johnson, R., & Lee, S. (2022). Banking Strategies for Small Business Growth. International Business Review, 28(4), 56–67.

3. Aliyev, A. (2021). O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish dasturlari. Iqtisodiyot va moliya, 15(2), 34–42.

4. Qosimov, B. (2023). Oila tadbirkorligining iqtisodiy ahamiyati. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 10(1), 22–29.

5. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Cambridge.

6. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York, NY: Harper & Row

7. De Soto, H. (2000). The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. New York, NY: Basic Books

HUDUDIY INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

A.B.Bektemirov, **A.X.Ergasheva**

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti i.f.d., professor
Email:
abdumalikbektemirov.57@gmail.com
Tel: *+99890 250 57 64*

Ergasheva Aziza Xasan qizi
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti magistri
Email: *azizaergasheva@gmail.com*

Received: 15 May 2025
Revised: 22 May 2025
Accepted: 14 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy tadqiqotda hududiy investitsiya jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, globallashuv va iqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida investitsiya muhitini mintaqalar kesimida optimallashtirish dolzarb strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Tadqiqot davomida investitsiyalarning hududiy taqsimoti, investitsion salohiyat va muhitga ta’sir etuvchi omillar tizimli, solishtirma va indeksli baholash usullari asosida tahlil qilindi. Xususan, iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy va mehnat resurslari bilan bog‘liq omillar o‘rganilib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar*: hududiy investitsiya jozibadorligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, investitsion salohiyat, mintaqaviy raqobatbardoshlik, investitsiya muhiti, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, soliq imtiyozlari, moliyaviy barqarorlik, risklar, indeksli baholash.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: *В данном научном исследовании рассматривается вопрос совершенствования организационно-экономических механизмов повышения региональной инвестиционной привлекательности с теоретической и практической точек зрения. В условиях перехода к рыночной экономике, глобализации и усиления экономической конкуренции оптимизация инвестиционного климата в регионах рассматривается как актуальная стратегическая задача. В ходе исследования на основе системного, сравнительного и индексного методов оценки были проанализированы факторы, влияющие на территориальное распределение инвестиций, инвестиционный потенциал и внешнюю среду. В частности, были изучены факторы, связанные с экономическими, институциональными, инфраструктурными и трудовыми ресурсами, и разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по их совершенствованию.*

Ключевые слова: *инвестиционная привлекательность региона, организационно-экономические механизмы, инвестиционный потенциал, конкурентоспособность региона, инвестиционный климат, государственно-частное партнерство, инфраструктура, налоговые льготы, финансовая устойчивость, риски, индексная оценка.*

IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING REGIONAL INVESTMENT ATTRACTIVENESS

Abstract: *This scientific study studies the issue of improving organizational and economic mechanisms of increasing regional investment attractiveness from a theoretical and practical perspective. In the context of the transition to a market economy, globalization and increased economic competition, optimizing the investment climate across regions is considered an urgent strategic task. During the study, the factors affecting the territorial distribution of investments, investment potential and the environment were analyzed based on systematic, comparative and index assessment methods. In particular, factors related to economic, institutional, infrastructural and labor resources were studied, and scientifically based proposals and recommendations were developed for their improvement.*

Keywords: *regional investment attractiveness, organizational and economic mechanisms, investment potential, regional competitiveness, investment environment, public-private partnership, infrastructure, tax incentives, financial stability, risks, index assessment.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatning kuchayishi, davlatlar va ularning hududlari uchun investitsiyalarni jalb etish masalasini strategik muammoga aylantirdi. Ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun investitsion faoliyatni hududlar kesimida muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish” tamoyili asosida har bir viloyat, tuman va shahar o‘z iqtisodiy imkoniyatlari, infratuzilma salohiyati va resurslaridan kelib chiqib, investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xorijiy hamda mahalliy sarmoyalarni jalb etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, hududiy investitsiya jozibadorligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va siyosiy rivojlanish uchun ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Hududiy investitsiya jozibadorligi deganda, ma’lum bir mintaqaning investorlar uchun qulay bo‘lgan iqtisodiy, institutsional, infratuzilmaviy va ijtimoiy shart-sharoitlarga ega bo‘lish darajasi tushuniladi. Bu jozibadorlik darajasi investitsiya salohiyati, davlat tomonidan yaratilgan rag‘batlantiruvchi mexanizmlar, soliq yengilliklari, logistika infratuzilmasi, ishchi kuchi sifati va xavfsizlik muhitiga bevosita bog‘liqdir.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda investitsiyalarga oid siyosat tubdan isloh qilinib, investorlar uchun “bir darcha” tamoyili, erkin iqtisodiy zonalar, soliq va bojxona imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi. Biroq, mavjud salohiyat va imkoniyatlarga qaramay, ayrim hududlarda investitsiyalar hajmi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasida iqtisodiy tengsizlik, bandlik darajasidagi farqlar va infratuzilmadagi nomutanosibliklar bilan izohlanadi.

Demak, zamonaviy bosqichda investitsiya faoliyatining hududiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladigan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish ilmiy-amaliy dolzarb masalalardan biridir. Bunda hududlarning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, transport-logistika infratuzilmasi, ishchi kuchining sifati, hududiy boshqaruv tizimining investitsiyaviy faoliyatga ta’siri va normativ-huquqiy asoslarning yetarli darajada rivojlanganligi o‘z aksini topadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Hududiy investitsiya jozibadorligi masalasi global miqyosda iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada ko‘plab nazariy qarashlar, amaliy tajribalar hamda statistik tahlillarga asoslangan tadqiqotlar mavjud.

Investitsiya jozibadorligi nazariy jihatdan iqtisodiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot va investitsiya nazariyasi doirasida shakllangan. M.Porter o‘zining “Milliy raqobatbardoshlik nazariyasi”da hududiy raqobatbardoshlikni aniqlovchi asosiy omillar sifatida ishlab chiqarish omillari sifati, talab sharoitlari, o‘zaro bog‘langan tarmoqlarning rivojlanganligi

hamda raqobatchilarning mavjudligini belgilaydi. Bu model investitsiya jozibadorligini oshirishda ishlab chiqarish salohiyatini va innovatsion faollikni rag‘batlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

J.Bluestone va B.Harrison kabi olimlar esa kapital harakatining erkinligi va ishlab chiqarish resurslarining harakatchanligi investitsiyalarni joylashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, R.Barro va X.Zodrow soliqqa tortish siyosati, davlat tartibga solish choralari va korxonalarga beriladigan imtiyozlarning investitsion qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Jahon miqyosida investitsiya jozibadorligini baholash bo‘yicha bir qancha xalqaro reyting agentliklari faoliyat yuritmoqda. Jumladan:

UNCTAD tomonidan har yili chop etiladigan World Investment Report xalqaro sarmoya oqimlari va ularning geografik taqsimoti bo‘yicha chuqur tahlillarni o‘z ichiga oladi. Bu hisobotlarda sarmoya oqimlariga ta’sir qiluvchi global siyosiy-iqtisodiy omillar yoritiladi.

WEF (Jahon Iqtisodiy Forumi) tomonidan e’lon qilinadigan Global Competitiveness Index mamlakatlar raqobatbardoshligini, shu jumladan investitsion salohiyatini baholovchi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi.

OECD Investment Policy Reviews esa rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiya siyosatini baholash, sarmoyaviy muhitni yaxshilashga doir takliflar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Ushbu manbalarda keltirilgan yondashuvlar va ko‘rsatkichlar tizimi O‘zbekistonda hududiy investitsion jozibadorlikni baholashda mezon sifatida foydalanish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiya jarayonida bo‘lib, investitsiyalarning jalb etilishi va hududlararo tafovutlarni kamaytirish dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli, respublikada bir qator olimlar va amaliyotchilar tomonidan mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda.

O.Xoshimov hududiy investitsion salohiyatni baholashda ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport-logistika tizimi va inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi.

M.Jo‘rayev investitsiya muhitini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik, soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy zonalarning tutgan o‘rnini chuqur o‘rgangan.

R.Qurbonov esa mahalliy hokimiyatlar tomonidan investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tashkiliy mexanizmlarni tahlil qilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, hamda Statistika agentligi tomonidan e’lon qilinayotgan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tahlillarda amaliy ma’lumotlar asosida investitsion muhitning o‘zgarish dinamikasi yoritilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda hududiy investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash, ularning samaradorligini baholash va takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Bu jarayonda tadqiqot predmeti bo‘lgan investitsiya muhitiga ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’sir ko‘rsatishi inobatga olinib, quyidagi metodologik yondashuvlardan tizimli yondashuv va

kompleks tahlil, solishtirma (komparativ) tahlil, indeksli baholash usuli, ekspert baholash va so‘rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Mintaqaviy iqtisodiy tizimda investitsiya jarayonlarini aniqlash, o‘zaro bog‘lash va baholashga yondashuvlar mexanizmi turli xildir, ammo biz bozor iqtisodiyoti sharoitida uchta asosiy bozor o‘zaro ta’sir qilishini aniqlab o‘rgandik: tovar va xizmatlar bozori; mehnat bozori; moliya bozori. Aynan moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar vaqtincha bo‘sh mablag‘larni kreditlash va investitsiyalar uchun safarbar qilish bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Barcha investitsiya tarkibiy qismlari investitsiya jarayonlarining samaradorligi va iqtisodiy o‘sish sur'atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan mablag‘lar tarkibini tashkil qiladi. Moliyaviy kapitalni, kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish manbaiga aylantirish mexanizmi va investitsiya resurslarining, birinchi navbatda, moliyaviy resurslarning etarli darajasini shakllantirish alohida muammodir. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari har doim ikki toifada taqdim etiladi: kompaniya kapitali tarkibining ajralmas qismi va ayni paytda moliyaviy vosita sifatida. Shunday qilib, kapital bozorining asosiy funktsiyalaridan biri investitsiya talabiga ega bo‘lgan hududlar uchun yetarli miqdorda moliyaviy resurslarni yaratish qobiliyatidir. Moliyaviy vositalar va investitsiya manbalarining integratsiyalashuv darajasini o‘zgartirishga kapital bozorlarini tartibga solish orqali erishiladi. Shunday qilib, iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Davlatning roli, so‘nggi yillar tendentsiyasiga ko‘ra, iqtisodiyotda Investitsiya resurslarini tashkil etishning bozor tamoyiliga asoslanadi. Bu davlat iqtisodiyotning investitsiya ehtiyojlarini moliyalashtirishda bevosita ishtirok etishni to‘xtatadi (ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar bundan mustasno). Uning bozordagi asosiy vazifasi zamonaviy infratuzilmani yaratish va eng muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni maqsadli tartibga solish orqali kapital bozorlari faoliyati uchun maqbul sharoitlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Hududning investitsion jozibadorligini oshirishni boshqarish muammolarini hal qilish jarayonida tashqi muhitning investitsiya muhitini shakllantirishga ta’sirining ikkita asosiy parametrini hisobga olish kerak: bezovta qiluvchi va nazorat qiluvchi ta’sir. Bezovta qiluvchi ta’sirlar mamlakatda va mintaqada investitsiya muhitining shakllanishiga ta’sir qiladi, bu investitsiya risklari va mintaqaning investitsiya salohiyatiga nazorat ta’sirini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak, chunki ularni boshqarish jarayonida o‘zgartirish mumkin emas. Nazorat qiluvchi ta’sirlar - strategik muammolarni hal qilish uchun hududning investitsion jozibadorligini oshirish tizimini boshqarishda ko‘rsatkichlari boshqarilishi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchilar.

Tashkilotning investitsion jozibadorligini baholash jarayoni uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday baholashning asosiy maqsadi investitsiya kiritilgan mablag‘lar va boshqa moliyaviy resurslarning rejalashtirilgan rentabelligini, shuningdek ularning qoplash muddatlarini aniqlashdan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga, investitsiya

faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan eng muhim moliyaviy xatarlar va ularning oqibatlarini baholash ham ushbu jarayonning muhim vazifasidir.

Korxonaning moliyaviy faoliyatini to‘liq va kompleks baholash uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligi hamda bu faoliyatning biznesning uzoq muddatli strategik maqsadlariga, shu jumladan investitsiya yo‘nalishidagi maqsadlarga qanchalik mos kelishini aniqlovchi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

1-rasm. Tashkilotning strategik va taktik rivojlanish maqsadlarining yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligini asoslaydigan asosiy yo‘nalishlar

Bundan tashqari, investitsiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan tashkilot faoliyati davomida aylantirilgan investitsiya qilingan mablag‘larni qaytarish tezligi bilan belgilanadi. Ma’lumki, foydalanilayotgan aylanma mablag‘larning aylanish muddatiga juda ko‘p tashqi omillar ta’sir qiladi; aktivlarning aylanish darajasi asosan tashkilot faoliyatining ichki qonunlari, ya’ni tashkilotning ishlab chiqarish, marketing va moliyaviy strategiyasi va taktikasi samaradorligi bilan belgilanadi.

Investitsiyalarning eng muhim maqsadi investitsiya qilingan mablag‘lardan maksimal foyda olishdir. Ishlab chiqarishga qo‘yilgan kapitalga nisbatan foydani shakllantirishning potentsial imkoniyatlarini aniqlash uchun quyidagi bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

1. Foydalanilayotgan barcha aktivlarning rentabelligi. U sof foyda summasining (soliqlar chegirib tashlanganidan keyin) foydalanilgan aylanma mablag‘larning o‘rtacha summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

2. Aylanma aktivlarning rentabelligi. U sof foyda yig‘indisining barcha aylanma mablag‘larning o‘rtacha summasiga nisbati sifatida ifodalanadi.

3. Asosiy fondlarning rentabelligi. Bu sof foyda yig‘indisining asosiy fondlarning o‘rtacha qiymatiga nisbati.

4. Mahsulot sotish rentabelligi sof foyda summasining sotilgan mahsulotning umumiy hajmiga nisbatidir.

5. Rentabellik ko‘rsatkichi. U yalpi (balans) foyda summasining (soliqlar va

kredit bo‘yicha foizlar bundan mustasno) foydalanilgan aktivlarning o‘rtacha summasi bilan nomoddiy aktivlar yig‘indisi o‘rtasidagi farqga nisbati sifatida aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich turli darajadagi foyda solig‘i bilan investitsiya ob'ektlarini solishtirish uchun zarurdir.

6. O‘z kapitalining rentabelligi sof foyda yig‘indisining o‘z kapitali summasiga nisbati. Xususiy kapitalning rentabelligi ko‘rsatkichi korxonaning umumiy aylanma mablag‘larining bir qismi sifatida o‘z kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilaydi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish korxonaning investitsiya resurslarini shakllantirish tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va tashkilotning joriy ishlab chiqarish faoliyatini moliyalashtirishning maqbul manbalarini izlashga imkon beradigan investitsiya xavfini malakali baholash uchun zarurdir.



2-rasm. Tanlov jarayonida investitsiya takliflarini baholash va saralash uchun qo‘llaniladigan mezonlar guruhi

Yuqoridagi mezonlardan ayrimlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur bo‘lgan ustuvor investitsiya sohalarini belgilashga xizmat qiladi, boshqalari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lum bir investitsiya loyihasini baholashga qaratilgan bo‘ladi.

Har bir mezonlar guruhi o‘z navbatida **majburiy** va **baholovchi** mezonlarga bo‘linadi. Majburiy mezonlarga javob bermaslik holati investitsiya taklifi rekonstruksiya dasturida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘lishga olib keladi. Investitsion taklifni batafsil o‘rganish jarayonida esa har bir guruh bo‘yicha mezonlar nafaqat loyiha taklifining umumiy jihatlari bo‘yicha, balki uning alohida ishtirokchilari nuqtai nazaridan ham baholab chiqiladi.

Maqsadli mezonlarning mazmuni O‘zbekiston bo‘yicha, yoki aniq bir mintaqa hamda investitsiya dasturi amalga oshiriladigan sanoat tarmog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi. Ba’zi maqsadli mezonlar boshqa guruh mezonlari bilan ham uyg‘unlashib ketishi mumkin. Buning sababi, ushbu turdagi mezonlar asosan ustuvor investitsiya yo‘nalishlarini tanlash bosqichida qo‘llaniladi. Bunda asosiy e’tibor investitsiya taklifining investitsiya dasturining umumiy maqsad va vazifalariga qanchalik mos kelishiga qaratiladi. Agar investitsiya taklifi ushbu mezonlarga to‘liq javob bermasa,

iqtisodiy va moliyaviy samaradorlikning yuqori ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lgan taqdirda ham ekspert komissiyasi uni ko‘rib chiqishdan voz kechishi mumkin.

Tashqi va ekologik mezonlar tarkibiga quyidagilar kiradi: investitsiya taklifining huquqiy jihatdan ta’minlanganligi va uning amaldagi qonunchilik me’yorlariga mosligi; istiqboldagi qonunchilikdagi o‘zgarishlarning loyiha natijalariga bo‘lishi mumkin bo‘lgan ta’siri; rekonstruksiya loyihasini amalga oshirish natijasida hudud yoki sanoat ko‘rsatkichlarida yuzaga keladigan ehtimoliy o‘zgarishlar; zararli mahsulotlar va zararli ishlab chiqarish jarayonlari mavjudligiga loyihaning ta’siri; hudud yoki sanoatda bandlik darajasiga bo‘ladigan ta’sir.

Investitsiya taklifini taqdim etuvchi (oluvchi) subyekt mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: investorning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni; tadbirkorlarning boshqaruv salohiyati va tajribasi; rahbar xodimlarning malakasi, sifati va aloqalari; uchinchi tomon menejerlarining kasbiy xususiyatlari; marketing strategiyasi va tajribasi, tashqi bozordagi bitimlar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; moliyaviy barqarorlik va to‘lov qobiliyati bo‘yicha axborot; erishilgan ish samaradorligi va uning rivojlanish tendensiyalari; o‘sish salohiyati bo‘yicha tahlil; diversifikatsiya ko‘rsatkichlari.

Ilmiy-texnik mezonlar esa loyiha doirasida qo‘llaniladigan ilmiy-texnik yechimlarning istiqbolini baholashga qaratiladi. Bunda mahsulotlarning patent tozaligi va texnik echimlarning patentga layoqatliligi, olingan natijalarni kelajakdagi ilmiy ishlanmalarda qo‘llash imkoniyatlari, shuningdek milliy manfaatlarga ega bo‘lgan boshqa loyihalarga ko‘rsatiladigan ijobiy ta’sir baholanadi.

Tijorat samaradorligi mezonlari investitsiya loyihasining moliyaviy ko‘rsatkichlari va iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi: investitsiya hajmi va loyiha bo‘yicha boshlang‘ich xarajatlar; potentsial yillik foyda hajmi; kutilayotgan sof joriy qiymat (NPV) darajasi; ichki daromadlilik darajasi (IRR); loyihaning kapital qo‘yilmalari iqtisodiy samaradorligi mezonlariga mosligi; investitsiya o‘zini qoplash muddati va real pul oqimlarining qoldig‘i; loyihadan olinadigan daromad barqarorligi; soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatlari.

Ishlab chiqarish mezonlari esa loyiha amalga oshirilishida zarur ishlab chiqarish resurslari va texnik sharoitlarni baholashga qaratiladi. Ular xomashyo, materiallar va zarur qo‘shimcha uskunalar mavjudligini, texnologik innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni, ishlab chiqarish xodimlarining soni va malakasini, ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish imkoniyatini, shuningdek qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlariga bo‘lgan talabni qamrab oladi.

Bozor mezonlari tarkibiga quyidagilar kiradi: investitsiya loyihasining bozor talablari va mezonlariga mosligi; taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmat bo‘yicha bozor sig‘imini baholash; rekonstruksiya loyihasining tijorat muvaffaqiyatini ta’minlash ehtimolini aniqlash.

Investitsiya loyihasini amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan bog‘liq mezonlar guruhi quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: bandlik darajasini oshirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish; aholining daromadlarini ko‘paytirish; ishchi-

xodimlar uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash; yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish; hududdagi ekologik vaziyatni yaxshilash.

Risklar bilan bog‘liq mezonlar guruhi esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi: rekonstruksiya jarayonidagi murakkabliklar natijasida qurilish xarajatlarining oshib ketish ehtimoli; texnologik jihozlar yetkazib berishdagi uzilishlar va subpudratchilarning barqaror faoliyat yuritmasligi oqibatida rekonstruksiya ishlarining jadvalidagi kechikishlar; jadvallardagi o‘zgarishlar sababli ishlab chiqarishning qisman to‘xtatilishi natijasida umumiy yo‘qotishlarning ko‘payishi; loyihaning texnik, texnologik va tashkiliy qarorlari, shuningdek ishlab chiqarish hajmi, mahsulot va resurslar narxining kutilmagan o‘zgarishlari tufayli loyihadan kutilgan daromadning amalga oshmaslik xavfi; siyosiy xatarlar; moliyaviy tavakkalchiliklar va boshqa turdagi xatarlar.

Barcha ko‘rsatilgan mezon va ko‘rsatkichlar investitsiya loyihasining hududdagi mavjud korxonalar, tarmoqlar va umuman mahalliy iqtisodiyotga bo‘ladigan ta’siri inobatga olingan holda baholanadi.

Investitsion faoliyatni baholash investitsiya dasturining mavjudligi, investitsiyalarning umumiy hajmi va qarorlar qabul qilish usullariga yondashuvlar, shuningdek, tashkilotlarning investitsiya loyihalarini boshqarish samaradorligi bilan baholanadi. Innovatsion faoliyat tashkilotning umumiy rivojlanish strategiyasida innovatsion siyosatning ahamiyati, tashkilot ichida innovatsiyalarni rag‘batlantirish tizimiga bo‘lgan ehtiyoj, innovatsion faoliyat, tashkilotning ilmiy-texnik salohiyati va olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan asoslanadi.

Tashkilotning investitsion jozibadorligini baholashning navbatdagi omili bozor barqarorligi bo‘lib, u tashkilotning samarali marketing faoliyati va bozorning mahsulot-hududiy xilma-xilligi, tashkilot turi va xajmi asosida tavsiflanadi. Barkamol va samarali olib borilgan marketing siyosati yangi bozorlarning keng doirasiga kirish, allaqachon zabt etilgan bozorlarda o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash va kengaytirish uchun maksimal imkoniyatni beradi va bu, albatta, bozor barqarorligining eng muhim omillaridan biridir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy omillar bilan bir qatorda huquqiy omillar ham ajratiladi. Ularda, birinchi navbatda, asosiy ko‘rsatkich sifatida muayyan xo‘jalik yurituvchi subyektning tashkiliy-huquqiy shakli va korxona mulkdorlari, ikkinchidan, taklif etilayotgan investitsiya obyektining xususiylashtirish tarixi va ushbu investitsiya obyekti bilan bog‘liq ta’minlangan mulk va yerga bo‘lgan huquqlar hisoblanadi. Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, tashkilotning investitsion jozibadorligi unga bilvosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab omillarning umumiy to‘plami bilan belgilanadi, ular keyinchalik investitsiya jozibadorligini modellashtirish va baholash uchun vakolatli algoritmni shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, mintaqaviy mustaqillikni mustahkamlash sharoitida mintaqaning investitsion jozibadorligini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish uning tashqi muhitning bezovta qiluvchi va nazorat qiluvchi ta’sirini hisobga olgan holda strategik yo‘nalishini ta’minlaydi;

potentsial investorlarni jalb qilish uchun boshqaruv faoliyatini faollashtirish; mintaqaviy tabaqalanishni aks ettiruvchi investitsiya muhitini rivojlantirish uchun tanlangan va umumiy vositalar majmuasidan foydalanish; mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha mahalliy va hududiy davlat organlari faoliyatini doimiy nazorat, monitoring qilish va baholashni amalga oshirish.

Xulosa.

Hududiy investitsiya jozibadorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri bo‘lib, bu jarayon mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, bandlikni ta’minlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va innovatsion faollikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, investitsiya jozibadorligini belgilovchi omillar ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, ularning har biri alohida yondashuv va mexanizmlarni talab qiladi.

Tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Hududiy investitsiya jozibadorligi darajasi iqtisodiy salohiyat, infratuzilmaning rivojlanganligi, davlat tomonidan yaratilgan institutsional shart-sharoitlar, mehnat resurslarining sifati, logistika imkoniyatlari, soliq va bojxona imtiyozlari kabi omillarning uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi.

2. Investitsiya muhiti samaradorligini oshirishda “bir darcha” tamoyili, davlat-xususiy sheriklik asosidagi mexanizmlar, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus industrial hududlar muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq ularning amaliyotda qo‘llanilishi hududlar kesimida bir xil emasligi kuzatilmoqda.

3. Hududlar o‘rtasida investitsiya hajmi va jozibadorlik darajasidagi tafovutlar resurslar, boshqaruv salohiyati va institutsional muhitdagi nomutanosibliklar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiruvchi omilga aylanmoqda.

4. Investitsiya jozibadorligini baholashda indeksli yondashuvdan foydalanish orqali har bir hududning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, ularga nisbatan maqsadli siyosat yuritish imkoniyati yaratiladi. Bu esa resurslar va e’tiborni oqilona taqsimlashga zamin yaratadi.

5. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi: mahalliy boshqaruv organlari salohiyatini oshirish, investitsiya risklarini boshqarish bo‘yicha kafolat tizimlarini joriy etish, investorlar uchun axborot-resurs markazlarini tashkil etish, shuningdek, mintaqaviy investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va monitoring qilish tizimini kuchaytirish.

6. Hududiy boshqaruv tizimi, soliq siyosati va yerga egalik huquqlarining aniqligi investorlar uchun ishonchli muhit yaratishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu borada huquqiy mexanizmlarni soddalashtirish va sarmoyadorlar manfaatlarini kafolatlovchi vositalarni kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Porter M. Milliy raqobatbardoshlik nazariyasi. – Nyu-York: Free Press, 1990.

2. Bluestone B., Harrison B. The Deindustrialization of America. – New York: Basic Books, 1982.

3. Barro R.J., Zodrow G.R. Taxation and Investment Decisions. – American Economic Review, 1989, №2.

4. UNCTAD. World Investment Report 2023: International Investment Trends. – Geneva: United Nations, 2023.

5. World Economic Forum. Global Competitiveness Report 2023. – Geneva: WEF, 2023.

6. OECD. Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2022. – Paris: OECD Publishing, 2022.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrdagi PQ–4551-son qarori “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari. – T.: 2021–2023 yillar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Hududlar bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar. – T.: 2020–2024.

10. Xoshimov O. Hududiy investitsion salohiyatni baholashda zamonaviy yondashuvlar. – “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali, 2022, №3.

11. Jo‘rayev M. Soliq siyosati va davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya muhitini rivojlantirish. – “O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnali, 2021, №2.

12. Qurbonov R. Hududlarda investitsion faoliyatni tashkil etish mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.

13. Abdurahmonov K., Safarov B. Investitsiyalar va innovatsion faoliyat. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021.

14. Tohirov N., Mamatov A. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya faoliyatining o‘rni. – “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2023, №1.

15. Abdullayev A. Investitsiya jozibadorligini oshirishda moliyaviy resurslar va risklarni boshqarish mexanizmlari. – “Innovatsion iqtisodiyot” jurnali, 2023, №4.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Hududiy investitsiya muhitini reyting baholash tizimi. – T.: 2022.

DESTINATION MANAGEMENT AND BRANDING: CREATING COMPETITIVE ADVANTAGE IN GLOBAL TOURISM

D.A.Nasimov, Sh.Sirojiddinova

Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand, Uzbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Nasimov Dilmurod Abdullayeich
Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage
Email:
dilmurodnasimov@gmail.com
Tel: *+998 91 554 24 40*

Sirojiddinova Shahrizoda
Samarqand iqtisodiyot va serves instituti magistri
Email: *sirojiddinova2212@gmail.com*
Tel: *+998 99 116 81 22*

Received: 18 May 2025
Revised: 24 May 2025
Accepted: 14 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotation: *This study investigates the essential linkage of destination management and branding strategies for sustainable competitive advantage in the global tourism sector. Through a thorough examination of contemporary tourism markets this study focuses on how destination management organisations (DMOs) can take advantage of destination branding processes to provide differentiation, enhance the visitor experience and perpetuate a long-lasting market position. The findings show that destination alliances successfully using destination branding use an integrated approach combining authenticity, digital innovation, and sustainability.*

Keywords: *destination management, tourism branding, competitive advantage, DMO, sustainable tourism*

TURIZM MAQSADLARINI BOSHQARISH VA BRENDING: GLOBAL TURIZMDA RAQOBAT USTUNLIKLARINI YARATISH

Annatatsiya: Ushbu maqola global turistik bozorda barqaror raqobatbardosh ustunlikka erishish uchun destinatsiyalarni boshqarish va brendlash strategiyalarining o'zaro bog'liqliginining ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Zamonaviy turistik bozorlarni o'rganishga asoslanib, ushbu tadqiqot sayyohlik destinatsiyalarini boshqarish tashkilotlari differentsiatsiyani ta'minlash, tashrif buyuruvchilar qoniqishini yaxshilash va uzoq muddatli bozor mavqeilarini mustahkamlash uchun sayyohlik yo'nalishlarini brendlash jarayonlaridan qanday foydalanishlari mumkinligiga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sayyohlik yo'nalishlarini brendlashdan muvaffaqiyatli foydalanadigan sayyohlik hamkorlar haqiqiylik, hamkorlik, raqamli innovatsiyalar va barqarorlikni birlashtirgan yaxlit yondashuvdan foydalanadi.

Kalit so'zlar: *destinatsiyani boshqarish, turizm brendingi, raqobatbardosh ustunlik, DMO, barqaror turizm*

УПРАВЛЕНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИМИ ДЕСТИНАЦИЯМИ И БРЕНДИНГ: СОЗДАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ В МИРОВОМ ТУРИЗМЕ

Аннотация: *В данной статье исследуется существенная взаимосвязь стратегий управления дестинациями и брендинга для получения устойчивого конкурентного преимущества в мировом туристическом рынке. На основе тщательного изучения современных туристических рынков это исследование фокусируется на том, как организации по управлению туристическими направлениями могут использовать преимущества процессов брендинга туристических направлений для обеспечения дифференциации, улучшения впечатлений посетителей и закрепления долгосрочных позиций на рынке. Результаты исследования показывают, что туристические альянсы, успешно использующие брендинг туристических направлений, используют комплексный подход, рассказывание историй, сотрудничество, цифровые инновации и устойчивость.*

Ключевые слова: *управление дестинациями, туристический брендинг, конкурентное преимущество, DMO, устойчивый туризм.*

Introduction

The global tourism sector has experienced an extraordinary transformation in the past several decades, changing from a luxury item to a vital economic engine impacting millions of global destinations (Buhalis & Amaranggana, 2023). Global international tourist arrivals are projected to reach 1.8 billion by 2030 which places pressure on destinations to compete for visitors' attention, loyalty, and spending (World Tourism Organization, 2024). This increasingly competitive environment has propelled destination management and destination branding from marginal marketing activities to primary strategic imperatives for destinations looking to remain viable and successful into the future (Morgan et al., 2023).

Destination branding is a complex phenomena that evolves beyond product marketing, and involves the development of unique identities that resonate with multiple stakeholder audiences while staying true to recognized place attributes (Kavaratzis & Hatch, 2023). Unlike the brands of organizations in which these brands are entirely owned by the organizations, destination brands are independent meanings that emerge from the convergence of limited planned marketing, organic community stories, and visitor activities, forming multifaceted constructs of identity that require advanced management (Zenker & Braun,2022). The nature of multi-stakeholders results in several challenges for destination branding as the message must be coordinated with multiple service providers, audiences, and members of the community (Gartner & Konecnik Ruzzier, 2023).

The COVID-19 pandemic drastically changed tourism and accelerated digital transformation while increasing the importance of sustainability, authenticity, and the impact on local communities (Chen & Liu, 2024). At the same time, this created greater pressure on strategic destination management, as recovery plans would need to lead to improvements in evolving consumer preferences, environmental impact, and community resilience (Sigala, 2023). In this complex environment, destinations that successfully maneuver through these challenges display best practices in branding that create meaningful differentiation and sustainable competitive advantages.

This study addresses the critical gap in understanding how destination management organizations can identify and implement branding strategies in developing effective competitive positioning within increasingly crowded global markets (Hosseini et al., 2023). It examines the relationship between destination management practice and branding effectiveness and identifies best success factors which help destinations create unique and distinguishable market positions while ensuring authenticity and sustainability (Fernandes & Fernandes, 2022).

Methods

This research used a mixed-methods approach that incorporated quantitative analysis of destination performance measures and qualitative analysis of destination branding strategies used by 45 international destinations. The method was created to incorporate both elements of measurable outcomes and strategic processes, which lead to successful destination branding.

Data Collection

The primary data collection method utilized semi-structured interviews. We interviewed 78 destination management professionals, including DMO executives, the director of marketing and brand managers from destinations across six continents. We used purposive sampling to select interview participants so that a diverse representation of destination types was preserved (e.g., urban, coastal, cultural, adventure), stalk development level (e.g., emerging, developing and mature), and geographical representation (e.g., continents).

The interview protocol included questions related to developing branding strategy, challenges with implementation, stakeholder engagement, and performance measurement.

The secondary data analysis included tourism statistics, brand perception surveys, and digital engagement metrics from 2019-2024. This process provided longitudinal perspectives on the performance over time pre-, during and post-pandemic. The sources of data included national tourism boards and international tourism organizations, social media analytics resource and repositories, and academic databases.

Analytical Framework

The study took the overall study breadth, provided by the Destination Brand Equity Model, as an overall framework for analysis (Pike & Bianchi, 2022), and focused on four dimensions of branded equity--brand awareness, brand image, brand quality, and brand loyalty--and incorporated new topics, such as digital presence, sustainability, and community authenticity, as they relate to recent conceptualizations of marketing destination brand equity (Dedeoğlu et al., 2023).

Quantitative analysis utilized multiple regression methods to examine relationships between branding activities and tourism/Hospitality outcomes, while qualitative data was analyzed thematically utilizing NVivo software (Braun & Clarke, 2023) to identify trends in successful branding practices. Cross-case analysis was conducted to identify best practices and similar issues that arose throughout the branding case studies.

Results

The analysis identified significant variations in branding strategies and branding outcomes with a clear differentiation between high-performing destinations and others that were unsuccessful in establishing a competitive brand position. The main takeaways suggest systematised destination branding efforts are necessary in order to align stakeholder relationships, internal capabilities, and external market contexts.

Brand Strategy Development

Seventy-three percent of high-performing destinations engaged in extensive brand strategy processes that began with authentic asset identification rather than reliance on external market research alone (Ghosh, 2023). These destinations allocated an average of 18 months to their brand development process, while lower-performing destinations took an average of 6 months. Successful destinations also consistently engaged communities, businesses and culture-bearers in co-creating methodologies during their brand development process.

The high-performing destinations created brand identities that were aspirational yet authentic, weaving messages that were authentic to the local character while connecting with future visitors in ways that resonated with them.

Singapore's "Passion Made Possible" campaign executes this well, where lofty ambitions are articulated, yet the cultural attributes of the destination are experienced by visitors throughout their journey (Kladou & Kehagias, 2023).

Digital Integration and Innovation

Digital capability emerged as a critical differentiator, with leading destinations demonstrating sophisticated multi-platform approaches that created cohesive brand experiences across touchpoints (Huertas & Oliveira, 2023). High-performing destinations allocated on average 42% of marketing budgets to digital channels, compared to 23% among lower performers. These destinations also showed greater integration between online brand presentation and physical visitor experiences.

Social media engagement metrics revealed that authentic, community-generated content outperformed professionally produced materials by 67% in terms of engagement rates and 45% in conversion to bookings. Destinations that successfully encouraged and amplified local storytelling achieved stronger emotional connections with potential visitors (Liu & Cheung, 2024).

Stakeholder Collaboration

Successful destination branding required new levels of coordination among stakeholders; leading destination brand partnerships existed as a result of formal collaboration schemes between tourism businesses and not-for-profit organizations or destination marketing organizations (DMOs). Eighty-six percent of high-performing destination brands had organized stakeholder engagement programs to create brand consistency at every visitor touchpoint.

The research also revealed that destination brands with high internal alignment were rated 23% better on visitor satisfaction scores and had a 31% higher likelihood of positive recommendations made by visitors to friends and family. In simple terms, internal brand strength is a measurable indication of external brand positioning in the marketplace.

Analysis

The results demonstrate that the success of destination branding is contingent upon the various strategic components incorporated into the destination branding initiatives, such that these concepts work together in concert to provide competitive advantages. The analysis and insights reveal five critical success factors that differentiates leading destinations from other competing destinations.

Authentic Narrative Development

Successful destinations exhibit a remarkable capacity for identifying and articulating authentic narratives that distinguish their offerings and retain authenticity (Hultman et al., 2023). These narratives go beyond the realm of promotional advertisements to include genuine place-based stories that are embraced by residents and experienced by visitors. The crucial aspect of this process is identifying the overlap between what makes a destination distinctive and what is valued by target audiences.

New Zealand's "100% Pure New Zealand" campaign is an example that illustrates this principle, building on genuine environmental attributes that visitors experience when they arrive at the destination until they depart. This campaign has been both successful and enduring, ultimately due to the authenticity that is generated and authentic experience, rather than

marketing-generated positioning (Morrison & Coca-Stefaniak, 2023).

Integrated Experience Design

Leading destinations understand that the market promises must be realized through coordinated experience delivery, every time, at all visitor touch-points. Realizing the potential of the promise will require unpacking these processes and taking them seriously, as they involve typically separate systems and organizations in coordination for the experience to ignite. It also means working with the kinds of organizations with which they would normally have little, if any, relationship. Leading destinations invest considerable resources in experience design which ensures a consistent branded experience throughout the visitor journey, e.g., lands, buildings, beaches, transportation, accommodation, attractions, restaurants and the provision of services like wi-fi, using social media for developing the visitor experience.

Analysis showed that there is a 41% increase in brand recall and 29% increase in intention to return to destinations that provide an integrated experience and greater urgency to ensure it occurs, as opposed to destinations that deliver fragmented service systems. When experiences dominate destination value, integrated experiences offer a competitive advantage that is difficult for competitors to replicate in a hurry.

Community Engagement and Ownership

Possibly the most vital discovery pertains to the role of community engagement in the destination branding process. When residents are part of the brand development and delivery process, the destination can maintain authentic and resilient positions. The community ownership of destination brands creates natural ambassadors, which strengthens the brand message with every interaction visitors have with residents.

Iceland's approach to fostering community involvement in tourism development demonstrates this, while local communities are involved in articulating the brand narrative and delivering the experience in a meaningful way. This strategy has allowed Iceland to uphold authentic positioning, despite accelerated tourism demand.

Sustainability Integration

Modern day destination branding is requiring real commitment to sustainability beyond a marketing claim and will often require operational practice. Destinations who uniquely position sustainability within their brand identity will provide resiliency and capture the increasing market segment of eco-minded travelers.

Research shows that destinations who truly position sustainability will lead to a 26% premium pricing opportunity over the competition and greater long-term market stability. Costa Rica can provide strong positioning as an eco-tourism leader showing how sustainability can become a competitive advantage when it acts on and implements sustainability in an authentic way.

Digital Ecosystem Development

Successful destinations have developed digital ecosystems that deliver comprehensive brand experiences beyond the physical visit. These ecosystems consist of social media communities, content sites, experiences that can be delivered virtually, and engagement tactics to maintain customer relationships between visits.

The top digital ecosystems achieve 52% higher repeat visitation rates and 38% more visitor lifetime value compared

to destinations with basic digital capabilities. In addition to increased number of interactions with the brand, they are also capable of responding quickly to changes in market conditions and consumers' preferences.

Discussion

The findings of the study shed light on the multifaceted interface between destination management and branding in building sustainable competitive advantage. The research provides evidence that destination branding is much more than marketing communication and includes advanced management approaches to align internal resources and capabilities with the destination marketing position in the external market place.

Theoretical Implications

This study expands our knowledge of destination management theory by showing that competitive advantage is created at the intersection of authentic asset discovery, stakeholder collaborating, and integrated experience delivery. The findings show conventional marketing approaches, which give priority to external positioning > internal authenticity, do not lead to sustainable competitive advantages which require internal authenticity and external consistency during experience delivery that follow the brand promise.

The study also shows that the success of destination-branding initiatives depends on effective dynamic capabilities that allow destinations to adapt while preserving core identity dimensions. This suggests that capabilities related to organizational learning build off traditional marketing capabilities are key to destination management organizations (DMOs) success.

Practical Implications

The study offers practical guidance for destination management practitioners interested in building effective branding strategies. The results illustrate the benefit of explicit brand-building processes which include all stakeholder groups from brainstorming concepts through to implementation. This collaborative work will require substantial in advance relationship building work and consensus development, but will lead to a more sustainably competitive position.

The study also highlights the importance of digital integration when building contemporary destination branding. Practitioners need to understand that digital presence as a brand goes beyond promotion, to a comprehensive ecosystem that maintains visitor relationships, throughout their lifecycle.

Limitations and Future Research

This study examined a limited number of destinations that recognized tourism as an important part of their economy and therefore had country tourists destinations with tourism resources (e.g., branding guidelines, destination businesses, marketing collaborations, etc.) and destinations with tourism destination management organizations (DMO) formed. Future research should investigate the branding challenges or opportunities for new destinations that have little to no resources and minimal to no infrastructure. Additionally, this research focused almost entirely on international leisure tourism and only minimally focused on other types of travel like business travel, domestic tourism, or specific market segments (e.g., ethnic brands).

Since digital technology advances are creating new consumer preferences for tourism planning (e.g., customized travel itineraries, flexibility for changes in travel

plans, etc.), there is a clear gap in the literature that tracks how tourism businesses and destinations will adapt to the changes in consumer preferences. In particular, there is a knowledge gap on how artificial intelligence (AI), virtual reality (VR), and other emerging technologies can affect the delivery and development of destination brands.

Conclusion

Destination management and branding are essential capabilities for building competitive advantage in the global tourism industry. To be successful, you must adopt an integrated approach, which requires authentic narrative development, stakeholder buy-in, readiness to undertake digital innovation, and a commitment to sustainability. Destinations who can master all of these areas will develop a unique place in the market, create the best possible visitor experience for the target audience and create meaningful benefits to the community and sustainability in the long term.

The research presented here demonstrates that great destination branding involves much more than marketing communications, moreover it involves a holistic approach to management that aligns all stakeholder activity based on shared brand vision. This alignment allows stakeholders to create competitive advantages that are meaningful to target audiences and very challenging for competitors to mimic.

As the tourism industry continues to evolve and adapt, destinations that embrace higher-order branding capabilities while remaining connected to authentic communities will be able to flourish and thrive in global markets that are becoming increasingly competitive and complex.

The integration of destination management and branding is more than a marketing concern, it marks the strategic capability for sustainable development of tourism.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Braun, V., & Clarke, V. (2023). Toward good practice in thematic analysis: Avoiding common problems and be(com)ing a knowing researcher. *International Journal of Transgender Health*, 24(1), 1-6.

2. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2023). Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalisation of services. In *Information and communication technologies in tourism* (pp. 377-389). Springer.

3. Chen, M., & Liu, Y. (2024). Post-pandemic tourism recovery: Strategies for destination resilience and competitiveness. *Journal of Travel Research*, 63(2), 245-262.

4. Dedeoğlu, B. B., Taheri, B., Okumus, F., & Gannon, M. (2023). Understanding the importance that consumers attach to social media sharing (ISMS): Scale development and validation. *Tourism Management*, 96, 104715.

5. Fernandes, S., & Fernandes, C. (2022). Destination management and marketing: The role of innovation and technology. *International Journal of Contemporary Hospitality Management*, 34(8), 2956-2975.

6. Gartner, W. C., & Konecnik Ruzzier, M. (2023). Tourism destination brand equity dimensions: Renewal versus repeat visitation. *Journal of Travel Research*, 62(4), 786-802.

7. Ghosh, S. (2023). Destination branding through co-creation: A systematic literature review and future research agenda. *Journal of Destination Marketing & Management*, 28, 100785.

8. Hosseini, S., Cortes-Macías, R., Foroudi, P., & Merrilees, B. (2023). Destination branding and tourist motivation: A systematic review of literature. *Journal of Business Research*, 154, 113307.

9. Huertas, A., & Oliveira, A. (2023). How does the destination's social media communication influence tourists' choice? The mediating role of the destination brand. *Tourism Management Perspectives*, 46, 100993.

10. Hultman, M., Skarmeas, D., Oghazi, P., & Beheshti, H. M. (2023). Achieving tourist loyalty through destination personality, satisfaction, and identification. *Journal of Business Research*, 156, 113491.

11. Kavaratzis, M., & Hatch, M. J. (2023). The dynamics of place brands: An identity-based approach to place branding theory. *Marketing Theory*, 23(1), 69-86.

12. Kladou, S., & Kehagias, J. (2023). Destination brand love: Conceptualization and measurement. *Tourism Management*, 94, 104646.

13. Liu, H., & Cheung, L. T. O. (2024). Social media marketing and destination branding: A systematic review and research agenda. *Journal of Hospitality and Tourism Technology*, 15(2), 234-251.

14. Morgan, N., Pritchard, A., & Piggott, R. (2023). Destination brands: Managing place reputation (3rd ed.). Routledge.

15. Morrison, A. M., & Coca-Stefaniak, J. A. (2023). Destination management and marketing: Breakthroughs in research and practice. IGI Global.

16. Pike, S., & Bianchi, C. (2022). Destination brand equity for Australia: Testing a model of CBBE for short-haul and long-haul markets. *Journal of Hospitality & Tourism Research*, 46(4), 734-753.

17. Sigala, M. (2023). Tourism recovery post-COVID-19: The case for digital transformation and innovation. *International Journal of Contemporary Hospitality Management*, 35(6), 2145-2163.

18. World Tourism Organization. (2024). *Tourism towards 2030: Global overview*. UNWTO Publications.

19. Zenker, S., & Braun, E. (2022). Rethinking the measurement of place brands. *Journal of Place Management and Development*, 15(1), 53-71.

TA'LIM MUASSASALARIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAMOYILLARI

I.M.Meliboyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univeristeti, Samarqand, O'zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univeristeti
Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti tayanch doktaranti
Email: *ibroxim.meliboyev@mail.ru*
Tel: *+99893 703 33 03*

Received: 11 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 16 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida mavjud moddiy, moliyaviy va inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish tamoyillari yoritilgan. Resurslardan foydalanishning asosiy muammolari, ularni boshqarish mexanizmlari va ilg'or xalqaro tajribalar misolida tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimidagi mavjud resurslar taqsimotining adolatliligi va ulardan unumli foydalanish ko'rsatkichlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim resurslari, samarali boshqaruv, infratuzilma, strategik tamoyillar.*

PRINCIPLES OF EFFECTIVE USE OF RESOURCES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

Annotation. *This article explores the principles for improving the efficiency of utilizing material, financial, and human resources in educational institutions. It examines the key challenges associated with resource management and analyzes mechanisms for their effective use, drawing upon international best practices. The article also presents proposals and recommendations aimed at enhancing the fairness of resource allocation within the education system and improving indicators of their efficient use.*

Keywords: *educational resources, effective management, infrastructure, strategic principles.*

ПРИНЦИПЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются принципы повышения эффективности использования материальных, финансовых и человеческих ресурсов в образовательных учреждениях. Проанализированы основные проблемы в использовании ресурсов, механизмы их управления, а также передовой международный опыт. Кроме того, приведены предложения и рекомендации, направленные на совершенствование справедливого распределения ресурсов в системе образования и повышения показателей их рационального использования.*

Ключевые слова: *образовательные ресурсы, эффективное управление, инфраструктура, стратегические принципы.*

Kirish. XXI asrda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot omillari orasida ta’lim tizimi yetakchi o‘rinni egallamoqda. Har bir davlatda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish bevosita ta’lim muassasalarining samarali faoliyatiga bog‘liq. Ta’lim sifati esa ko‘p jihatdan ushbu muassasalarning resurslar — moddiy-texnik baza, moliyaviy ta’minot, malakali kadrlar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan qanday foydalanganiga bog‘liqdir. Jahon banki hisobotlariga ko‘ra, ta’lim tizimidagi resurslardan noto‘g‘ri foydalanish global miqyosda umumiy ta’lim sifatining 20–30 foizga pasayishiga olib keladi[1].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish borasida salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Ushbu farmonda alohida e’tibor qaratilgan muhim jihatlardan biri bu — ta’lim muassasalarida mavjud resurslardan oqilona va samarali foydalanish hisoblanadi.

Resurslardan samarali foydalanish masalasi nafaqat byudjet mablag‘larini tejash, balki ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘quvchilar uchun qulay muhit yaratish bilan bevosita bog‘liqdir. Afsuski, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Ta’lim inspeksiyasining 2024-yilgi hisobotlariga ko‘ra, ayrim ta’lim muassasalarida binolarning foydalanish holati past, zamonaviy jihozlar yetishmaydi va pedagoglar malaka oshirishda tizimlilik yo‘q.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalarining ko‘pchiligida resurslardan foydalanish bo‘yicha yagona strategik reja mavjud emas, monitoring va baholash tizimi esa zaif rivojlangan. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati to‘liq integratsiyalashmagan. Bu esa mavjud resurslarning samaradorligini pasaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ta’lim muassasalarida resurslardan samarali foydalanish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar ta’lim resurslarini moliyaviy, moddiy-texnik, insoniy va axborot resurslari sifatida kompleks ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Texnologiyalar integratsiyasi dunyo bo‘ylab ta’limni tubdan o‘zgartirib, o‘qishni yanada qulay va uzluksiz qildi. Ushbu o‘zgarishning muhim jihatlaridan biri bu — mobil ta’lim bo‘lib, u mobil texnologik qurilmalarga, ayniqsa, mobil telefonlarga tayanadi.[2]

O‘zbekiston olimlari – A. Jo‘rayev, N. Otajonov, M. Raxmonov kabilar o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim muassasalari resurs salohiyatini oshirish, ularni samarali boshqarish va ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganib chiqishgan. Masalan, A. Jo‘rayev (2020) o‘z tadqiqotida oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslarini diversifikatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikka erishish yo‘llarini asoslagan.

Inson resurslari tashkilot uchun, ayniqsa, ta’lim muassasalari uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki inson resurslari talabalarning ta’lim jarayonida bevosita ishtirok etuvchi qismdir. Ta’lim

muassasasining sifati ularda mavjud inson resurslari soni orqali baholanishi mumkin. Inson resurslari tashkilot faoliyatlarini amalga oshirish orqali uning yo‘nalishini belgilaydi. Ta’lim muassasasidagi tashkilot faoliyati o‘qituvchilarning bilimini talabalarga yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Bilimni uzatish — bu ta’lim-tarbiya jarayonidir, ya’ni o‘qituvchining yetarli bilimga ega bo‘lishi va shu bilimni uni qabul qilishga tayyor bo‘lgan talabalarga yetkazishidir. Inson resurslari tashkilot taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borishi lozim, xuddi ta’lim muassasalari o‘z talabalarining ehtiyojlariga qarab doimiy rivojlanib borishi kabi. Ushbu inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojlar to‘liq ta’minlanishi kerakki, tashkilot o‘zining ta’lim muassasasi bilan uyg‘un bo‘lgan vazifasi va maqsadlariga muvofiq rivojlanishda davom eta olsin. Inson resurslarini boshqarish — bu ta’lim muassasasini boshqarishning muhim tarkibiy qismidir. Bunga barcha madrasaning pedagogik va ma’muriy xodimlarini inson resurslarini boshqarish tizimi orqali birgalikda boshqarish va ta’limiy maqsadlarga erishish uchun jalb qilish orqali erishiladi (Mustajib, Prim Masrokan Mutohar va Imam Fuadi, 2022).[3]

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ta’lim muassasalarida mavjud moddiy, moliyaviy va inson resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlovchi tamoyillarni ishlab chiqish maqsad qilingan.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Tizimli yondashuv – ta’lim tizimi bir butun kompleks sifatida qaralib, undagi resurslar (moddiy-texnik baza, moliyaviy mablag‘lar, pedagogik va boshqaruv kadrlari) o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Tahlil va sintez usuli – mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistika ma’lumotlari asosida ma’lumotlar chuqur o‘rganildi va ularning asosiy xulosalari umumlashtirildi.

Empirik usullar – so‘rovnoma va suhbat asosida O‘zbekistonning ayrim ta’lim muassasalarida mavjud resurslardan foydalanish holati o‘rganildi. So‘rovlar orqali xodimlarning fikrlari, infratuzilma va kadrlar yetishmovchiligi kabi muammolar aniqlashtirildi.

Taqqoslash usuli – O‘zbekiston ta’lim tizimidagi resurslardan foydalanish holati ayrim rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi, ilg‘or amaliyotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar ta’lim muassasalari faoliyati tanlab olindi. Predmet esa – ushbu muassasalarda mavjud resurslardan foydalanish mexanizmlari va ularning samaradorligini oshirish tamoyillaridir[4]**.**

Tahlil va natijalar.

Mazkur tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasidagi bir qator oliy ta’lim muassasalarida mavjud resurslardan foydalanish holati tizimli tarzda tahlil qilindi. Tahlil quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borildi: moliyaviy ta’minot, moddiy-texnik infratuzilma, inson resurslari va resurslardan foydalanish samaradorligi.

1. Moliyaviy ta’minot tahlili

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy manbalari, asosan, davlat budjeti, grantlar, kontrakt to‘lovlari va ilmiy loyihalardan keladigan tushumlar hisobiga shakllanadi. Biroq:

-Ko‘plab universitetlarda budjetdan ajratiladigan mablag‘lar faqat ish haqi va

eksploatatsiya xarajatlarini qoplashga yetmoqda;

-Raqobatbardosh ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish uchun mustaqil mablag‘ manbalari yetarli emas;

-Byudjetning moslashuvchanligi va muassasa darajasida moliyaviy avtonomiya pastligicha qolmoqda.

1-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida resurslar bo‘yicha asosiy muammolar (so‘rovnoma asosida)[5]

№	Resurs turi	Muammo mazmuni	So‘rovda qayd etilgan (%)
1	Moliyaviy resurslar	Mablag‘lar yetishmasligi, faqat ish haqi uchun ishlatiladi	76%
2	Infratuzilma	Laboratoriyalar va IT texnikaning eskirganligi	61%
3	Kadrlar salohiyati	Ilmiy darajali va tajribali o‘qituvchilar yetishmovchiligi	58%
4	Innovatsion salohiyat	Raqamli texnologiyalarni qo‘llashdagi sustlik	64%
5	Resurs boshqaruvi	Samarali taqsimlovchi tizimlarning yo‘qligi	69%

2. Moddiy-texnik infratuzilma tahlili

-Tahlil qilingan OTMlarning 40% dan ortig‘ida **ilmiy laboratoriyalar va zamonaviy uskunalar yetishmaydi**;

-Aksariyat o‘quv binolari kapital ta’mirtalab, kutubxona fondlari yangilanishga muhtoj;

-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish salohiyati mavjud bo‘lsa-da, bu imkoniyatdan **to‘liq foydalanilmayapti**, ayniqsa mintaqaviy OTMlarda.

2-jadval

O‘zbekiston va ayrim xorijiy davlatlarda oliy ta’limga ajratilgan mablag‘ (% YaIMga nisbatan)

Davlat	2022 (%)	2023 (%)	2024 (%)
O‘zbekiston	1.2	1.4	1.6
Estoniya	1.7	1.9	2.0
Finlyandiya	2.5	2.7	2.9
Janubiy Koreya	2.0	2.3	2.5

3. Inson resurslari salohiyati

-Kadrlar tarkibida ilmiy salohiyat (PhD, DSc) darajasi yildan-yilga oshayotganiga qaramay, professor-o‘qituvchilarning metodik va innovatsion ko‘nikmalari o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga moslashmagan;

-O‘qituvchilarning 30–40% qismi xorijiy tillarni yetarli darajada bilmasligi sababli xalqaro loyihalarda ishtirok eta olmayapti;

-Yosh kadrlarning ulushi past, natijada OTMlarda kadrlar almashinuvi va yangilanish sur’atlari sekin kechmoqda.

4. Resurslardan foydalanish samaradorligi

-O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, mavjud resurslar imkoniyatlariga nisbatan foydalanish koeffitsienti past: auditoriyalar, texnik vositalar va laboratoriyalar to‘liq quvvatda ishlamayapti;

-Xalqaro standartlarga muvofiq ichki audit va monitoring tizimlari yetarli darajada shakllanmagan.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud moliyaviy, moddiy-texnik va inson resurslarining sifati va boshqaruv darajasi ta’lim sifati va natijadorligiga bevosita ta’sir qilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, resurslar asosan markazlashgan tartibda taqsimlanadi va muassasalarning o‘z resurslarini mustaqil boshqarish imkoniyatlari cheklangan. Bundan tashqari, ko‘plab OTMlarda infratuzilma va raqamli texnologiyalar eskirgan, kadrlar salohiyati esa zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq mos kelmaydi.[6]

Mavjud holatni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

-Moddiy-texnik bazani yangilash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan investitsion dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

-Pedagog kadrlar malakasini oshirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni joriy qilish, ilmiy loyihalarga grantlar ajratish kerak.

-Resurslardan foydalanishni baholovchi indikatorlar ishlab chiqilib, ichki audit tizimlari orqali muntazam monitoring amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu takliflar asosida oliy ta’lim tizimida resurslarni yanada oqilona boshqarish va sifatli ta’limga erishish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Bank. (2022). "Learning Poverty: Data and Measurement". Washington D.C.

2. Aina, J. K. (2025). Mobile Phone Usage in Higher Education Among Pre-Service Teachers in Nigeria: A Qualitative Study. Advances in Mobile Learning Educational Research, 5(1), 1331-1343.

3. Yudiarso, A. W., Fuadi, I., Sujianto, A. E., & Rohmah, L. (2025). The Instructional Human Resource Planning In Improving Quality Learning In Educational Institutions. *Journal of Instructional and Development Researches*, *5*(1), 40-50.

4. Abdullaeva G‘.X. (2020). Ta’lim muassasalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari. *Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*, Toshkent: TDPU.

5. Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). *Ta’lim sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar*. www.stat.uz

6. Turaev M., Juraev A. (2021). Innovatsion boshqaruv tamoyillari asosida ta’lim resurslarini tashkil etish. *Innovatsion rivojlanish jurnali*, №3, 33–38-betlar.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA BASHORATLASH ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

U.B.Bekmurodov, F.A.Shomirzayev

Oriental universiteti, Samarqand, O'zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Bekmurodov Ulug'bek Bahrom o'g'li
Oriental universiteti dotsenti PhD
Email: *ulugbek_bekmurodov@mail.ru*
Tel: *+998 97 912 00 53*

Shomirzayev Farruh Akram o'g'li
Oriental universiteti magistri
Email:
shomirzayevfarrux218@gmail.com
Tel: *+998 93 998 45 28*

Received: 16 May 2025
Revised: 26 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali tahlil qilish va kelajakdagi holatlarni aniqlash (bashoratlash) imkonini beruvchi algoritmlarni ishlab chiqish masalalari atroflicha yoritilgan. Tadqiqotda mashinaviy o'rganish (Machine Learning) va chuqur o'rganish (Deep Learning) texnologiyalarining nazariy asoslari, ularning turli sohalarda qo'llanish xususiyatlari hamda algoritmlarning amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada ayniqsa vaqt qatorlarini tahlil qilishda keng qo'llanilayotgan LSTM (Long Short-Term Memory) neyron tarmoqlari misolida amaliy model ishlab chiqilgan va uning prognoz aniqligi yuqori ko'rsatkichlarga ega ekani isbotlab berilgan.*

Kalit so'zlar*: sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, bashoratlash, algoritm, ma'lumotlar tahlili, neyron tarmoqlar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ АЛГОРИТМОВ АНАЛИЗА ДАННЫХ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация: *В данной статье всесторонне рассматриваются вопросы разработки алгоритмов, позволяющих эффективно анализировать большие объемы данных и идентифицировать (предсказывать) будущие состояния с использованием технологий искусственного интеллекта (ИИ). В исследовании анализируются теоретические основы технологий машинного обучения (Machine Learning) и глубокого обучения (Deep Learning), их применение в различных областях и практическая эффективность алгоритмов. В статье разрабатывается практическая модель на примере нейронных сетей LSTM (Long Short-Term Memory), которые широко используются в анализе временных рядов, и доказывается, что она обладает высокой точностью прогнозирования.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, машинное обучение, прогнозирование, алгоритм, анализ данных, нейронные сети.*

THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED DATA ANALYSIS AND FORECASTING ALGORITHMS

Annotation: *This article comprehensively covers the issues of developing algorithms that allow for the effective analysis of large amounts of data and the identification (prediction) of future states using artificial intelligence (AI) technologies. The study analyzes the theoretical foundations of machine learning (Machine Learning) and deep learning (Deep Learning) technologies, their application in various fields, and the practical effectiveness of algorithms. The article develops a practical model using the example of LSTM (Long Short-Term Memory) neural networks, which are widely used in time series analysis, and proves that it has high forecast accuracy.*

Keywords: *artificial intelligence, machine learning, prediction, algorithm, data analysis, neural networks.*

Kirish.

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya davri sifatida tavsiflanmoqda. Har kuni global miqyosda yuz millionlab yangi ma’lumotlar yaratilmoqda va bu ma’lumotlar oqimi inson tafakkuri uchun idrok etib bo‘lmas darajaga yetmoqda. Bunday sharoitda mazkur ma’lumotlarni tahlil qilish, ulardan foydali axborot ajratib olish va kelajakdagi holatlarni bashorat qilish dolzarb vazifaga aylangan. Ayniqsa, iqtisodiyot, moliya, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy tarmoqlar, iqlim o‘zgarishlari kabi sohalarda qabul qilinayotgan strategik qarorlar ko‘pincha mavjud ma’lumotlarga asoslanadi.

Sun’iy intellekt (SI) ushbu ehtiyojlarga samarali yechimlar taklif etmoqda. U inson aqliy faoliyatini modellashtirish orqali murakkab hisoblash, qaror qabul qilish va bashoratlash jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi ilg‘or texnologiyalar majmuasidir. Ayniqsa, mashinaviy o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning) va neyron tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan algoritmlar katta hajmdagi ma’lumotlar ustida murakkab bog‘liqliklarni aniqlash va ularni tahlil qilish imkonini beradi.

Shu jihatdan qaralganda, sun’iy intellekt asosida ma’lumotlarni tahlil qilish va bashoratlash algoritmlarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ushbu maqolada aynan shu masalaga e’tibor qaratilib, SI texnologiyalarining tahliliy va prognostik imkoniyatlari o‘rganiladi, ilg‘or algoritmlarning ishlash tamoyillari va ularni ishlab chiqish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy dasturiy vositalar yordamida amaliy model qurilib, uning aniqlik darajasi va samaradorligi baholanadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining nazariy asoslari va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha O‘zbekiston olimlari tomonidan so‘nggi yillarda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlari mamlakatda raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir paytda SI algoritmlarining ahamiyati va ularni turli sohalarda joriy etish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

R.A.Nishonov o‘z tadqiqotlarida sun’iy intellekt vositalarining iqtisodiy sohalarda tahlil va prognozlash vazifalarida samaradorligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, mashinaviy o‘rganish asosida qurilgan algoritmlar yordamida iqtisodiy jarayonlardagi noaniqliklarni kamaytirish, tavakkalchilik darajasini pasaytirish va resurslardan oqilona foydalanish mumkin. U SI texnologiyalarini qaror qabul qilish tizimlariga integratsiyalash zarur deb hisoblaydi.

Z.I.Shamsiyev esa axborot tizimlarining intellektuallashtirilgan shakllarini ishlab chiqish va ularni tahlil vositasi sifatida qo‘llash masalasiga e’tibor qaratadi. U o‘z tadqiqotlarida an’anaviy statistik modellar bilan sun’iy intellekt algoritmlarining farqli jihatlarini solishtirib, real vaqt rejimida ishlovchi SI modellari ancha yuqori aniqlikka ega ekanini isbotlab bergan. Ayniqsa, regressiya, klassifikatsiya va klasterlash usullari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini yoritgan.

T.A.Jo‘rayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun’iy intellekt algoritmlarining O‘zbekiston iqtisodiyotining real sektori - bank tizimi,

sug‘urta bozori, logistika va sanoat tarmoqlarida qo‘llanish istiqbollari o‘rganilgan. U chuqur o‘rganish asosidagi LSTM, Random Forest va Support Vector Machine (SVM) kabi algoritmlarni iqtisodiy prognozlash va operatsion boshqaruvda muvaffaqiyatli tatbiq qilish mumkinligini tajriba asosida isbotlab bergan. Jo‘rayevning fikricha, SI texnologiyalarining o‘ziga xos afzalligi - ularning o‘rganish va moslashuvchanlik xususiyatlaridadir.

A.A.Komilov va D.K.Xasanov esa sanoat sohasida real vaqtli monitoring va bashoratlash jarayonlariga e’tibor qaratgan. Ular mashinaviy o‘rganish algoritmlarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash orqali korxonalarda texnologik jarayonlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va samaradorlikni oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, aynan sun’iy intellektga asoslangan algoritmlar yordamida ishlab chiqarish samaradorligini 25–30 foizgacha oshirish mumkin.

Yuqoridagi fikrlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston olimlari tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalarini mahalliy iqtisodiy va texnologik sharoitlarga moslashtirish, ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy model sifatida joriy etish bo‘yicha muhim ilmiy asoslar yaratilgan. Bu esa ushbu yo‘nalishning mamlakat miqyosida ustuvor ahamiyatga ega ekanini va SI texnologiyalarini har bir sohada joriy etish uchun yetarli ilmiy-tadqiqot salohiyatiga ega ekanligimizni ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt asosida ma’lumotlarni tahlil qilish va bashoratlash algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, SI, mashinaviy o‘rganish va bashoratlashga oid ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilindi. Keyin, real ma’lumotlar bazasi asosida amaliy tahlil olib borildi: ma’lumotlar tozalandi, normallashtirildi va modelga tayyorlandi.

Asosiy algoritm sifatida LSTM neyron tarmog‘i tanlandi, unga qo‘shimcha ravishda boshqa modellarning (Linear Regression, Random Forest) natijalari bilan qiyosiy baholash o‘tkazildi. Modellar baholashda MSE, RMSE va R^2 kabi ko‘rsatkichlar ishlatildi. Tadqiqotda Python dasturlash tili va tegishli kutubxonalar (Pandas, Scikit-learn, TensorFlow) asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar.

Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy informatika, matematika, statistika va neyrobiologiya kabi fanlarning kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy-texnologik yo‘nalish bo‘lib, u inson aqliy faoliyatini modellashtirishga qaratilgan. Uning asosiy maqsadi - inson singari o‘rganish, anglash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan intellektual tizimlarni yaratishdan iborat.

SI texnologiyalari bugungi kunda keng doiradagi sohalarda, xususan, iqtisodiyot, moliya, tibbiyot, transport, logistika, xavfsizlik tizimlari, iqlim bashorati, elektron tijorat va ta’lim sohalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu tizimlar katta hajmdagi murakkab ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash, kelajak holatlarni bashorat qilish va avtomatik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt quyidagi asosiy texnologik tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

– mashinaviy o‘rganish (machine learning - ml): o‘zida algoritmlar va statistik modellar majmuasini jamlab, kompyuter tizimlariga tajriba orqali takomillashish imkonini beradi. supervayzerli (nazoratli), unsupervayzerli (nazoratsiz) va mustahkamlangan o‘rganish kabi turlari mavjud.

– chuqur o‘rganish (Deep Learning - DL): neyron tarmoqlarga asoslangan murakkab o‘rganish usulidir. U ayniqsa tasvirni aniqlash, tabiiy tilni qayta ishlash va vaqtli qatorlarni tahlil qilishda yuqori samaradorlikka ega.

– Neyron tarmoqlar (Artificial Neural Networks - ANN): inson miyasi ish prinsipiga o‘xshash sun’iy tugunlar (neurons) orqali murakkab bog‘lanishlarni o‘rganadi va bashoratlash imkonini beradi.

– NLP (Natural Language Processing): tabiiy inson tilidagi matnlar va nutqni tushunish, tarjima qilish, avtomatik yozish kabi imkoniyatlarni beradi.

SI algoritmlarining asosiy ustunligi - ularning katta hajmdagi noaniq, murakkab va tuzilmaviy jihatdan turli-tuman bo‘lgan ma’lumotlarni qayta ishlay olishi, statistik va amaliy bog‘liqliklarni mustaqil aniqlashi, va yangi axborotlar asosida yangilanishga qodirligidir.

Ma’lumotlar tahlili (data analysis) esa ma’lumotlardan ma’no chiqarish, ularni qayta ishlash, guruhlash, umumlashtirish va ularning asosida qarorlar qabul qilishni o‘z ichiga oladi. An’anaviy statistik uslublarga nisbatan sun’iy intellekt asosidagi tahlil yondashuvlari quyidagi afzalliklarga ega:

– moslashuvchanlik: model yangi ma’lumotlar bilan uzluksiz ishlashi va o‘zini yangilab borishi mumkin;

– keng ko‘lamlilik: turli manbalardan olingan (rasmlar, matnlar, raqamlar) katta hajmdagi ma’lumotlarni bir vaqtning o‘zida qayta ishlay oladi;

– tezkorlik: real vaqt rejimida aniqlikni yo‘qotmagan holda tezkor tahlil qilish imkonini beradi;

– bashorat qilish: ma’lumotlardagi tendensiyalar va naqshlarni aniqlab, kelajakdagi holatlarni oldindan belgilaydi.

Moliyaviy bozorlarda aksiyalar narxini bashorat qilish, sog‘liqni saqlash tizimida bemor kasalliklarini oldindan aniqlash, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi xatti-harakatini prognozlash - bularning barchasi sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilining amaliy ko‘rinishlaridir.

Shu bois, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tahlil va bashoratlash tizimlari zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, aniqlikni oshiradi va strategik qarorlarni asoslashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Sun’iy intellekt asosidagi bashoratlash (prognostika) algoritmlari real vaqt ma’lumotlari asosida kelajakdagi tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bu algoritmlar turli maqsadli sohalarda (iqtisod, tibbiyot, sanoat, logistika, moliya va h.k.) keng qo‘llaniladi. Ularning samaradorligi ma’lumotlar turiga, o‘rgatilish usuliga va modelning murakkablik darajasiga bog‘liq.

1-jadval

Bashoratlash algoritmlarining asosiy turlari va ularning xususiyatlari

Algoritm turi	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Kamchiliklari	Qo‘llanilish sohasi
Linear Regression	Kelajak qiymatlarni chiziqli bog‘liqlik asosida aniqlash	Soddaligi, tez ishlashi	Faqat chiziqli bog‘liqliklar uchun mos	Iqtisodiy prognozlar, talab bashorati
Decision Tree	Tanlov yoki qaror asosida bashorat qilish	Oson tushuniladi, vizualizatsiyalash mumkin	Overfittingga moyil	Kredit baholash, xatar tahlili
Random Forest	Ko‘p sonli daraxtlardan kelib chiqib yakuniy qaror chiqarish	Yuqori aniqlik, barqarorlik	Resurs talabi yuqori, murakkabroq	Marketing, moliya, sog‘liqni saqlash
Support Vector Machine (SVM)	Ma’lumotlar orasidagi ajratuvchi chegarani aniqlash	Kichik datasetlar uchun aniqligi yuqori	Katta datasetlarda sekin ishlashi mumkin	Diagnostika, tasniflash
ARIMA modeli	Vaqt qatorlarini statistik tahlil qilish	Statistik asosga ega, iqtisodiy modellarda ishonchli	Stasionar bo‘lmagan ma’lumotlarga mos emas	Iqtisodiy va iqlim prognozlari
LSTM (Long Short-Term Memory)	Vaqtli qatordagi uzoq muddatli bog‘liqliklarni o‘rganish	Kompleks naqshlarni o‘rganadi, dinamik prognozlashda samarali	Modelni o‘rgatish uzoq vaqt oladi	Aksiya narxlari, iqlim o‘zgarishi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, chiziqli model (Linear Regression) algoritmlari soddaligi va tushunarli natijalari bilan ajralib turadi, biroq ular faqat chiziqli bog‘liqlik mavjud bo‘lgan holatlardagina yaxshi ishlaydi. Aksincha, LSTM kabi chuqur neyron tarmoq modellarining afzalligi - ularning vaqtga bog‘liq naqshlarni chuqur o‘rganish va bashoratlash imkoniyatidir. Ayniqsa vaqtli qatorlar - masalan, aksiyalar narxlari, iqlim harorati, elektr energiyasi iste’moli kabi o‘zgaruvchan ma’lumotlar bilan ishlaganda LSTM modellar yuqori aniqlikni ta’minlaydi.

Random Forest esa murakkab va ko‘p qatlamli ma’lumotlar to‘plamida yuqori barqarorlik va aniqlik ko‘rsatadi. Uning kamchiligi - modelni tushunish va vizualizatsiya qilish qiyin. Shu sababli u ko‘proq texnik tahlilga, avtomatik qaror tizimlariga mos keladi.

2-jadval

Bashoratlash algoritmlari aniqligi va qo‘llanilishiga qarab qiyosiy baho

Algoritm	**Aniqlik (R^2)**	**O‘rganish vaqti**	**Tushunarlilik**	**Moslashuvchanlik**	**Murakkablik darajasi**
Linear Regression	O‘rta	Juda tez	Juda yuqori	Past	Juda past
Decision Tree	O‘rta	Tez	Yuqori	Past	Past
Random Forest	Yuqori	O‘rtacha	O‘rta	Yuqori	O‘rta
SVM	Yuqori (kichik datasetlarda)	Sekin	O‘rta	Past	Yuqori
ARIMA	O‘rtacha	Tez	Yuqori	Past	O‘rtacha
LSTM	Juda yuqori	Sekin	Past	Juda yuqori	Yuqori

Tadqiqotda foydalanilgan bashoratlash algoritmlarining samaradorligi va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari bir nechta mezonlar asosida tahlil qilindi. Bular jumlasiga algoritmning aniqligi (R^2), o‘rganish vaqti, tushunarliligi, moslashuvchanligi hamda murakkablik darajasi kiradi. Ushbu mezonlar bo‘yicha o‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir algoritmning o‘ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud.

Linear Regression modeli eng sodda bashoratlash usullaridan biri bo‘lib, uni qurish va tushunish juda oson. Bu algoritm ma’lumotlar orasidagi chiziqli bog‘liqlik mavjud bo‘lsa, yaxshi natijalar beradi. O‘rganish tezligi yuqori bo‘lib, izohlanish darajasi juda yuqori, biroq murakkab, nolinear munosabatlarni aniqlash imkoniyati cheklangan.

Decision Tree algoritmi ham tez ishlashi va intuitiv tushunarliligi bilan ajralib turadi. Bu model qarorlar daraxti asosida ishlaydi va aniq qaror chiqarishga imkon beradi. Ammo model overfitting (ortiqcha moslashish) holatiga moyil bo‘lib, ba’zan umumlashtirish qobiliyati past bo‘lishi mumkin.

Random Forest - bir nechta qaror daraxtlari asosida yakuniy bashoratni amalga oshiruvchi murakkab modeldir. U yuqori aniqlikka ega bo‘lib, barqaror natijalar taqdim etadi. Shu bilan birga, bu modelni tushunish va izohlash nisbatan qiyinroq, resurs talabi ham yuqoriroq bo‘ladi.

Support Vector Machine (SVM) algoritmi kichik va o‘rta hajmdagi datasetlar uchun yuqori aniqlik ko‘rsatadi. U murakkab tuzilmaviy chegaralarni ajratishda foydali bo‘lsa-da, katta ma’lumotlar bazasida ishlashi sekin kechadi, shuningdek tushunarliligi o‘rtacha darajada.

ARIMA modeli statistik yondashuvlarga asoslanib, vaqt qatorlarini prognozlashda keng qo‘llaniladi. U stasionar ma’lumotlarga nisbatan yuqori aniqlikka ega, ammo stasionar bo‘lmagan yoki sezilarli

tendensiyali ma’lumotlar bilan ishlashda modelni moslashtirish talab etiladi.

LSTM (Long Short-Term Memory) algoritmi esa sun’iy neyron tarmoqlarning chuqur o‘rganish asosidagi eng ilg‘or shakli bo‘lib, ayniqsa vaqtli qatorlarda uzoq muddatli bog‘liqliklarni aniqlashda yuqori aniqlik bilan ishlaydi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, bashoratlash vazifalarida yagona “eng yaxshi” algoritm yo‘q. Har bir model ma’lumotlar tabiati, maqsadli vazifa va mavjud texnik resurslardan kelib chiqib tanlanadi. Oddiy va chiziqli bog‘liqliklar uchun Linear Regression yoki Decision Tree yetarli bo‘lsa, murakkab, nolinear va vaqtga bog‘liq dinamik tizimlar uchun LSTM va Random Forest modellari ustunlikka ega.

Sun’iy intellekt asosidagi bashoratlash algoritmini ishlab chiqish jarayoni bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, ular bir-biriga uzviy bog‘langan va yakuniy model sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchi bosqichda - ma’lumotlar yig‘iladi va tayyorlanadi, bu jarayonda asosiy manbalar aniqlanib, tahlilga yaroqli formatga keltiriladi. Keyinchalik ma’lumotlar tozalanadi va normallashtiriladi, ya’ni yo‘qolgan, noto‘g‘ri yoki keraksiz qiymatlar chiqariladi va barcha ko‘rsatkichlar umumiy diapazonga keltiriladi.

Uchinchi bosqich - model tanlash bo‘lib, bu yerda bashorat vazifasiga mos algoritm (Regression, Random Forest, LSTM va boshqalar) aniqlanadi. So‘ngra tanlangan model o‘qitiladi va testdan o‘tkaziladi, bu bosqichda model real ma’lumotlarga asoslanib o‘rganadi va o‘zining aniqlik darajasi baholanadi.

Oxirgi bosqichda - natijalar tahlil qilinadi va bashoratlar shakllantiriladi. Bu jarayon davomida modeldan olingan prognozlar real ko‘rsatkichlar bilan solishtirilib, xatoliklar aniqlanadi.

Ma’lumot → Tozalash → Model tanlash → O‘qitish → Test → Bashorat

Bu bosqichlarning har biri sifatli va puxta bajarilsa, algoritm yuqori aniqlikdagi prognozlar taqdim eta oladi. Shu bois bu jarayonlar o‘zaro bog‘liq va izchil yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot doirasida sun’iy intellektga asoslangan algoritmlarning amaliy samaradorligini baholash maqsadida LSTM (Long Short-Term Memory) neyron tarmog‘i asosida birja aksiyalari narxini bashorat qilish bo‘yicha eksperiment o‘tkazildi. Ushbu model vaqtli qatorlardagi uzoq muddatli bog‘liqliklarni aniqlashda yuqori aniqlikka ega bo‘lib, aynan aksiyalar narxidagi o‘zgaruvchan tendensiyalarni tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Tajriba uchun haqiqiy aksiyalar bozoriga oid ma’lumotlar bazasi (bir necha oy yoki yil davomida to‘plangan vaqtli qatorlar) asosida model qurildi. Ma’lumotlar oldindan tozalandi, normallashtirildi va mashinaviy o‘rganishga mos holga keltirildi. Model o‘rgatilganidan so‘ng, test to‘plamida uning bashorat qilish qobiliyati baholandi.

3-jadval

LSTM modeli asosidagi bashorat natijalari

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
MSE (O‘rtacha kvadrat xatolik)	0.0031
R^2 (Dispersion koeffitsienti)	0.95
Bashorat qilingan qiymatlarning aniqligi	95%

Tadqiqot natijalari asosida LSTM (Long Short-Term Memory) modelining birja aksiyalari narxlarini bashorat qilishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Jadval 3 da ko‘rsatilganidek, modelning aniqlik darajasi va xatolik ko‘rsatkichlari quyidagi tarzda baholandi: - dispersion koeffitsienti (r^2) 0.95 ga teng bo‘lib, bu bashorat modelining real ma’lumotlarning 95 foizini tushuntira olishini anglatadi. bunday ko‘rsatkich, ayniqsa moliyaviy sohalarda - dinamik va murakkab ma’lumotlarga ega tizimlarda - juda yuqori deb baholanadi. bu modeldagi bashoratlar ishonchli ekanini tasdiqlaydi. Umuman olganda, LSTM algoritmi asosida ishlab chiqilgan bashorat modeli yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, u real ma’lumotlar asosida kelajakdagi tendensiyalarni ishonchli bashorat qilish imkonini beradi.

Xulosa.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida insoniyat oldida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, ulardan amaliy xulosa chiqarish va kelajak holatlarni bashorat qilish zarurati vujudga keldi. Tadqiqot davomida sun’iy intellektning eng istiqbolli yondashuvlaridan biri bo‘lgan LSTM algoritmi asosida vaqtli qatorlar (aksiyalar narxi) bo‘yicha bashoratlash modeli ishlab chiqildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MSE = 0.0031, R^2 = 0.95 va aniqlik darajasi 95% bo‘lgan model amaliy jihatdan yuqori samaradorlikka ega. Shuningdek, algoritmlarning turlari, ularning o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinib, har bir vazifaga mos algoritm tanlash muhimligi asoslab berildi. Ushbu maqola natijalari sun’iy intellekt yondashuvlarini iqtisodiyot, moliya, sog‘liqni saqlash va boshqa tarmoqlarga tatbiq qilishda amaliy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nishonov R.A. Sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy tahlil va prognozlashdagi o‘rni // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2021.

2. Shamsiyev Z.I. Axborot tizimlarida intellektuallashtirilgan modellar: nazariya va amaliyot // Informatika va nazariy tizimlar. – 2020. – №3.

3. Jo‘rayev T.A. Sun’iy intellekt algoritmlarining real sektor faoliyatida qo‘llanilishi // “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2022.

4. Komilov A.A., Xasanov D.K. Sanoat monitoringida sun’iy intellekt yondashuvlari // Ilmiy-texnik axborotlar jurnali. – 2023. – №1.

5. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. MIT Press, 2016.

6. Géron A. Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow. O‘Reilly Media, 2019.

7. Chollet F. Deep Learning with Python. Manning Publications, 2017.

8. Box G.E.P., Jenkins G.M. Time Series Analysis: Forecasting and Control. Wiley, 2008.

SAMARQAND VILOYATIDA INVESTITSION-QURILISH JARAYONLARI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

B.M.Abduvaliyev

Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti tayanch doktorant
Email:
bekzodabduvaliyev9191@gmail.com
Tel: *+998995789191*

Received: 16 May 2025
Revised: 26 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan investitsion-qurilish jarayonlarida ishtirok etayotgan asosiy subyektlar – investorlar, pudratchilar, loyiha tashkilotlari va davlat organlari faoliyati ko‘rsatkichlari chuqur tahlil qilingan. Tahlillar asosida ularning iqtisodiy samaradorlikka qo‘shayotgan hissasi, loyihalarning bajarilish samaradorligi, byudjet va xususiy investitsiyalarning taqsimoti, hamda monitoring va nazorat mexanizmlarining samarasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda statistik ma’lumotlar, grafik va jadval ko‘rinishidagi tahlillar asosida investitsion-qurilish ishtirokchilarining real holati va ularni takomillashtirish yo‘llari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar*: investitsion jarayon, qurilish sohasi, loyiha ishtirokchilari, pudratchi tashkilot, investitsion faoliyat, Samarqand viloyati, iqtisodiy samaradorlik.*

АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАСТНИКОВ ИНВЕСТИЦИОННО-СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. *В данной статье дается углубленный анализ показателей деятельности основных субъектов, участвующих в инвестиционно-строительных процессах в Самаркандской области - инвесторов, подрядчиков, проектных организаций и государственных органов. На основе анализа рассмотрен их вклад в экономическую эффективность, эффективность реализации проектов, распределение бюджетных и частных инвестиций, а также эффективность механизмов мониторинга и контроля. В ходе исследования на основе статистических данных, графического и табличного анализов выявлено реальное состояние участников инвестиционно-строительных процессов и пути их улучшения.*

Ключевые слова: *инвестиционный процесс, строительная отрасль, участники проекта, подрядная организация, инвестиционная деятельность, Самаркандская область, экономическая эффективность, государственно-инвестиционное.*

ANALYSIS OF THE MAIN INDICATORS OF THE ACTIVITY OF PARTICIPANTS OF INVESTMENT AND CONSTRUCTION PROCESSES IN SAMARKAND REGION

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the performance indicators of the main entities participating in the investment and construction processes in Samarkand region - investors, contractors, project organizations and state bodies. Based on the analysis, their contribution to economic efficiency, the efficiency of project implementation, the distribution of budget and private investments, as well as the effectiveness of monitoring and control mechanisms were considered. The study, based on statistical data, graphical and tabular analyses, identified the real state of investment and construction participants and ways to improve them.*

Keywords: *investment process, construction industry, project participants, contractor organization, investment activity, Samarkand region, economic efficiency.*

Kirish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida investitsion siyosatning roli tobora ortib bormoqda. Xususan, strategik tarmoqlar va infratuzilma sohalarida olib borilayotgan yirik loyihalar nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirmoqda, balki hududiy rivojlanishning muhim omiliga ham aylanmoqda. Ushbu jarayonda investitsion-qurilish faoliyatining izchil va samarali tashkil etilishi, bunda ishtirok etayotgan subyektlarning o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqand viloyati mamlakatning qadimiy, tarixiy va iqtisodiy jihatdan salohiyatli hududlaridan biri sifatida so‘nggi yillarda keng ko‘lamli investitsion loyihalarning amalga oshirilayotgan hududiga aylangan. Ushbu viloyatda xorijiy va mahalliy investitsiyalar hisobiga infratuzilma, sanoat, transport, turizm va ijtimoiy sohalarda yangi qurilishlar olib borilmoqda. Bunday loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bevosita qurilish jarayonlarining ishtirokchilariga – investorlar, buyurtmachilar, loyiha tashkilotlari, pudratchilar va davlat nazorat organlariga bog‘liqdir.

Shu bilan birga, investitsion-qurilish jarayonlarining murakkabligi, loyihalarning ko‘p bosqichliligi, ko‘p sonli manfaatdor tomonlarning ishtiroki bu faoliyatni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Ayniqsa, Samarqand viloyatidagi investitsion iqlimning real holatini, ishtirokchilarning soni, sifati, iqtisodiy samaradorlik darajasi va ularning o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Biroq mavjud tadqiqotlar ko‘proq respublika miqyosida umumiy investitsion jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, hududiy, ayniqsa Samarqand viloyati kontekstida ishtirokchilar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari chuqur yoritilmagan. Shu boisdan, ushbu ilmiy maqolada Samarqand viloyatida investitsion-qurilish jarayonlarida ishtirok etayotgan asosiy subyektlarning faoliyati, ularning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari, hamda o‘zaro hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari viloyatda ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Investitsion-qurilish jarayonlarini boshqarish, ularning ishtirokchilari faoliyatini baholash va tizimlashtirish masalalari so‘nggi yillarda O‘zbekiston ilmiy hamjamiyatining e’tibor markazida turibdi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda asosan investitsion muhitni yaxshilash, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, hamda qurilish sohasining institutsional bazasini mustahkamlash bilan bog‘liq muammolar tahlil etilgan.

Xususan, A.A.Karimov o‘zining “Investitsion jarayonlarni boshqarishning iqtisodiy asoslari” nomli monografiyasida investitsiya faoliyatining iqtisodiy mexanizmlari, loyiha boshqaruvi bosqichlari va ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning samaradorligi masalalariga e’tibor qaratadi. Muallif investitsion qarorlarning sifatli qabul qilinishi, samarali monitoring va baholash tizimlarining mavjudligi investitsiyalarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta’minlaydi, deb hisoblaydi.

S.X.Toshpulatova tomonidan tayyorlangan “Hududiy infratuzilmani rivojlantirishda investitsiya siyosati” nomli asarda mintaqaviy investitsion siyosatning asosiy tamoyillari, infratuzilma loyihalari uchun resurslar jalb qilish manbalari, shuningdek ularning hududiy taqsimoti chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda Samarqand viloyati misolida ayrim statistik ko‘rsatkichlar keltirilgan bo‘lsa-da, ishtirokchilar faoliyatining tizimli bahosi keltirilmagan.

M.Xolbo‘tayevning “Davlat-investor hamkorligi asoslari va amaliyoti” nomli ilmiy ishlanmasi investitsion loyihalarda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik modelining afzalliklari, huquqiy asoslari va xavf-xatarlarni taqsimlash mexanizmlar o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu yondashuv ayniqsa yirik infratuzilmaviy qurilishlarda dolzarb bo‘lib, Samarqand viloyatida bunday loyihalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi” va “Samarqand viloyati statistika boshqarmasi” tomonidan e’lon qilingan yillik tahliliy hisobotlar investitsion va qurilish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini, ularning o‘zgarish dinamikasini ko‘rsatuvchi muhim axborot manbai sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu ma’lumotlar real statistik raqamlar asosida ishtirokchilar soni, faoliyat yo‘nalishlari, bajarilgan ish hajmi va moliyaviy resurslar oqimi haqida muhim faktlarni ochib beradi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, respublikada investitsion jarayonlar bo‘yicha umumiy tahlillar mavjud bo‘lsa-da, hududiy kesimda ishtirokchilar faoliyatining tizimli va chuqur ilmiy tahlili yetarlicha yoritilmagan. Aynan mana shu bo‘shliqni to‘ldirish, ya’ni Samarqand viloyatida investitsion-qurilish jarayonlarining real ko‘rsatkichlari va ishtirokchilar faolligini empirik asosda tahlil qilish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda Samarqand viloyatida investitsion-qurilish jarayonlarida ishtirok etayotgan asosiy subyektlarning faoliyatini o‘rganish va ularning samaradorligini baholash maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, grafik va vizual taqdimot usullari, hamda ekspert baholash yondashuvlari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar.

Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan investitsion-qurilish faoliyati so‘nggi yillarda jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mintaqada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va energetika sohasini modernizatsiyalash kabi bir qator strategik yo‘nalishlarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda ishtirok etayotgan tashkilotlar – investorlar, loyiha tashkilotlari, pudratchi korxonalar va nazorat organlari faoliyatini tizimli tahlil qilish orqali ularning o‘zaro hamkorligi, faollik darajasi va iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

Quyidagi jadvalda 2019–2023 yillarda Samarqand viloyatida amalga oshirilgan investitsion loyihalar soni, ularda ishtirok etuvchi asosiy subyektlar soni va jalb qilingan investitsiya hajmi aks ettirilgan:

1-jadval

Samarqand viloyatida investitsion-qurilish loyihalari va ishtirokchilari dinamikasi (2019–2023 yillar)

Yil	Loyihalar soni	Pudratchilar soni	Loyiha tashkilotlari	Jalb qilingan investitsiya (mlrd so‘m)
2019	245	112	36	5 340
2020	286	120	38	6 105
2021	310	138	40	7 200
2022	328	145	42	8 490
2023	367	158	44	9 870

Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda Samarqand viloyatida amalga oshirilgan investitsion loyihalar soni 245 tadan 367 tagacha oshgan. Bu 5 yil davomida 50 foizdan ortiq o‘sishni tashkil etadi. Bunday o‘sish, bir tomondan, viloyatda amalga oshirilayotgan infratuzilma va sanoat siyosatining faollashganini, ikkinchi tomondan esa investorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarning yaxshilanganini anglatadi. Shuningdek, loyihalarning ko‘payishi hududda yangi ish o‘rinlari ochilishi, urbanizatsiyaning tezlashishi va iqtisodiy faol hududlar sonining ortishiga xizmat qilmoqda.

Pudratchilar soni 2019-yildagi 112 tadan 2023-yilda 158 taga yetib, 46 taga (qariyb 41%) o‘sgan. Bu esa qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar sonining barqaror o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Yangi pudratchi subyektlar nafaqat mahalliy, balki xorijiy kompaniyalarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Mazkur besh yillikda loyiha tashkilotlari soni 36 tadan 44 taga ko‘paygan. Bu esa 22 foizlik o‘sishni bildiradi. Loyiha tashkilotlarining son jihatdan o‘sishi hududda loyihalashtirish xizmatlariga bo‘lgan talabning oshayotganini, me’moriy-loyihaviy faoliyatda texnik hujjatlarning yuqori darajada tayyorlanishiga e’tibor kuchayayotganini anglatadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qurilishda ekologik va texnik standartlarga rioya qilish zarurati loyiha tashkilotlari oldiga yangi talablar qo‘ymoqda.

Jalb qilingan investitsiya hajmi 2019-yilda 5 340 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 9 870 mlrd. so‘mga yetgan. Bu 5 yil davomida 84,8% ga o‘sishni ko‘rsatadi. Mazkur o‘sish nafaqat loyihalar sonining ortgani bilan, balki ularning yirik va kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan ob’ektlarni o‘z ichiga olgani bilan ham izohlanadi. Bu esa Samarqand viloyatining investitsion jozibadorligi oshganini, islohotlar amaliy natija berayotganini ko‘rsatadi.

Tahlil qilinayotgan davrda loyihalar soni va pudratchilar sonining nisbiy ravishda muvozanatda o‘sib borayotgani sektorda mehnat taqsimoti va subyektlar o‘rtasidagi raqobatning barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, investitsiya hajmining loyihalar soniga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sayotgani shuni ko‘rsatadiki, oxirgi yillarda amalga oshirilgan loyihalar moliyaviy sig‘imi jihatidan yirikroq, kompleks va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni o‘z ichiga olmoqda.



1-rasm. Samarqand viloyatida investitsiyalar manbalar tarkibi, foizda

Investitsion jarayonlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moliyaviy resurslarning manbai, ularning barqarorligi va ajratilish mexanizmlariga bog‘liqdir. Samarqand viloyatida investitsion-loyihalarning moliyaviy bazasi bir nechta asosiy manbalar orqali shakllanmoqda. Quyidagi tahlilda har bir moliyalashtirish manbasining viloyat iqtisodiyotidagi ahamiyati, ustunliklari va cheklovlari atroflicha yoritiladi.

Davlat byudjeti mablag‘lari 32 foiz bilan Samarqand viloyatida investitsiyalarning eng katta qismini tashkil etmoqda. Bu mablag‘lar asosan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Jumladan:

– suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlari;

– yo‘l va transport infratuzilmasini yaxshilash.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy 28 foiz investitsiyalar viloyatda texnologik modernizatsiya va yuqori qo‘shilgan qiymatli loyihalarning amalga oshirilishida muhim o‘rin tutadi. Xorijiy investorlar asosan quyidagi sohalarga yo‘naltirilgan:

– sanoat va qayta ishlash klasterlari;

– turizm infratuzilmasi (mehmonxonalar, rekreatsion zonalar);

– energiya samarador texnologiyalar (masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalari).

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan mahalliy tadbirkorlar va kompaniyalar 25 foizi o‘z mablag‘lari hisobidan investitsion loyihalarda ishtirok etmoqda. Bu segment quyidagilarga yo‘naltiriladi:

– kichik va o‘rta biznes obyektlari (savdo markazlari, ishlab chiqarish korxonalari);

– xizmat ko‘rsatish sohasi (kafe, tibbiyot, ta’lim muassasalari);

– yer va binolarni rekonstruksiya qilish.

Ushbu manba quyidagilarga xizmat qilmoqda:

– loyihalarni qisqa va o‘rta muddatli moliyalashtirish;

– investitsion risklarni qoplash;

Xulosa.

Tadqiqot davomida Samarqand viloyatida investitsion-qurilish jarayonlarida ishtirok etuvchi subyektlarning faoliyati ko‘rsatkichlari chuqur tahlil qilindi. 2019–2023 yillar davomida investitsion loyihalar sonining barqaror o‘sib borayotgani, pudratchi va

loyiha tashkilotlari sonining ortishi, shuningdek, jalb etilgan investitsiyalar hajmining deyarli ikki baravarga oshgani viloyatda investitsion iqlimning tobora yaxshilanayotganini ko‘rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda investitsiyalar tarkibi nisbatan muvozanatli shakllangan bo‘lib, davlat byudjeti mablag‘lari 32% bilan yetakchilik qilmoqda. Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (28%), mahalliy tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari (25%) hamda bank kreditlari (15%) investitsion faoliyatda muhim o‘rin tutmoqda. Bunday diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish modeli loyihalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qurilish jarayonining murakkabligi, manfaatdor tomonlar sonining ko‘pligi va ularning o‘zaro aloqalari mazkur jarayonlarni puxta muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish, boshqaruvning institutsional asoslarini takomillashtirish va monitoring tizimini zamonaviylashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

7. Ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro integratsiyani mustahkamlash orqali loyihalarning bajarilish muddatlari va sifati ustidan nazoratni kuchaytirish;

8. Xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish, jumladan, soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar va infratuzilma bilan ta’minlash;

9. Mahalliy pudratchilar va loyiha tashkilotlarining salohiyatini oshirish, ularning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun malaka oshirish va texnologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish;

10. Hududiy investitsion dasturlar monitoringini kuchaytirish va real vaqtda ma’lumotlar bazasiga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish.

Ushbu ilmiy tahlil Samarqand viloyatida investitsion-qurilish jarayonlarini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ular yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan qarorlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov A.A. Investitsion jarayonlarni boshqarishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

2. Toshpulatova S.X. Hududiy infratuzilmani rivojlantirishda investitsiya siyosati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.

3. Xolbo‘tayev M. Davlat-investor hamkorligi asoslari va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. Qurilish sohasidagi investitsiyalar holati bo‘yicha tahliliy hisobot, 2023 yil.

5. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Viloyatda investitsion va qurilish faoliyati bo‘yicha yillik statistik to‘plamlar (2019–2023).

6. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsiyaviy dasturlar holati va istiqbollari, 2023.

TURISTIK XIZMATLAR VUJUDGA KELISHINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

M.I.Umirzoqova

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Umirzoqova Muxabbat Ismatjon qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti
Email: *mumirzoqova@mail.ru*
Tel:*+99899 335 76 79*

Received: 18 May 2025
Revised: 24 May 2025
Accepted: 14 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turistik xizmatlarning vujudga kelish jarayoni, uning tarixiy-iqtisodiy asoslari va shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Turistik faoliyatning dastlabki ko‘rinishlaridan boshlab, zamonaviy turizm industriyasigacha bo‘lgan rivojlanish yo‘li bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *turistik xizmatlar, rivojlanish bosqichlari, xizmatlar evolyutsiyasi, tarixiy shakllanish, turizm industriyasi, xizmatlar bozori, iqtisodiy omillar, global turizm.*

ОСОБЕННОСТИ СТАНОВЛЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *В статье анализируется процесс возникновения туристических услуг, их историко-экономические основы и этапы становления. Поэтапно рассматривается путь развития от зарождения туристической деятельности до современной индустрии туризма.*

Ключевые слова: *туристические услуги, этапы развития, эволюция услуг, историческое становление, туристическая индустрия, рынок услуг, экономические факторы, мировой туризм.*

FEATURES OF THE EMERGENCE OF TOURIST SERVICES AND STAGES OF DEVELOPMENT

Annotation: *This article analyzes the process of the emergence of tourist services, its historical and economic foundations and stages of formation. The development path from the initial manifestations of tourist activities to the modern tourism industry is considered step by step.*

Keywords: *tourist services, stages of development, evolution of services, historical formation, tourism industry, services market, economic factors, global tourism.*

Kirish:

Har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, albatta kishilarning sayohat qilishlari bilan bog‘liq voqealarga duch kelamiz. Har zamonda ham davlatlar o‘z yurtini butun dunyoga tanitish uchun sayyohlarga yetarli ehtiyojlar bilan ta’minlashgan. Hozirgi paytda turizmning juda ko‘p turlari va shakllari ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, davolanish turizmi, ta’lim turizmi, qarindosh-urug‘chilik turizmi, ishbilarmonlk turizmi, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar mavjud bo‘lib ular tabora o‘sish tendesiyasiga ega bo‘lib bormoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: 1992 yil 27 iyulda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni bilan “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasiga asos solindi. “O‘zbekturizm”ning asosiy vazifasi etib, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratish belgilandi. Bundan tashqari, milliy kompaniya faoliyati respublikadagi barcha turistik tashkilotlarning faoliyatlarini muvofiqlashtirishi, turizmning yo‘nalishlari rivojlanishini rag‘batlantirish, kadrlar masalasi bilan shug‘ullanish, moddiy-texnika bazani shakllantirishga va soha infratuzilmasi rivojiga investitsiya oqimini jalb qilishga qaratildi.

Sayyohlik biznesining barcha turlarini yuritish uchun qulay shart - sharoitlar yaratildi. Soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etdildi, kredit va moliyaviy yordamlar kuchaytirildi. Yangi mehmonxonalar qurish va xalqaro brendlarni jalb etish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish uchun subsidiyalar ajratildi. Shu tufayli pandemiya cheklovlariga qaramasdan, so‘ngi ikki yil davomida 800 ta infratuzilma loyihalari amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tarixan turizm kenja sohalardan bo‘lib, datlabki paytlarda uning ishtiroqchilari sanoqli kishilardan iborat bo‘lgan. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida turizm o‘ziga yuzlab xizmat turlarini mujassamlaydigan industriyaga va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning mustaxkam tayanchiga aylandi.

Tahlil va natijalar: Sayohat insoniyatga qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridan insonlarda tabiat mo‘jizalari, ilohiy bilgan narsa va xodisalarni ko‘rish hamda sig‘inish uchun sayohat qilishga qiziqishgan. O‘zga hududlarga tijorat, ziyorat, harbiy va boshqa maqsadlarda safar qilish holatlari faol kuzatilgan. Asrlar davomida sayohatchilar tomonidan yangi hududlarning o‘zlashtirilishi sayohat imkoniyatlarini yanada ochib berdi. Faqatgina sayohatning madaniylashgan faoliyati XIX asr boshlariga kelibgina paydo bo‘la boshladi.

Zamonaviy turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk tomonidan 1843-yilda birinchi maratoba temir yo‘l sayyohligi tashkil qilindi. Shundan so‘ng u o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhlari AQSHga jo‘natildi. Shuning uchun ham Tomas Kuk zamonaviy “Turizm ixtirochisi” sifatida nom qozongan.

Kishilarning sayohatga chiqishi va uning turizm industriyasigacha bo‘lgan evolyutsiyasi haqida so‘z yuritganda,

tarixiy jihatdan kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichlariga mos keluvchi davrlarni ajratish mumkin (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Zamonaviy turizm shakllanishining tarixiy-xronologik asoslari

Qadimgi davrda dastlabki, sayyohlar ziyoratchilar, davolanuvchilar, savdo-sotiq qiluvchilar bo‘lishgan bo‘lisa, o‘rta asrlarga kelib, bular safiga ilmni maqsad qilib olgan olimlar, dunyoni o‘rganmoqchi bo‘lgan kashfiyotchilar, allomalar va harbiy maqsadlardagi sayohatchilar qo‘shilishdi.

Yangi davrdan boshlab kemasozlikning rivojlanishi va transportdagi inqilobiy o‘zgarishlar sayyohlikning keng quloch yozishida muhim rol o‘ynadi. Yangi qit’alarni izlab topish, boylik orttirish, kashfiyotlar va ixtirolar bilan mujassamlashib ketgan sayohatlar soni keskin ortdi va hozirgi zamon madaniylashgan ko‘p xilli turizmning paydo bo‘lishiga hamda dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olishiga asos soldi.

Shu jihatdan turizm rivojlanishining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turizm madaniyati uzoq tarixiy rivojlanish mahsulidir. U ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy ta’sirlar natijasida bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanishni o‘z boshidan kechirgan. Turizm uzoq masofani bosib o‘tib, tarqoq sayohatdan ommaviylashgan, madaniylashgan turizm sohasiga aylandi (1.2.2-rasm).

1.2.2-rasm. Turizmning rivojlanish bosqichlari

Turizm xizmatlari rivojlanishining xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi evolyutsiyasidan kelib chiqib, dastlabki kurtaklarining vujudga kelishi va zamonaviy turizm xizmatlari rivojlanishining besh bosqichini farqlashimiz mumkin.

Birinchi bosqich ibtidoiy jamoa davrining oxiriga to‘g‘ri kelib, odamlarning o‘troq hayot kechirishga o‘tishi va mehnatning ayrim sohalar bo‘yicha taqsimlana boshlashi va tovar xo‘jaligining paydo bo‘lishi tufayli, savdo-sotiq ishlarining geografiyasi ham kengayib bordi. Savdo yo‘llarida karvonsaroylar qurillib unda sayyoh va savdogarlarning ot-ulovlariga yemish, o‘zlariga tunash uchun xujra va ovqatlantirish xizmatlarini ko‘rsatishgan.

Garchi turizm xizmatlari turzmning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsada, ilk davrlarda sayohatchilarga, ziyoratchilarga, savdogarlarga ko‘rsatilgan xizmatlar zamonaviy turizm xizmatlarining ibtidoiy turi edi.

Sayohatlardan hayotiy faoliyatning alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl – turizm ajralib chiqib, u o‘ziga xos xususiyatlari va xislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmning sayohatlardan ajralib turuvchi asosiy jihatlarini biz uning tashkiliy jihatdan yo‘lga qo‘yilganligida, shuningdek, maqsadli va ommaviy turistik sayyohlikning rivojlanib borayotganligida ko‘rishimiz mumkin.

Sayyohlikning mazkur bosqichi uzoq tarixiy davrni bosib o‘tib, toki o‘rta asrlargacha davom etdi. Ushbu davrda xizmatlar tarqoq va tartbga solinmagan eng oddiy qobiliyatidan, chuqurlashgan mohirlik darajasigacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Ikkinchi bosqich o‘rta asrlarga to‘g‘ri kelib, bu paytning xarakterli tomoni shundaki, o‘rta asrlarda ayniqsa, ilmni maqsad qilib olgan olimlar, dunyoni o‘rganmoqchi bo‘lgan kashfiyotchilar, allomalar va harbiy maqsadlardagi sayohatchilar miqdori keskin oshdi. Masalan, XVIII asrda sayyoh Mitropolit Xrisanf, savdogar Filipp Nazarov, harbiy Nikolay Muravyov, poruchik Dmitriy Gladishev va yer o‘lchovchi Ivan Muravinlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Marg‘ilon va Namangan shaharlari haqida ajoyib esdaliklarni yozib qoldirishgan.

Buyuk sayohatchi - olimlar, kashfiyotchilar katoriga XV - XVI asrlarda yashagan Fernan Magellan, Vasko da Gama yoki Amerika qit’asini kashf etgan Xristofor Kolumblarni ham kiritish mumkin.

Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo‘lgan.

Uchinchi bosqichda yangi davrdan boshlab, Yevropa davlatlariga yangi qit’alarni izlab topish, boylik orttirish, kashfiyotlar va ixtirolar bilan mujassamlashib ketgan sayohatlar soni keskin ortdi. O‘rta asrlardan elita turizm rivojlanib zodagonlar dunyo kezishga ishtiyoqmand bo‘lishgan bo‘lsalar, yangi davrga kelib ommaviy turizm rivojlanib, bunda kishilar asosan boshqa mamlakatlarga dam olish, ziyorat qilish, tarixiy-madaniy boyliklar bilan tanishish, salomatlikni tiklash kabi sayyohlik madaniyatining rivojlanishi boshladi. Bunda transport turlarining paydo bo‘lishi inqilobiy o‘zgarishlarga olib keldi. 1807-yilda Fulton paroxodining ixtirosi, 1814-yilda Stivens parovozi, Yevropada temir yo‘llar tarmog‘ining qurilishi sayohatning kengayishiga xizmat qildi. Bularning barchasi sayohat

xarajatlarini kamaytirish bilan birga, ko‘proq ishonchlilik va harakatlanish tezligini oshirdi. Amerika qita’sining kasf qilinishi va eski dunyodan Amerikaga ko‘chib kelganlarning ommaviy oqimi tufayli dengiz aloqalari jadal rivojlandi.

To‘rtinchi bosqichda hozirgi davr turizmiga asos solindi. Bu davrda turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida dastlabki sayohat byurolari tashkil etila boshladi. Sayohat byurolari kema kompaniyalari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. XX asrning boshlarida dengiz kruiz ko‘ngilochar sayohatlarini faol ravishda reklama qilgan va sotgan. Dastlab puli bor amaldorlar sayohatga chiqishgan bo‘lsa, keyinchalik asta-sekin sayohat o‘rta sinfga ham yetib bordi. Turizm XIX asrning oxiriga borib shakllangan bo‘lsada, faqat XX asrga kelib u jadal suratlarda rivojlandi.

Beshinchi bosqichda XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib turizm iqtisodiy faoliyat sifatida o‘rganila boshladi va ko‘plab mamlakatlarda qiziqish o‘yg‘otdi. Ayrim mamlakatlar turizmning ma’lum bir turiga ixtisoslashuvi yuz berdi. Shu bilan birga, bu paytga kelib turizmning kengayishi natijasida xalqaro kelishuvlarga zaruriyat sezildi.

Garchi birinchi jahon urushi, XX asrning 30-yillardagi iqtisodiy tushkunlik va ikkinchi jahon urushi turizmning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsada, to‘xtab qolgani yo‘q. Bu davrga kelib turiz‘m geografiyasi tabora kengayib bordi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin yuqori rivojlangan sanoat mamlakatlari aholisining aksariyati uchun turizm ehtiyojga aylanadi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida XX asrning 50 - 60-yillarida sayyohlik firmalarining faol rivojlanishi mehmonxonalar, motellar va turli xil ko‘ngilochar muassasalarning ommaviy qurilishi davri bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, aholining bo‘sh vaqtlari va daromadlarining ko‘payishi turizm bozorida talab va taklifda tub o‘zgarishlar yuz berdi, bu esa ommaviy konveyer turizmi ommaviy tabaqalashtirilgan turizmga aylanishiga asos bo‘ldi.

Xulos va takliflar. Shu o‘rinda aytish mumkinki, mustaqillik yillarida va so‘ngi yillarda turizm sohasi tomnidan O‘zbekistonning turizm salohiyatini jahon miqyosida targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Natijada milliy turizm bozori xalqaro turizm bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari ro‘y berdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, olib borilgan “ochiq eshiklar” siyosati tufayli salkam 100 mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga vizasiz kirish tizmi joriy etildi, yana 55 ta davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizm xizmatlari rivojlanishining xususiyatlarini milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar quyidagi shart-sharoitlarga muvofiq amalga oshirildi:

– mamlakatda qulay siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi;

– yangi turdagi xizmatlarni taqdim etmoqchi bo‘layotgan tadbirkorlar guruhining shakllanganligi;

– turistik xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy bazaning takomillashtirilayotganligi;

– aholi tarkibida turistik xizmatlarga bo‘lgan talabning o‘sayotganligi;

– respublikada xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqaning shakllanganligi va boshqalar.

Yurtimizda turizm xizmatlari rivojlanishining ilk namunalari paydo bo‘lishining uzoq o‘timishi va hilma-xilligi o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatadi. Shu bois, turizm xizmatlari vujudga kelishi va evolyutsion rivojlanishining quyidagi xususiyatlarini farqlash mumkin:

– sayyohlik xizmatlari vujudga kelishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining shakllanish davrlari bilan bog‘liqligi;

– turizm xizmatlarining milliy an’ana va qadriyatlar bilan uyg‘unlashib ketganligi;

– sifatli turistik xizmatlarning soha rivojlanishiga asos bo‘lishi;

– turistik xizmatlarning xalqaro aloqalarning kengayishiga xizmat qilishi;

– sayohat qilishga kishilarda har doim ham ehtiyojining mavjud bo‘lganligi;

– turizm xizmatlarining ommaviylashganligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil, 03/23/837/0241-son, 155 – modda. https: //constitution.uz/oz/clause/index#section7

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-iyuldagi O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/uz/docs/4428097?ONDATE=14.05.2024

3. Capone F. Tourist clusters, destinations and competitiveness: theoretical issues and empirical evidences. Routledge: Taylor & Francis Group, 2016, 203 p.;

4. Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA.;

5. Commons, J. and Page, S. (2001). Managing Seasonality in Peripheral Tourism Regions: The Case of Northland, New Zealand. In T. Baum and S. Lundtrop (eds.), *Seasonality in Tourism* (pp.153-172). Oxford: Pergamon, Elsevier.;

6. Y.P.Urunbaeva, Muzey turizmini rivojlantirish – aholi farovonligini oshirishning asosiy omili. SERVIS, ilmiy-amaliy j., Samarqand, 2024,2\1 son,107-111 b.

7. Y.P.Urunbaeva O‘zbekistonda yangi-muzey turizmini tashkil qilish va rivojlantirishning maqsadi va vazifalari. SERVIS, ilmiy-amaliy j., Samarqand, 2024,2\1 son,83-87 b.

8. Y.P.Urunbaeva Iqtisodiyot tarkibiga turizmning yangi turlarini kiritishning ahamiyati, Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal №3(17) 2024 Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11- uy, 2- bino 403- xona.

9. Y.P.Urunbaeva Aholining ma’naviy ma’rifiy qadriyatlari dunyosini boyitish, yosh avlodni vatanga muxabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda muzeylarning ahamiyati, “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnal №2(16)2024 Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11- uy, 2- bino 403- xona.

TURAR-JOY KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINI BAHOLASH XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI TAHLILI

A.S.Suyunov, B.M.Abduraimov, B.A.Suyunov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
A.S.Suyunov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Inson resurslarini boshqarish kafedrasi professori.
Email: *suyunov6272@gmail.com*

B.M.Abduraimov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti.
Email: *bunetabduraimov@gmail.com*

B.A.Suyunov
Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti doktoranti.
Email: *suyunovbekzod@mail.ru*

Received: 16 May 2025
Revised: 26 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Maqolada Samarqand shahridagi “Baholash ekspert” MCHJ korxonasi misolida ko‘chmas mulkni baholash tizimining amaldagi holati tadqiq etilgan. Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonaning asosiy ko‘rsatgichlari tahlili va baholash xizmati samaradorligini aniqlash uchun yangicha yondashuv taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘chmas mulk bozori, mulkni baholash tizimi, mulkning bozor qiymati, mulkni boshqarish, mulk obyekti, mulkini tasarruf etish, mulkchilik munosabatlari.*

АНАЛИЗ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ПО ОЦЕНКЕ ЖИЛОЙ НЕДВИЖИМОСТИ

Аннотация: *В статье исследуется текущее состояние системы оценки недвижимости на примере предприятия ООО «Баҳолаш эксперт» в г.Самарканде. Предложен новый подход к анализу основных показателей предприятия, действующего в условиях современных рыночных отношений, и определению эффективности службы оценки.*

Ключевые слова: *рынок недвижимости, система оценки имущества, рыночная стоимость имущества, управление имуществом, объект собственности, распоряжение имуществом, отношения собственности.*

ANALYSIS OF METHODS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF RESIDENTIAL REAL ESTATE APPRAISAL SERVICES

Annotation: *The article examines the current state of the real estate appraisal system using the example of the enterprise OOO "Bakholash Expert" in Samarkand. A new approach to the analysis of the main indicators of the enterprise operating in the conditions of modern market relations and determining the effectiveness of the appraisal service is proposed.*

Keywords: *real estate market, property appraisal system, market value of property, property management, property object, disposal of property, property relations.*

Kirish. Mamlakatimizdagi urbanizatsiya jarayonlari va turar-joy fondini rivojlantirishdagi jadal o‘zgarishlar turar-joy ko‘chmas mulk bozorida baholash va baholash xizmatlari bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi - uy-joy ko‘chmas mulk bozorida baholash xizmatlarining samaradorligini ta’minlashdan iborat. Bu maqsadga uy-joy ko‘chmas mulk obyektlarini baholash usullarini takomillashtirish orqali erishiladi. Albatta, Respublikamizda baholash xizmatlari bozorini rivojlantirish, amalga oshirilayotgan baholash ishlarining natijalari va xolisligi uchun javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqdi. Bugungi kunda baholash xizmatlari bozorida ikki yuzdan ortiq baholash tashkilotlari faoliyat ko‘rsatib, ularda malaka sertifikatiga ega bo‘lgan mingga yaqin baholovchilar ishlamoqda.[ПП №3764 , 01.01.2018].

Adabiyotlar sharhi. Ko‘chmas mulkni baholash tizimini takomillashtirishga doir tadqiqotlar qator iqtisodchi olmilar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan bu borada iqtisodchi olimlardan V.Shexovsov, O.Mastixina, S.Pestenko tadqiqotlarini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Ular tadqiqot jarayonida ko‘chmas mulk qiymatini shakllantirishda bozor omillari bilan birga nobozor omillarning o‘rni ham keng miqyosida tahlil qilingan [3]. A.V. Tatarova tadqiqotlarida ko‘chmas mulk bozori faoliyatining nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq asosiy iqtisodiy va boshqaruv muammolari tizimlashtirilgan[5]. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan R.X.Alimov, B.B.Berkinov, A.N.Kravchenko, B.Y.Xodiyevlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotla-ri orqali ko‘chmas mulk bozori haqidagi assosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati izohlab beradilar. Ko‘chmas mulk qiymatini baholashning tamoyillari, andazalari hamda huquqiy jihatlariga asoslangan holda ko‘chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash usullari hamda algoritm-lari tavsiya etiladi[6]. Bundan tashqari sohada **Normativ-huquqiy hujjatlar** bo‘lib qo‘yidagilar hisoblanadi[2]:

• O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan “Baholash faoliyati to‘g‘risida” gi 811-I-sonli Qonuni;

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi “Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ 843-sonli qarori;

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 yanvardagi “Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3764-son qarori;

• Baholovchi tashkilotlar va baholovchilar to‘g‘risidagi nizom (O‘zR Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi 843-son qaroriga ilova);

• O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 04.06.2020 yildagi "O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standartini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 3239-sonli buyrug‘i.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va statistik tahlil kabi qator tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Baholash faoliyati tushunchasiga to‘xtalib utamiz. O‘RQ-811-son Qonunning 3-moddasiga muvofiq, baholash faoliyati

deganda baholovchi tashkilotning baholash obyekti qiymatini aniqlashga qaratilgan faoliyati tushuniladi. O‘RQ-811-son Qonunning oldingi tahririda amaldagi qonunchilikdan farqli ravishda jismoniy shaxslar ham baholovchi tashkilot sifatida baholash faoliyati bilan mustaqil shug‘ullanishlari mumkinligi nazarda tutilgan edi. Biroq, 2008 yil 1 iyuldan boshlab baholash faoliyati faqat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda. O‘RQ-811-moddasiga muvofiq baholovchi tashkilot baholash faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Baholovchi tashkilot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi mumkin, aksiyadorlik jamiyati bundan mustasno. Baholovchi tashkilot rahbari baholovchi bo‘lishi kerak.

Baholovchilar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- oliy iqtisodiy, yuridik yoki texnik ma’lumotga ega bo‘lish, oxirgi besh yilda baholovchi yoki baholovchining yordamchisi lavozimida kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lish;

- yoxud oliy ma’lumotga ega bo‘lish, mol-mulkni baholash bo‘yicha baholovchi yoki baholovchining yordamchisi lavozimida oxirgi besh yildan kamida ikki yil ish stajiga ega bo‘lish;

- baholovchilarning professional birlashmalari takliflarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan dastur bo‘yicha baholovchilarni tayyorlash markazlarida maxsus o‘quvdan o‘tganligi to‘g‘risidagi sertifikatning mavjudligi, o‘qishni tamomlagan paytdan boshlab hujjatlarni topshirish paytigacha bir yildan ortiq vaqt o‘tmagan bo‘lishi shart;

- baholovchining malaka sertifikati 5 yil muddatga beriladi va uning amal qilish muddati besh yil muddatga uzaytirilishi mumkin.

Baholovchilarning javobgarligi. O‘RQ-811-moddasining 19-bandiga muvofiq, baholovchi tashkilot shartnomani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida buyurtmachiga zarar yetkazganligi uchun uning oldida javobgar bo‘ladi. Buyurtmachiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda baholovchi tashkilot tomonidan qoplanishi lozim. Bundan tashqari, baholovchi baholash obyektini sifatsiz yoki lozim darajada baholamaslik, maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilish yoki baholovchi tashkilotga zarar yetkazgan boshqa harakatlar natijasida yetkazilgan zarar uchun baholovchi tashkilot oldida javobgar bo‘ladi.

Biz Samarqand shahrida faoliyat olib boruvchi baholalovchi karxonalardan 6 tasining 2021-2023 yillardagi ishlab chikarish va moliyaviy xolatini taxlillari olib bordik. Tadqiqot ishida shahrida baholash xizmatlari bilan shug‘ullanayotgan korxonalar tomonidan bajarilgan ishlar va kursatilgan xizmatlar qiymati, ularning dinamikasi qator yillar buyicha aniqlanadi va tahlil qilindi. Taxlil qilinayotgan korxona tomonidan bajarilgan xizmatlar xajmini taxlil qilish uchun dastlabki ma’lumotlarni qo‘yidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘rsatilgan xizmatlar xajmining o‘zgarish dinamikasi % -larda hisoblangan. Taqqoslash bazasi 100% deb olingan, ya’ni 2021 yil taqqoslash bazasi qilib olingan.

1-jadval

2022-2024 yillarda Samarqand shahar “Baholash ekspert” baholash korxonasi tamonidan bajarilgan ishlar va xizmatlar hajmini o‘zgarish dinamikasi

№	Ko‘rsatkichlar	Jami	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024yilda 2022yilga nisbatan uzgarish sur’ati.%
	“Baholash ekspert” MCHJ bo‘yicha:					
1	Ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati, ming so‘m.	3 914 569,2	719 134,9	1 210 134,3	1.985 300	76,0
2	Xodimlarni o‘rtacha soni, kishi	10	9	10	11	22,2
3	1-ta xodimni mehnat unimdorligi, ming so‘m.	3 91 456,9	79 903,8	121 013,4	180 481,8	44.2
4	Daromad	1 236 871.8	253 261,0	455 200,4	528 410, 4	47,9
5	Balans foyda	174 321,7	112952,8	132245,1	199123,8	57
6	Rentabellik darajasi,%	11,9	15,0	10.9	10,0	66,6

“Baholash ekspert” baxolash korxonasi tomonidan 2022-2024 yillarda ko‘rsatilgan xizmatlarning hajmi 3 914 569,2 ming so‘mni tashkil qilgan. Jumladan, 2022 yilda 719 134,9 ming so‘mlik, 2023 yilda esa 1 210 134,3 ming so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilgan. 2023 yilda tashkilot 1 985 300 ming so‘mlik xizmatlar bajargan, bu oldingi 2021 yilga nisbatan 76 % ni tashkil qildi.

“Baholash ekspert” baxolash korxonasi xodimlarining ro‘yxat b o‘yicha o‘rtacha soni 2022-2024 yilda 10 kishini tashkil qildi. Jumladan, 2022 yilda 9 kishini, 2023 yilda 10 kishini, 2024 yilda 11 kishini tashkil qilgan. Xodimlar sonini o‘zgarish dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, bu ko‘rsatkich 2024 yilning oxirida 2 kishiga ko‘paygan va 2021 yilga nisbatan 22,2 % tashkil etadi.

“Baholash ekspert” baxolash korxonasida 1ta xodimning mexnat unumdorligi yil davomida o‘sib borgan. Mehnat unumdorligi o‘sishini buyurtmalar soni ko‘payishi va xodimlarning malakasini oshishi bilan izohlash mumkin. 2022-2024 yillarda baxolash korxonasida bitta xodimga to‘gri keladigan mehnat unumdorligi o‘rtacha 3 91 456,9 ming so‘mni tashkil qiladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatining oxirgi natijasi foyda va daromaddan iboratdir. Foyda va daromadni tahlil qilish uchun dastlabki ma’lumotlar xisobotni 2-F shaklidan (moliyaviy natijalar xisoboti) olinadi.Baxolash korxonasi 2022-2024 yillarni o‘rtacha 174 321,7 ming so‘mlik

balans foyda va 1 236 871.8 ming so‘mlik daromad bilan yakunlangan.

Tashkilotlar va korxonalar rentabellik darajasi balans foyda va sotilgan xizmatlar (ishlar, maxsulot)dan olingan tushum nisbati bilan aniqlanadi. Jadvalda o‘tkazilgan xisoblashlardan ko‘rinib turibdiki, 2022-2024 yillarda “Baholash ekspert” baxolash korxonasining rentabellik darajasi o‘rtacha 11,9 % ni tashkil qilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlash uchun barcha korxonalarning rentabellik darajasi 15-16 % oralig‘ida bo‘lishi kerak. Demak, tahlil qilinayotgan korxona rentabelligi past korxonalar qatoriga kiradi.

Ko‘chmas mulk obektini baholash samaradorligini qo‘yidagi usul bilan olib borishni taklif etamiz. Demak, agar baholanayotgan turar-joy (kvartira)ning jamg‘arilgan eskirish darajasi va tannarxi ma’lum bo‘lsa, mulkni baholashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi hisoblash usuli qo‘llaniladi. Eskirishni hisoblash uchun mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan samarali yosh usulining takomillashtirilgan varianti qo‘llaniladi.

Tannarxning pasayishi hisobiga erishilgan iqtisodiy samara quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Э = 0{,}6Н\ (1 - \frac{Ту.м}{Ттр})$$

bu yerda: **0,6 Н** - baholash ishlari tannarxi tarkibidagi shartli-doimiy xarajatlar qismi, so‘m;

Ту.м ва Ттр - kvartira qiymatini takomillashtirilgan va an’anaviy usullar bo‘yicha baholash davomiyligi, kun.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash an’anaviy va takomillashtirilgan usullar bo‘yicha baholashni amalga oshirish muddatini aniqlashni talab etadi (2-jadvalga qarang).

Ushbu usul bilan baholash samaradorligini aniqlashda binoning eskirish darajasini an’anaviy yo‘l bilan hamda biz taklif etayotgan eskirish koeffitsentlarini topish yo‘li(qisqa muddatli komponentlarni eskirishini topishni inobatga olib) bilan olib boriladi. An’anaviy usul bilan baholashga qancha vaqt ketishi xamda takomillashgan yo‘l bilan topishga qancha vaqt ketishi aniqlanib vaqtni qisqarishi baholash tannarxini qancha summaga kamayishini topishga yordam beradi. Bu esa baholash xizmati samaradorligidir.

2-jadval

Baholash muddatini aniqlash jadvali

№	Yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlar nomi	An’anaviy usul bo‘yicha baholash davomiyligi, (kun)	Takomillashtirilgan metodika bo‘yicha bahoni aniqlash davomiyligi, (kun)
1	Takror ishlab chiqarish yoki almashtirishning to‘liq qiymatini hisoblash	2	1,8
2	To‘plangan eskirishni an’anaviy usullar va iqtisodiy yosh usuli bilan aniqlash	2	1,7
Jami:		**4**	**3,5**

Misol tariqasida, taklif etilgan formula bo‘yicha iqtisodiy samaradorlik hisobini topish amalga oshirildi:

$$E = 0{,}6 \text{ x } 75\,060 \left(1 - \frac{3{,}5}{4}\right) = 5{,}4 \text{ mln. so′m.}$$

Xulosa. Samarqand shahrida baholash xizmatlari bilan shug‘ullanayotgan korxona tomonidan bajarilgan ishlar va kursatilgan xizmatlar qiymati, ularning dinamikasi tahlilidan ko‘rinib turibdiki, korxona rentabelligi past korxonalar katoriga kiradi. Baholash samaradorligini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqqan misolimizda iqtisodiy samara 5,4 million so‘mni tashkil etdi. Shu usul turar-joy ko‘chmas mulkini baholash bo‘yicha faoliyat olib borayotgan baholovchi ekspertlarni ish samaradorligini aniqlashni yo‘llari yoki usullaridan bittasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 yanvardagi “Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3764-son qarori;

3. Шеховсов В., Мастихина О., Пестенко С. Оценка риночной стоимости недвижимости приносяшей доход. Монография. 2017. ЛАП ЛАМБЕРТ Асадемис Публишинг. 116 стр.

4. Телман Л.Н. Оценка недвижимости. Учеб. Пособие для вузов/ Под ред проф. В.А.Швандара. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005.-303 стр.

5. Татарова А.В. Оценка недвижимости и управление собственностю: Учебное пособие. Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2003. 70 с.

6. Alimov R.X., Berkinov B.B., Kravchenko A.N., Xodiyev B.Y. Ko‘chmas mulkni baholash. Toshkent: "Fan".2005 y. 231 bet.

7. Berkinov B.B., Ergashxodjayeva Sh.D., Nedelkina N.I. Mulk huquqlari almashishi jarayonida transformatsiya va tranzaksiya xarajatlari. –T., “Fan va texnologiyalar” 2015, 132 bet.

BANK XIZMATLARIDA AN'ANAVIY XIZMATDAN RAQAMLI XIZMATGA O'TISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI

Z.D.Niyozov, B.M.Bektemirov

Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti, Samarqand, O'zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Niyozov Zuxur Davronovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti Bank ishi kafedrasi dotsenti.
Email: *zuxurniyozov@gmail.com*

Bektemirov Bunyodjon Mamasaliyevich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti Bank ishi va auditi yo'nalishi talabasi.
Email:
bunyodjonbektemirov@gmail.com

Received: 22 May 2025
Revised: 29 May 2025
Accepted: 21 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *O'zbekiston bank sektorida an'anaviy xizmatlardan raqamli xizmatlarga o'tish iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy inklyuzivlik va banklarning rentabelligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola raqamli transformatsiyaning iqtisodiy jihatlarini tahlil qiladi, O'zbekiston tijorat banklarining 2020-2024-yillardagi faoliyat ko'rsatkichlariga asoslangan kengaytirilgan statistik ma'lumotlarni keltiradi va jarayonning afzalliklari hamda muammolarini muhokama qiladi. Tadqiqot raqamlashtirishning operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijozlar qamrovini kengaytirish va iqtisodiy shaffoflikni oshiradi.*

Kalit so'zlar*: raqamli transformatsiya, moliyaviy inklyuzivlik, bank xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, O'zbekiston bank tizimi, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik, FinTech.*

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕХОДА ОТ ТРАДИЦИОННЫХ К ЦИФРОВЫМ УСЛУГАМ В БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. *Переход от традиционных к цифровым услугам в банковском секторе Узбекистана играет важную роль в повышении экономической эффективности, финансовой доступности и прибыльности банков. В данной статье анализируются экономические аспекты цифровой трансформации, приводятся расширенные статистические данные, основанные на результатах деятельности коммерческих банков Узбекистана за 2020–2024 годы, а также рассматриваются преимущества и проблемы этого процесса. Исследование показывает важность цифровизации для снижения операционных расходов, расширения охвата клиентов и повышения экономической прозрачности.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, финансовая доступность, банковские услуги, экономическая эффективность, банковская система Узбекистана, кибербезопасность, цифровая грамотность, финтех.*

IMPORTANT ASPECTS OF THE TRANSITION FROM TRADITIONAL TO DIGITAL SERVICES IN THE BANKING SYSTEM

Annotation. *The transition from traditional to digital services in the banking sector of Uzbekistan plays an important role in improving the economic efficiency, financial inclusion and profitability of banks. This article analyzes the economic aspects of digital transformation, provides extended statistical data based on the performance of commercial banks of Uzbekistan for 2020-2024, and discusses the benefits and challenges of this process. The study shows the importance of digitalization in reducing operating costs, expanding customer reach and increasing economic transparency.*

Keywords: *digital transformation, financial inclusion, banking services, economic efficiency, banking system of Uzbekistan, cybersecurity, digital literacy, fintech.*

Kirish. Global raqamlashtirish tendensiyalari va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi islohotlar bank xizmatlarida an’anaviy tizimlardan raqamli platformalarga o‘tishni tezlashdirdi. Raqamli xizmatlar operatsion xarajatlarni qisqartirish, mijozlar uchun qulayliklar yaratish va moliyaviy xizmatlarning geografik qamrovini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 15,7 million kishiga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan 2,7 barobar o‘sishni anglatadi. Ushbu maqola O‘zbekiston banklari tajribasi asosida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qiladi, kengaytirilgan statistik ma’lumotlarni keltiradi va kelajakdagi istiqbollarni muhokama qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli bank xizmatlari bo‘yicha global tadqiqotlar raqamlashtirishning bank sektoridagi o‘zgarishlarini ta’kidlaydi. McKinsey & Company hisobotida raqamli transformatsiya banklarning operatsion xarajatlarini 20-30% ga kamaytirishi va mijozlar qoniqishini oshirishi qayd etiladi. Deloitte tadqiqotida raqamli xizmatlarning moliyaviy inklyuzivlikka ta’siri tahlil qilinib, qishloq hududlarida mobil bank ilovalari orqali xizmatlar qamrovi kengaygani ko‘rsatilgan. O‘zbekiston kontekstida, Xolmatov va boshqalar raqamli platformalar orqali mikroqarzlar o‘sishi kichik va o‘rta biznes faolligini rag‘batlantirishini ta’kidlaydi. Rahmonov kiberxavfsizlik masalalariga e’tibor qaratib, O‘zbekiston banklarida axborot xavfsizligini ta’minlash uchun investitsiyalar zarurligini qayd etadi. Xorijiy tajribada, Xitoyning Alipay va WeChat Pay platformalari moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirishda namuna sifatida qaraladi. Yevropa Ittifoqidagi FinTech kompaniyalari, masalan, Revolut va N26, raqamli xizmatlarning mijozlar bazasini kengaytirish va tranzaksiyalar shaffofligini oshirishdagi muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekiston banklari, masalan, “Kapitalbank” va “Anor Bank”, sun’iy intellekt asosidagi kredit scoring tizimlarini joriy qilib, kredit risklarini boshqarishni yaxshiladi. Ernst & Young hisobotida raqamli xizmatlarning nofoiz daromadlarni oshirishdagi roli ta’kidlanib, banklarning foizga bog‘liq daromadlardan diversifikatsiya qilish imkoniyati ko‘rsatiladi.

Metodologiya. Tadqiqot O‘zbekistonning yetakchi tijorat banklari, xususan “Kapitalbank”, “Anor Bank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Ipoteka-bank”, “Xalq banki” va “Agrobank”ning 2020-2024-yillardagi faoliyat ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga asoslanadi. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistikasi, banklarning yillik hisobotlari, “HUMO” va “Uzcard” to‘lov tizimlari ma’lumotlari hamda mahalliy FinTech tadqiqotlaridan olingan. Statistik tahlil uchun quyidagi ko‘rsatkichlar ishlatildi: operatsion xarajatlar dinamikasi, onlayn tranzaksiyalar hajmi, mijozlar bazasi o‘sishi, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), muammoli kreditlar ulushi va kiberxavfsizlik xarajatlari. Raqamli xizmatlarning ta’sirini baholashda deskriptiv statistika, solishtirma tahlil va trend tahlili usullari qo‘llanildi. Ma’lumotlarning aniqligi va takrorlanmasligi uchun birlamchi manbalar, xususan, Markaziy bankning 2020-2024-yillardagi hisobotlari, “Kapitalbank” va “Anor Bank”ning yillik moliyaviy hisobotlari (2023, 2024) va

“HUMO PAY” tizimining tranzaksiya ma’lumotlari asos qilib olindi. Tadqiqotda qo‘shimcha ravishda “TBC Bank” va “Ravnaq-bank”ning raqamli xizmatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ma’lumotlarning kengaytirilgan hajmi uchun 2020-2024-yillardagi mikroqarzlar hajmi, nofoiz daromadlar ulushi va kiberhujumlar statistikasi qo‘shimcha ravishda o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya bosqichlarini quyidagicha ko‘rish mumkin. Dastlabki bosqichda (2010–2015 yillar) banklar faqat internet-bankingni yo‘lga qo‘ydi. Keyingi bosqichda (2016–2020 yillar) mobil ilovalar, SMS-banking, QR-to‘lovlar rivojlandi. 2021-yildan esa “fintech” kompaniyalar bilan integratsiyalashgan, sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar — masalan, kredit reytingini avtomatik hisoblovchi tizimlar, onlayn identifikatsiya, aqlli sarmoya portallari yo‘lga qo‘yildi. Bu esa O‘zbekiston bank xizmatlarini Yevroosiyo makonidagi ilg‘or tizimlar bilan yaqinlashtirdi.

Quyida raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining o‘sish dinamikasini ko‘rsatuvchi grafik taqdim etilgan. Grafik 2015-2024-yillarda O‘zbekistonda bank xizmatlaridan foydalanish darajasini aks ettirib, ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va banklarning yillik hisobotlaridan olingan. Grafikda foydalanuvchilar soni million kishi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu raqamlashtirishning iqtisodiyotdagi ta’sirini vizual tarzda taqdim etadi. 1-rasm



1-rasm. O‘zbekistonda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni

Grafikni tahlil qilganda, 2015-yilda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 4 million kishi atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 15,7 million kishiga yetgan. Bu 2,7 barobarlik o‘sish raqamli xizmatlarning mijozlar orasidagi qabul qilinishini va moliyaviy inklyuzivlikni oshishini tasdiqlaydi. O‘sish sur’ati 2020-yildan keyin sezilarli darajada tezlashdi, bu pandemiya davrida onlayn xizmatlarga talabning oshishiga bog‘liq bo‘lib, 2021-2024-yillarda yillik o‘sish o‘rtacha 10-12% ni tashkil etdi. Grafik shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya O‘zbekiston aholisi uchun moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirib, ayniqsa qishloq hududlarida bu tendensiya sezilarli.

1-jadvalda esa O‘zbekiston banklarida raqamli xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari 2020-2024-yillarda keltirilgan. Jadvalda onlayn xizmat

foydalanuvchilari soni, onlayn tranzaksiyalar hajmi, kontaktsiz to‘lovlar hajmi, operatsion xarajatlarning kamayishi, muammoli kreditlar ulushi, aktivlar rentabelligi (ROA) va kiberxavfsizlik xarajatlari ko‘rsatilgan. Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va banklarning rasmiy hisobotlaridan olingan bo‘lib, 2020-2024-yillarga oid kengaytirilgan statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

1-jadval.

O‘zbekiston banklarida raqamli xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2020-2024 y.y.)

Yillar	Onlayn xizmat foydalanuvchilari (mln kishi)	Onlayn tranzaksiyalar hajmi (trln so‘m)	Kontaktsiz to‘lovlar hajmi (trln so‘m)	Operatsion xarajatlarning kamayishi (%)	Muammoli kreditlar ulushi (%)	ROA (o‘rtacha, %)	Kiberxavfsizlik xarajatlari (mlrd so‘m)
2020	5,8	10,2	7,1	3,5	6,8	1,4	4,2
2021	8,3	14,7	9,8	5,2	6,2	1,5	5,6
2022	11,6	19,8	13,4	8,7	5,4	1,7	7,3
2023	14,2	24,5	16,7	12,0	4,8	1,9	9,4
2024	15,7	27,4	19,6	14,5	4,2	2,1	11,8

Jadvalni tahlil qilganda, onlayn xizmat foydalanuvchilari soni 2020-yilda 5,8 milliondan 2024-yilda 15,7 millionga yetib, yillik o‘sish o‘rtacha 28% ni tashkil etgan. Onlayn tranzaksiyalar hajmi 10,2 trillion so‘mdan 27,4 trillion so‘mga, kontaktsiz to‘lovlar esa 7,1 trillion so‘mdan 19,6 trillion so‘mga o‘sdi, bu iqtisodiyotdagi pul aylanishining jadallashtirilishini ko‘rsatadi. Operatsion xarajatlarning kamayishi 2020-yilda 3,5% dan 2024-yilda 14,5% ga yetdi, bu raqamli avtomatlashtirishning samaradorligini tasdiqlaydi. Muammoli kreditlar ulushi 6,8% dan 4,2% ga kamayib, kredit risklarining boshqarilishi yaxshilangan. ROA ko‘rsatkichi 1,4% dan 2,1% ga o‘sdi, bu banklarning rentabelligini oshirdi. Biroq, kiberxavfsizlik xarajatlari 4,2 milliard so‘mdan 11,8 milliard so‘mga oshdi, bu kiberxavfsizlik xavfining o‘sishiga ishora qiladi. Jadval ma’lumotlari raqamli transformatsiyaning ijobiy ta’sirini ko‘rsatish bilan birga, xavfsizlik masalalariga qo‘shimcha e’tibor kerakligini ta’kidlaydi.

Xulosa. O‘zbekiston bank sektorida an’anaviy xizmatlardan raqamli xizmatlarga o‘tish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlash va banklarning rentabelligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Statistik ma’lumotlar 2020-2024-yillarda onlayn xizmatlardan foydalanuvchilar soni 2,7 barobar o‘sib, 15,7 million kishiga, onlayn tranzaksiyalar hajmi 27,4 trillion so‘mga, kontaktsiz to‘lovlar esa 19,6 trillion so‘mga yetganini ko‘rsatadi. Raqamli xizmatlar operatsion xarajatlarni 14,5% ga kamaytirdi, muammoli kreditlar ulushini 4,2% gacha qisqartirdi va iqtisodiy shaffoflikni oshirdi. Kichik va o‘rta biznes uchun mikroqarzlarning 13,3 trillion so‘mga yetishi iqtisodiy faollikni

rag‘batlantirdi. Biroq, kiberxavfsizlik risklari (2024-yilda kiberhujumlar 22% ga oshdi) va raqamli savodxonlikning pastligi jarayonni sekinlashtirmoqda. Muallif sifatida quyidagi tavsiyalar beriladi: birinchidan, banklar kiberxavfsizlik tizimlariga investitsiyalarni oshirib, ma’lumotlarni shifrlash va ikki bosqichli autentifikatsiya tizimlarini joriy qilishi kerak; ikkinchidan, davlat banklari IT infratuzilmasini modernizatsiya qilib, “Kapitalbank” va “Anor Bank” kabi xususiy banklar tajribasidan foydalanishi lozim; uchinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish uchun ta’lim dasturlari va ommaviy axborot kampaniyalari tashkil etilishi zarur; to‘rtinchidan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili asosidagi tizimlarni kengroq joriy qilish kredit risklarini yanada kamaytiradi. Ushbu choralar O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimi islohotlari strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga va iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklari faoliyatining yillik hisoboti. Toshkent.
3. Ernst & Young. (2023). The Future of Non-Interest Income in Banking.
4. McKinsey & Company. (2023). Global Banking Annual Review 2023.
5. Deloitte. (2024). Digital Banking Trends in Emerging Markets.
6. Xolmatov, A., & Rahimov, S. (2022). O‘zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlarning moliyaviy inklyuzivlikka ta’siri. Iqtisodiyot va moliya jurnali, 5(2), 45-60.
7. To‘xtayev, R. (2024). O‘zbekiston banklarida sun’iy intellekt asosidagi kredit scoring tizimlari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 6(1), 78-92.
8. Rahmonov, D. (2024). O‘zbekiston banklarida kiberxavfsizlik muammolari. FinTech tadqiqotlari, 3(1), 12-25.
9. Karimova A. M. Yangi O‘zbekistonda bank xizmatlari moliya bozorini tahlil qilish va o‘zgartirish // Ilmiy tadqiqotlar arxivi. - 2022. - V. 2. - 1-son.
10. Niyozov Z. D. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston xizmatlarini ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy etish //“Fan va ta’limda zamonaviy yoshlarning innovatsion g‘oyalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 2019. – S. 376-378.
11. A.M.Karimova, F.M.Tursunov. Tizhoratbanklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya / – Samarqand: “STAR-SEL” MCHJ Nashriyoti 2023 – 98 garov.

MINTAQAVIY TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING QO‘LLANILISHI VA ULARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

R.N.Rahmonov

Vebster universiteti, Toshkent, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Rahmonov Rasul Ne’matovich
Toshkent shahrida Vebster universiteti ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazi ijrochi direktori
Email: rasulbek.rahmonov@gmail.com
Tel: +99890 979 44 84

Received: 22 May 2025
Revised: 29 May 2025
Accepted: 21 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunining maqsadi, mintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining qo‘llanilishi, uning turlari va ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Shuningdek, mintaqalarda 2030 yilgacha transport sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar tahlili, transport infratuzilmasini jahon standartlariga muvofiq ravishda rivojlantirish tizimlari, avtomobil yo‘llarini modernizatsiya qilish asosida uni yuqori tezlikda harakatlanishi mumkin bo‘lgan pulli avtomagistralga aylantirish imkoniyatlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat-xususiy sheriklik, transport infratuzilmasi, transport tizimi, pulli avtomobil yo‘llari, modernizatsiya qilish, avtomagistral, xususiy tadbirkorlik, ustuvor yo‘nalishlar loyiha, hudud.*

ПРИМЕНЕНИЕ МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ИХ ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: *В данной статье исследуются цели Закона Республики Узбекистан «О государственно-частном партнёрстве», применение механизмов ГЧП в развитии региональной транспортной инфраструктуры, их виды и приоритетные направления. Также проведён анализ проектов в транспортной сфере, которые будут реализованы на основе государственно-частного партнёрства до 2030 года в регионах, раскрываются возможности развития транспортной инфраструктуры в соответствии с международными стандартами, а также превращения автомобильных дорог в скоростные платные автомагистрали на основе их модернизации.*

Ключевые слова: *государственно-частное партнёрство, транспортная инфраструктура, транспортная система, платные автомобильные дороги, модернизация, автомагистраль, частное предпринимательство, приоритетные направления, проект, регион.*

APPLICATION OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP MECHANISMS IN THE DEVELOPMENT OF REGIONAL TRANSPORT INFRASTRUCTURE AND THEIR PRIORITY DIRECTIONS

Annotation: *This article explores the objectives of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Public-Private Partnership,” the application of PPP mechanisms in the development of regional transport infrastructure, their types, and priority directions. The article also analyzes transport sector projects to be implemented based on PPP principles in the regions by 2030, discusses systems for developing transport infrastructure in line with international standards, and outlines the potential for transforming roads into high-speed toll highways through modernization.*

Keywords: *public-private partnership, transport infrastructure, transport system, toll roads, modernization, highway, private entrepreneurship, priority directions, project, region.*

Mintaqalarda transport infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari muhim ahamiyatga ega, chunki ular davlat budjetiga tushadigan moliyaviy yuklamani kamaytirish imkonini beradi. Ko‘p hollarda mintaqaviy budjetlar transport loyihalarini mustaqil ravishda moliyalashtirish uchun yetarli mablag‘ga ega emas. DXSh xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali budjet mablag‘larini iqtisod qilish imkonini yaratadi. Xususiy sektor transport infratuzilmasini qurish va boshqarish jarayonlarida innovatsion texnologiyalar va usullarni qo‘llash, shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga intiladi. DXSh loyihalari davlat xaridlariga asoslangan loyihalarga nisbatan tezroq amalga oshiriladi, bundan tashqari, loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar davlat va xususiy sektor o‘rtasida taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda davlat va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida iqtisodiy faoliyatning turli yo‘nalishlarida munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishni nazarda tutadi. Mazkur qonunning asosiy maqsadi – davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan konsessiyalar sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan iboratdir[2.]. DXSh – amaldagi qonunlar doirasida davlatning uzoq muddatli strategik vazifalari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa ahamiyatga molik ob’ektlarni qurish yoki shu asnodagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish uchun xususiy sektor bilan amalga oshiradigan o‘zaro manfaatli aloqalar majmuidir[1.].

Mintaqalarda transport infratuzilmasini rivojlantirishda quyidagi DXSh mexanizmlari qo‘llaniladi.

Konsessiya – bu davlat (yoki mahalliy hokimiyat) tomonidan xususiy kompaniyaga muayyan muddatga davlat mulki bo‘lgan resurslardan foydalanish, xizmatlar ko‘rsatish yoki infratuzilma ob’ektlarini qurish va boshqarish huquqini beradigan shartnomaviy munosabatdir[8.]. Konsessiya shartnomasi odatda muayyan muddatga (masalan, 20 yildan 50 yilgacha) tuziladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda konsessiya mexanizmlarini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Transport sohasida bir qator istiqbolli konsessiya loyihalari rejalashtirilgan yoki amalga oshirilish bosqichida. Jumladan, Toshkent-Samarqand pullik avtomobil yo‘lini qurish loyihasi shular jumlasidandir. Bu O‘zbekistondagi birinchi yirik konsessiya loyihalaridan biri bo‘lib, mazkur loyiha mamlakatning ikki yirik shahri o‘rtasidagi transport aloqalarini sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan. Shuningdek, Toshkent xalqaro aeroportini boshqarish va rivojlantirish uchun xususiy investorlarni jalb qilish rejalashtirilgan. Temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari ham istiqbolli loyihalar sirasiga kiradi. Konsessiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mustahkam qonuniy asosni yaratish, shaffof tender jarayonini ta’minlash, puxta shartnomalar tuzish va mustaqil nazorat mexanizmlarini tashkil etish zarur.

Operatorlik shartnomalari – bu davlat (yoki mahalliy hokimiyat) tomonidan xususiy kompaniyaga davlat mulki bo‘lgan mavjud infratuzilma ob’ektini boshqarish, unga texnik xizmat ko‘rsatish va undan tijorat maqsadida

foydalanish huquqini beradigan shartnomaviy munosabatdir[9.].

Transport sohasida operatorlik shartnomasining turlariga avtobus marshrutlarini, temir yo‘l liniyalarini, aeroportlarni va pullik avtomo-bil yo‘llarini boshqarish kiradi. Operatorlik shartnomasining afzallik-laridan biri shundaki, u xususiy operatorlarga ob’ektni boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z zimmalariga olish imkonini beradi. Xususiy operatorlar ko‘pincha yangi texnologiya va boshqaruv usullarini joriy etish orqali ob’ektning samaradorligini va xizmatlar sifatini oshiradilar.

Operatorlik shartnomalarida o‘ziga xos kamchiliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Jumladan, foydani taqsimlashdagi kelishmovchiliklar, davlat tomonidan operatorning faoliyatini yetarlicha nazorat qila olmaslik holatlari, shartnoma shartlarining murakkabligi va uzoq muddatliligi sababli ularni tuzish va boshqarish jarayonidagi qiyinchiliklar hamda shartnomalarni tuzishda korrupsiya xavfining mavjudligi va boshqalar.

Operatorlik shartnomalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish zarur: mustahkam qonuniy asosning mavjudligi, shaffof tanlov jarayonini ta’minlash, puxta shartnoma tuzish, mustaqil nazoratni tashkil etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish. Keyingi yillarda O‘zbekistonda operatorlik shartnomalarini qo‘llash tajribasi tobora kengayib bormoqda. Xususan, Toshkent xalqaro aeroportini boshqarish uchun xususiy operatorni jalb qilish rejalashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, operatorlik shartnomalari davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik shakli bo‘lib, u mavjud infratuzilma ob’ektlarini samarali boshqarish, xizmatlar sifatini oshirish va budjet mablag‘larini iqtisod qilish imkonini beradi.

Qurish-Boshqarish-Topshirish (QBT) loyihalari (inglizcha Build-Operate-Transfer - BOT) [10.]. - davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning bir shakli bo‘lib, unda xususiy kompaniya (konsessioner) davlat tomonidan belgilangan texnik talablarga muvofiq infratuzilma ob’ektini barpo etadi, undan shartnomada belgilangan muddat davomida tijorat maqsadlarida foydalanadi (boshqaradi) va shartnoma muddati tugagandan so‘ng ob’ektni davlat tasarrufiga topshiradi.

QBT loyihasining asosiy xususiyati shundaki, xususiy kompaniya loyihani o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtiradi. Ob’ektdan olingan daromaddan foydalanadi (masalan, yo‘l haqi, to‘lovlar, xizmatlar uchun to‘lovlar). Shuningdek, loyiha bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar davlat va xususiy kompaniya o‘rtasida taqsimlanadi. QBT loyihalari turli sohalarda, xususan, transport sohasida pullik avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, aeroportlar, ko‘priklar va tunnellar qurishda keng qo‘llanilishi mumkin. Keyingi yillarda O‘zbekistonda QBT loyihalarini qo‘llash tajribasi tobora kengayib bormoqda. Xususan, Toshkent-Samarqand pullik avtomobil yo‘li QBT loyihasi sifatida amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun mustahkam qonuniy asosni yaratish, shaffof tanlov jarayonini ta’minlash, puxta shartnomalar tuzish va mustaqil nazoratni tashkil etish zarur.

Qurish-Egalik Qilish-Boshqarish-Topshirish (QEBT) loyihasi (inglizcha: Build-Own-Operate-Transfer - BOOT) [11.]. - bu

davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi shartnomaviy kelishuv bo‘lib, unda xususiy tashkilot davlatning texnik talablariga binoan loyihani moliyalashtiradi, quradi, unga egalik qiladi, boshqaradi va shartnoma muddati tugagandan keyin davlatga topshiradi. QEBT loyihalarining afzalliklari sifatida xususiy investorlarning infratuzilma ob’ektlarini qurishga o‘z mablag‘larini kiritishi, yangi texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish orqali samaradorlik va xizmatlar sifatini oshirishi qayd etiladi. Shuningdek, QEBT loyihalari davlat xaridlariga nisbatan tezroq amalga oshirilishi mumkin. Loyiha bilan bog‘liq xatarlar davlat va xususiy sektor o‘rtasida taqsimlanadi.

QEBT loyihalarida o‘ziga xos kamchiliklar ham mavjud. Xususan, shartnomalarning murakkabligi va uzoq muddatliligi sababli ularni tuzish va boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Loyiha bilan bog‘liq xavflarni to‘g‘ri baholash va taqsimlashdagi muammolar, kompaniya xizmatlar yoki resurslar narxlarini sun’iy ravishda oshirishi mumkinligi, davlatning xususiy kompaniya faoliyatini yetarlicha nazorat qila olmasligi, shartnomalarni tuzishda korrupsiya xavfi mavjudligi shular jumlasidandir. Shu sababli ham loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, loyihalarni tartibga soluvchi aniq va shaffof qonunchilik bazasi yaratilgan bo‘lishi shart.

Konsessionerni tanlash jarayonida shaffoflikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Davlat va konsessioner o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq belgilovchi puxta shartnoma ishlab chiqilishi lozim. Loyiha bilan bog‘liq xatarlarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida adolatli taqsimlash, shuningdek, konsessioner faoliyatini mustaqil nazorat qilish va jamoatchilik nazoratini ta’minlash zarur. O‘zbekistonda (QEBT) loyihalarini qo‘llash tajribasi endigina shakllanib bormoqda. Mamlakat ushbu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay investitsion muhit yaratishga intilmoqda.

Mintaqalarda DXSh asosida transport infratuzilmasini rivojlan-tirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- yo‘llarni qurish va ta’mirlash yo‘nalishi. Mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash loyihalari DXSh mexanizmlarini qo‘llash uchun muhim ob’ekt hisoblanadi. Pul to‘lanadigan avtomobil yo‘llarini qurish ham DXSh uchun istiqbolli yo‘nalishdir.
- avtovokzallar va avtostansiyalarni modernizatsiya qilish yo‘nalishi. Avtovokzal va avtostansiyalarni zamonaviy talabga javob beradigan qilib qayta qurish va jihozlash DXSh vositasida amalga oshirilishi mumkin.
- transport-logistika markazlarini qurish yo‘nalishi. Mintaqalarda transport-logistika markazlarini qurish yuk oqimlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi.
- aeroportlarni modernizatsiya qilish yo‘nalishi. Mintaqaviy aeroportlarni modernizatsiya qilish va ularning texnik imkoniyatlarini kengaytirish DXSh mexanizmlari orqali amalga oshirilishi mumkin.
- jamoat transportini rivojlantirish yo‘nalishi. Shaharlarda jamoat transporti tizimlarini (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar) rivojlantirish va modernizatsiya qilish DXSh asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mintaqalarda transport infratuzilmasini rivojlantirishda DXSh mexanizmlaridan foydalanish budjet mablag‘larini iqtisod qilish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish, xatarlarni taqsimlash va yuqori sifatli xizmatlarni ta’minlash imkonini yaratadi[7.5 B.]. Mintaqaviy avtomobil yo‘llarini qurish va ta’mirlash, avtovokzallar va avtostansiyalarni modernizatsiya qilish, transport-logistika markazlarini qurish, aeroportlarni modernizatsiya qilish va jamoat transportini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar DXSh mexanizmlarini qo‘llash uchun ustuvor hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024–2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida joylarda zarur bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu qarorga muvofiq 2024–2026 yillarda ustuvor davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, shuningdek, 2024–2030 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi ishlab chiqildi[4.].

Keyingi yillarda O‘zbekiston transport infratuzilmasini takomil-lashtirish orqali mintaqalar o‘rtasida transport aloqalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Xususan, 2030 yilgacha milliy transport tizimini rivojlantirish rejalari doirasida hukumat mamlakat bo‘ylab transport aktivlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Mazkur chora-tadbirlar mahalliy aholining ijtimoiy farovonligini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

Barcha davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tezkor, xavfsiz va barcha fasllarda ham yo‘lovchi va yuk tashishni mamlakat hududlari orasida ham, mamlakat tashqarisida ham ta’minlashga qodir bo‘lgan avtomobil va temir yo‘llarining samarali tizimi bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi 340 km uzunlikdagi Toshkent-Andijon pullik avtomobil yo‘lini qurish bo‘yicha dastlabki texnik-iqtisodiy asos Jahon banki konsultantlari tomonidan ishlab chiqilganini ma’lum qildi[12.]. Toshkent-Andijon avtomobil yo‘lini modernizatsiya qilish asosida uni yuqori tezlikda harakatlanish mumkin bo‘lgan avtomagistralga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi viloyatlarini O‘zbekiston Respublikasining boshqa mintaqalari bilan bog‘laydigan yagona avtomobil yo‘li mavjudligi sababli, ushbu loyiha strategik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Yangi avtomagistral mamlakatning aholisi eng zich joylashgan qismining boshqa mintaqalar bilan transport aloqasini yaxshilashga xizmat qiladi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yangi avtomagistral foydalanishga topshirilgandan so‘ng Toshkentdan Andijongacha bo‘lgan safar vaqti taxminan 2 soatga qisqaradi va yo‘l harakati jarayoni jahon standartlariga javob beradigan infratuzilma tufayli ancha qulay va xavfsiz bo‘ladi.

Loyiha qo‘shni davlatlar bilan tranzit aloqalarni va savdo logistikasini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Xususan, avtomagistral O‘zbekiston Respublikasini Qirg‘iziston va Xitoy bilan bog‘lab, yangi

Toshkent-O‘sh-Irkeshtam xalqaro tranzit koridorining tarkibiy qismiga aylanishi kutilmoqda[13.]. Mazkur yo‘lak mamlakat hududi bo‘ylab o‘tadigan eng muhim savdo yo‘llaridan biri hisoblanadi. Avtomagistralning qurilishi O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi yuklarning tranzit vaqtini 8-10 kundan 2 kungacha qisqartiradi, shuningdek, mahalliy mahsulot va xom ashyo ishlab chiqaruvchilari uchun yangi xalqaro bozorlarga chiqishni osonlashtiradi[12.]. Shuningdek, ushbu avtomobil yo‘lini qurilishi minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishga, jumladan, transport yo‘lagi bo‘ylab yashovchi aholi uchun yangi ish joylarining ochilishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati ushbu loyihani DXSh asosida amalga oshirishni rejalashtirgan, ya’ni avtomobil yo‘lini qurish va undan foydalanish huquqi tegishli xalqaro tajribaga ega bo‘lgan xususiy investorga topshiriladi. Ushbu DXSh loyihasi O‘zbekiston Respublikasi transport sohasidagi birinchi loyihadir. Kelajakda bu kabi loyiha butun mamlakat bo‘ylab shu kabi loyihalarni amalga oshirish uchun istiqbolli model bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda yangi avtomagistralda transport vositalari uchun yo‘l haqi narxi aniq belgilanmagan. Toshkent-Andijon pullik avtomobil yo‘lidan foydalanish narxi texnik-iqtisodiy tadqiqotlar natijalari va uni qurish bo‘yicha o‘tkaziladigan xalqaro tender asosida aniqlanadi. Yangi avtomagistral to‘liq foydalanishga topshirilgandan so‘ng undan foydalanish uchun tariflar e’lon qilinadi. Ta’kidlash joizki, xalqaro tanlov o‘tkazilib, yo‘lni qurish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar uchun hukumatga eng yaxshi narxni taklif qilgan investor bilan tegishli shartnoma imzolangandan keyingina tariflar aniqlanadi. Biroq, Jahon banki vakillarining ekspert baholashlariga ko‘ra, avtomagistraldan yengil avtomashinalarning foydalanish narxi 5–7 AQSh dollari ekvivalentida, yuk mashinalari va avtobuslar uchun esa 15 AQSh dollari ekvivalentida bo‘lishi taxmin qilinmoqda[12.].

Toshkent-Andijon pullik avtomobil yo‘lining qurilishi 6 yil 3 oy davom etishi rejalashtirilgan. Loyiha doirasida umumiy uzunligi 33 km bo‘lgan 10 ta tunnel quriladi, ulardan eng uzuni 6,8 km ni tashkil etadi. Pullik yo‘l qurilishi natijasida Toshkent va Andijon shaharlari o‘rtasidagi safar vaqti 2 soat 14 daqiqaga qisqarishi kutilmoqda. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, yo‘lning 64% qismi yangidan quriladi, 36% qismi esa rekonstruksiya qilinadi. Umumiy uzunligi 314 km bo‘lgan yo‘l 6 ta harakatlanish yo‘lagidan iborat bo‘ladi[13.]. Avtomobil yo‘li sement-beton qoplamasiga ega bo‘ladi.

Loyiha quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda Toshkent-Angren (78 km) yo‘li, ikkinchi bosqichda Angren-Pop (93 km) yo‘li, uchinchi bosqichda esa Pop-Andijon (143 km) qismlari quriladi. Shuningdek, ushbu loyihada yo‘ldan foydalanuvchilarning vaqtini qisqartirish maqsadida Qamchiq dovoni orqali tunnel qurish ham ko‘zda tutilgan. 2024 yil may oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumida Toshkent-Andijon yo‘nalishidagi pulli avtomobil yo‘lini qurish qiymati 4,65 milliard AQSh dollariga baholandi[12.]. Toshkent-Andijon pulli avtomobil yo‘lini qurish ishlari 2026 yilda boshlanishi va 2032 yilga borib yakunlanishi mumkin. Mazkur yo‘l qurilishi bo‘yicha davlat-xususiy sherikchilik kelishuvi 49 yil muddatga amal qiladi.

2024-2030 yillarda transport sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq "Toshkent-Samarqand" pullik avtomobil yo‘lini qurish loyihasini amalga oshirish ham rejalashtirilgan. Loyihaga ko‘ra, 2024 yilning dekabr oyida shartnoma imzolanishi, qurilish ishlarining boshlanishi va 2028 yilning oxirigacha qurilish ishlarini yakunlash, shundan so‘ng ob’ektni boshqaruvini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy operatorga o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Ushbu loyihaning dastlabki qiymati 2,2 milliard AQSh dollarini tashkil etadi[13.]. Ushbu mablag‘lar hisobidan Avstriyaning ILF Consulting Engineers Austria GmbH kompaniyasi tomonidan loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatni ishlab chiqish maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 1,5 million yevro miqdoridagi mablag‘ ajratilgan.

Loyiha doirasida xalqaro standartlarga javob beradigan 305 km uzunlikdagi avtomobil yo‘li 6 tasmali "Avtomagistral" texnik talablari asosida quriladi. Shuningdek, barcha tutashma va inshootlar ustidan yangi ko‘prik va yo‘l o‘tkazgichlar qurish hamda intellektual transport tizimini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Toshkent-Samarqand pulli avtomobil yo‘li qurilishi natijasida yo‘l qoplamasining yuk ko‘tarish qobiliyati xalqaro standartlar bo‘yicha 13 tonna hisobida amalga oshiriladi hamda avtomobil yo‘lining xizmat qilish muddati 25 yil etib belgilangan.

Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari hududidan o‘tuvchi yangi Samarqand-Buxoro tezyurar pulli avtomobil yo‘li O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil avgust oyidagi qaroriga muvofiq qurilishi rejalashtirilgan[4.]. Loyihaning qiymati 1 milliard AQSh dollariga baholangan bo‘lib, uni 2027–2030 yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatining "Taxtaqoracha" dovonida pulli tunnel qurilishi rejalashtirilgan. Loyiha konsepsiyasini 2025 yil avgust oyiga qadar tasdiqlash, 2026 yil fevral oyiga qadar xususiy sherikni tanlash va 2026 yil dekabr oyiga qadar DXSh shartnomasini imzolash vazifasi belgilangan. Loyihaning qiymati 100 million AQSh dollariga baholanmoqda va uning uzunligi 4,4 km ni tashkil etadi. Shu bilan birga, 2025 yil oxiriga qadar Chirchiq shahrida 60 million AQSh dollari qiymatidagi asfaltbeton qoplamali yangi halqa yo‘lini qurish ham rejalashtirilgan[4.].

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mintaqalarida transport infratuzilmasini jahon standartlariga muvofiq ravishda rivojlantirish tizimida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Ko‘plab davlatlarda davlat-xususiy sheriklik aloqalari kengayib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham bu jarayon faol kuzatilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bir qator rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xususiy sektor va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos shakllari vujudga kelgan. O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan davlatning roli sezilarli darajada kamayib bordi va asosiy ob’ektlarni boshqarish vazifalari xususiy sektorga bosqichma-bosqich o‘tkazila boshlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 maydagi O‘RQ-537-son «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonuni. https://lex.uz/docs/4329270.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2024 yil 30 avgustdagi PQ-308-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 avgustdagi PQ-308-son qarorining1va 2-ilovalar.

4. Варнавский В.Г., Клименко А.В., Королев В.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика: учебное пособие. – М.: ГУ-ВШЕ, 2010.

5. Варнавский В.Г. Партнерство государства и частного сектора: формы, проекты, риски. М.: Наука, 2005. - 315 с. 3.

6. Djumaniyazov U.I. «Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy-uslubiy masalalari». // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. 2017 yil № 3, may-iyun, 9-b.

7. https://www.bbc.com/uzbek/central-asia-68543507

8. https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/29/toll-road/

9. World Bank Human Capital and Economic Growth: A Global Perspective. World Bank Reports, Washington D.C. 2019.

10. OECD Investing in Human Capital: A Pathway to Economic Growth and Social Inclusion. OECD Publications, Paris. 2020.

11. UNDP Human Capital and Sustainable Development: Global Trends and National Strategies. United Nations Development Programme, New York. 2021.

12. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. “The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan” https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25

13. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova “Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan” ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

Internet ma’lumotlari:

14. https://doi.org/10.14529/em180102

15. https://siat.stat.uz/reports-filed/3505/table-data

16. https://www.lex.uz

17. https://www.un.org/ru/

18. https://www.who.int/

19. https://ec.europa.eu/eurostat

20. https://www.pewresearch.org/

21. https://www.springer.com/

22. https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?contextual=default&locations=UZ&view=chart

POTENTIAL AND POSSIBILITIES OF UTILISATION OF CULTURAL HERITAGE FOR TOURISM DEVELOPMENT IN SAMARKAND

M.Khidirov, U.Shodieva

Silk Road International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand, Uzbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Mukhsin Khidirov
PhD, acting professor, "Silk Road" International University of Turism and Cultural Heritage, Department of History and Cultural Heritage;
Email: *mukhsinkhidirov@gmail.com*

Umida Shodieva
Master student, "Silk Road" International University of Turism and Cultural Heritage
Email: *umidashodieva@gmail.com*

Received: 14 May 2025
Revised: 27 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Abstract*: This study explores the potential and possibilities of utilising cultural heritage as a catalyst for tourism development in the historic city of Samarkand. As a UNESCO World Heritage Site, Samarkand possesses a wealth of tangible and intangible heritage that holds significant value not only for national identity but also for economic growth through sustainable tourism. The research adopts a mixed-methods approach involving field observations, interviews with key stakeholders, and surveys of tourists to analyse the current state of tourism infrastructure, stakeholder collaboration, and heritage site management.* ***Keywords****: Cultural heritage, Samarkand, heritage tourism, sustainable tourism, UNESCO, tourism development, SWOT analysis, stakeholder engagement, intangible heritage.*

SAMARQANDDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MADANIY MOROSDAN FOYDALANISH POTENTSIALLARI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot tarixiy Samarqand shahrida turizmni rivojlantirish katalizatori sifatida madaniy merosdan foydalanish imkoniyatlari va imkoniyatlarini o'rganadi. YuNESKOning Butunjahon merosi ob'ekti sifatida Samarqand nafaqat milliy o'ziga xoslik, balki barqaror turizm orqali iqtisodiy o'sish uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan boy moddiy va nomoddiy merosga ega. Tadqiqot turizm infratuzilmasi, manfaatdor tomonlar hamkorligi va meros ob'ektini boshqarishning hozirgi holatini tahlil qilish uchun dala kuzatuvlari, asosiy manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar va sayyohlar so'rovlarini o'z ichiga olgan aralash usullarni qo'llaydi.*

Kalit so'zlar: *Madaniy meros, Samarqand, madaniy meros turizmi, barqaror turizm, Ipak yo'li, YUNESKO, turizmni rivojlantirish, SWOT tahlili, manfaatdor tomonlar ishtiroki, nomoddiy meros.*

ПОТЕНЦИАЛ И ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В САМАРКАНДЕ

Аннотация: *В этом исследовании изучаются потенциал и возможности использования культурного наследия в качестве катализатора развития туризма в историческом городе Самарканде. Как объект Всемирного наследия ЮНЕСКО, Самарканд обладает богатством материального и нематериального наследия, которое имеет значительную ценность не только для национальной идентичности, но и для экономического роста посредством устойчивого туризма. В исследовании используется смешанный подход, включающий полевые наблюдения, интервью с ключевыми заинтересованными сторонами и опросы туристов для анализа текущего состояния туристической инфраструктуры, сотрудничества заинтересованных сторон и управления объектами наследия.*

Ключевые слова: *Культурное наследие, Самарканд, туризм по культурному наследию, устойчивый туризм, Шелковый путь, ЮНЕСКО, развитие туризма, SWOT-анализ, взаимодействие с заинтересованными сторонами, нематериальное наследие*

INTRODUCTION

Samarkand, one of the oldest cities in the world and a UNESCO World Heritage Site, holds a unique position at the crossroads of ancient civilizations. With a history spanning more than two millennia, the city is renowned for its rich architectural legacy, diverse cultural expressions, and deep-rooted traditions that reflect the grandeur of the Silk Road era. As global interest in cultural and heritage tourism grows, Samarkand emerges as a prominent destination with vast untapped potential. The preservation and promotion of its cultural heritage not only contribute to national identity and historical continuity but also serve as powerful drivers for tourism development and economic growth. Despite the city's historical significance and existing tourism infrastructure, there remains a noticeable gap between its cultural wealth and its optimal use for sustainable tourism. Issues such as inadequate promotion, limited local involvement, infrastructural challenges, and a lack of integrated heritage management strategies continue to hinder progress. This study seeks to explore the full spectrum of possibilities for utilizing Samarkand's cultural heritage in ways that stimulate tourism while preserving the integrity of its historical assets. By examining international best practices, evaluating existing policies, and engaging with local stakeholders, the research aims to provide a comprehensive analysis of the current landscape and propose actionable strategies for enhancing heritage-based tourism in Samarkand. In doing so, it highlights the need for a balanced approach that fosters economic development, community participation, and cultural preservation, ultimately contributing to the broader goals of sustainable urban development and cultural diplomacy.

LITERATURE REVIEW

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida Internet of Things (IoT) texnologiyalarining jadal rivojlanishi

bilan bir qatorda, ularning axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. IoT qurilmalarining ko‘pchiligi past hisoblash quvvatiga, cheklangan xotiraga va yengil arxitekturaga ega bo‘lib, bu ularni an’anaviy xavfsizlik yondashuvlariga nisbatan zaif qiladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan tahliliy yondashuvlar orqali eng samarali xavfsizlik strategiyalari – yengil kriptografiya, blockchain asosidagi autentifikatsiya, sun’iy intellekt yordamida tahdid aniqlash, edge computing va Zero Trust modeli sifatida aniqlangan. Har bir yondashuvning samaradorligi, joriy etilish darajasi, muammolari va texnik ko‘rsatkichlari (ishlash tezligi, resurs talabchanligi) amaliy loyihalar asosida baholandi.

O‘zbekistonda ayniqsa yengil kriptografiya keng qo‘llanilayotgan texnologiya bo‘lib, u yuqori tezlik va past resurs talabchanligi tufayli IoT qurilmalari uchun optimal yechimdir. Blockchain esa xavfsizlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib tursa-da, yuridik-huquqiy cheklovlar tufayli keng joriy etilishi sekin bormoqda. AI asosidagi yondashuvlar tahdidlarni aniqlashda ustunlikka ega bo‘lsa-da, mutaxassislar tanqisligi va resurslar yetishmovchiligi muammo bo‘lmoqda. Edge computing va Zero Trust yondashuvlari esa infratuzilma va autentifikatsiya murakkabligi sababli keng joriy etilmagan.

Tajribaviy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, har bir yondashuv o‘zining kontekstual afzallik va cheklovlariga ega bo‘lib, IoT xavfsizligini ta’minlashda ko‘p darajali va kombinatsiyalangan yondashuv zarurligini taqozo etadi. O‘zbekiston uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida resurslarga moslashtirilgan yengil kriptografik tizimlar, zamonaviy huquqiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirilgan blockchain autentifikatsiyasi va lokal bazali edge tizimlar asosida xavfsizlikni kuchaytirish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashton, K. (2009). That ‘Internet of Things’ Thing. RFID Journal.
2. Gubbi, J., Buyya, R., Marusic, S., & Palaniswami, M. (2013). Internet of Things (IoT): A vision, architectural elements, and future directions. Future Generation Computer Systems.
3. Roman, R., Zhou, J., & Lopez, J. (2013). On the features and challenges of security and privacy in distributed Internet of Things. Computer Networks.
4. Sicari, S., Rizzardi, A., Grieco, L. A., & Coen-Porisini, A. (2015). Security, privacy and trust in Internet of Things: The road ahead. Computer Networks.
5. Granjal, J., Monteiro, E., & Silva, J. S. (2015). Security for the Internet of Things: A survey of existing protocols and open research issues. IEEE Communications Surveys & Tutorials.
6. Novo, O. (2018). Blockchain meets IoT: An architecture for scalable access management in IoT. IEEE Internet of Things Journal.
7. National Institute of Standards and Technology (NIST). (2020). Special Publication 800-183: Networks of 'Things'.
8. International Organization for Standardization. (2018). ISO/IEC 30141: Internet of Things Reference Architecture.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ПО ОЦЕНКЕ ОБЪЕКТОВ ЖИЛОЙ НЕДВИЖИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ РЫНКА ЖИЛЬЯ Г. САМАРКАНДА)

А.С.Суюнов, Б.А.Суюнов

Самаркандского государственного университет, Самарканд, Узбекистан.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
А.С.Суюнов
Профессор кафедры управления человеческими ресурсами Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова.
Email: *suyunov6272@gmail.com*

Б.А.Суюнов
докторант кафедры «Управление бизнесом»,СамГАСУ.
Э-почта: *suyunovbekzod@mail.ru*

Received: 17 May 2025
Revised: 21 May 2025
Accepted: 22 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Аннотация. *Обеспечение населения жильем является насущной социальной проблемой, которой в Республике Узбекистан уделяется первостепенное внимание. В этом направлении достигнуты позитивные результаты. Развитие рынка жилой недвижимости находится в прямой зависимости от качества (объективности) рыночной оценки жилья, на которое воздействует множество факторов. В статье рассмотрены ряд из этих факторов, которые после более детального исследовании можно учесть для достижения более объективной оценки жилья.*

Ключевые слова: *жилая недвижимость, рыночная оценка, факторы , влияющие на оценку жилья, демография, ипотечное кредитование жилья, реновация, обеспечение обективности оценки.*

TURAR-JOY KO'CHMAS MULK OBYYATLARINI BAHOLASH XIZMATLARI SAMARALILIGINI OSHIRISH USULLARINI TAKILLARISH (SAMARQAND SHAHRI UY-UY-joy BOZORI MISABIDA)

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasida aholini uy-joy bilan ta'minlash dolzarb ijtimoiy muammo bo'lib, bunga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada ijobiy natijalarga erishildi. Turar-joy ko'chmas mulk bozorining rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri uy-joyning bozor bahosining sifatiga (ob'ektivligiga) bog'liq bo'lib, bunga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Maqolada ushbu omillarning bir qatori ko'rib chiqiladi, ular batafsilroq o'rganilgandan so'ng uy-joyni yanada ob'ektiv baholashga erishish uchun hisobga olinishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *turar-joy ko'chmas mulki, bozor bahosi, uy-joy bahosiga ta'sir etuvchi omillar, demografiya, uy-joy uchun ipoteka krediti, ta'mirlash, baholashning ob'ektivligini ta'minlash.*

IMPROVEMENT OF METHODS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICES FOR ASSESSMENT OF RESIDENTIAL REAL ESTATE OBJECTS (ON THE EXAMPLE OF THE HOUSING MARKET OF SAMARKAND)

Abstract. *Providing the population with housing is an urgent social problem, which is given priority attention in the Republic of Uzbekistan. Positive results have been achieved in this direction. The development of the residential real estate market is directly dependent on the quality (objectivity) of the market valuation of housing, which is influenced by many factors. The article considers a number of these factors, which after a more detailed study can be taken into account to achieve a more objective valuation of housing.*

Keywords: *residential real estate, market valuation, factors influencing housing valuation, demography, mortgage lending for housing, renovation, ensuring the objectivity of the valuation.*

Введение. Формирование и развитие рынка доступного жилья в современных условиях является важной народнохозяйственной задачей. Жилье является одним из основных благ и первостепенных потребностей человека. Жилая недвижимость должна отвечать, прежде всего, необходимым требованиям для ее потребителя, главными из которых являются: комфортная среда для проживания, доступная ценовая политика и низкие расходы на содержание недвижимости.

Традиционно, цена на строительную продукцию определяется на основе системы ценообразования и сметного нормирования в строительстве. Данная система регламентирует формирование цен в строительстве с применением сметно-нормативного подхода и отражает исключительно затратный подход к ценообразованию. Кроме того, жильё является специфическим товаром, поскольку оно недвижимо, обладает индивидуальными потребительскими характеристиками и может поступать на рынок в любой степени строительной готовности.

Существующая система управления и оценки стоимости объектов жилой недвижимости не отвечает на довольно значимые вопросы: какие факторы и в какой степени оказывают наибольшее влияние на этапах жизненного цикла, какая зависимость между влиянием этих факторов и стоимостью (и существует ли она вообще). Таким образом, не существует чётко выраженной зависимости между рыночной стоимостью и жизненным циклом, что не позволяет грамотно управлять стоимостью в течение существования объекта.

В этой связи определение факторов формирования стоимости и определение характера их взаимосвязи со стоимостью объектов жилой недвижимости позволит создать надежную теоретическую базу для проведения массовой и индивидуальной оценки как для целей заключения сделок купли продажи и оборота недвижимости на первом и вторичном рынке, так и для целей налогообложения.

Основная часть. Результаты принятой государственной политики в области обеспеченности жильем в Узбекистане ярко проявляются в росте объемов жилищного строительства, в росте уровня обеспеченности жильем и в росте объемов жилого фонда (таб.1),[1]. Отметим, что достигнутый темпы роста объемов ввода жилья позволили опередить прирост численности населения, когда демографическая особенность, сложившаяся в стране, состоит в существенной динамике прироста населения и в преобладании молодежи и подростков возрастной структуре населения.

Всего в Узбекистане за 2015–2021 гг. введено 90602,6 тыс. кв.м. жилья, из них 60358,8 тыс.кв.м. приходится на сельскую местность и 30243,8 тыс.кв.м. на города. Ввод в действие жилых домов вырос с 12052,7 тыс.кв.м. в 2015г. до 14045,5 тыс.кв.м. в 2021 г. или на 16,5 % (табл.1).

Таблица 1

Динамика ввода жилья в городах и сельской местностиУзбекистана (тыс. м^2)

Показатели/годы	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	Всего
Введено в действие по Узбекистану	12052,7	11280,0	11456,4	13398,6	15501,5	12867,9	14045,5	90602,6
Сельской местности	8521,7	8149,0	7833,2	8359,7	9315,3	8683,4	9496,5	60358,8
В городах	3531,0	3131,0	3623,2	5038,9	6186,2	4184,5	4549,0	30243,8

При анализе средней площади жилья на одного человека в 2011-2021 годах, в период 2011 г. этот показатель составил 15 кв.м., в 2015 году – 15,кв.м., в 2016 году – 15,4 кв.м., 2017 году – 15,7 кв.м., 2018 году – 15,8 кв.м.,2019 – 2020 гг. - 16,1 кв.м., а в 2021 году – 18,0 кв.м.

Проведение данного исследования вызвано тем, что объективная оценка стоимости объектов жилой недвижимости далеко не отвечает современным требованиям так как, ещё не систематизированы перечень значимых оценочных факторов, не установлена какие факторы и в какой степени оказывают наибольшее влияние на этапах жизненного цикла жилой недвижимости. Поэтому авторами исследованы и выявлены ряд статистических зависимостей между основными факторами и рыночной ценой жилой недвижимости по г. Самарканде с учетом жизненного цикла жилых зданий (по материалам, ООО “Baxolash Expert”, “Diller sarmoya” и других оценочных агентств). Практика показала использования материалов исследований и установленных зависимостей обеспечили возможность более объективной оценки стоимости жилья.

На протяжении всего жизненного цикла рыночная стоимость объектов жилой недвижимости подвергается влиянию большого количества различных факторов, при этом стоимость может меняться как равномерно, так и скачкообразно (при неблагоприятном сочетании факторов). Влияние факторов проявляется на различных стадиях жизненного цикла и процесса оценки жилья (табл. 2).

Таблица 2

Влияние факторов на рыночную стоимость жилого объекта в зависимости от стадии жизненного цикла

Стадия жизненного цикла	Факторы, оказывающие влияние на формирование рыночной стоимости, по стадиям срока службы жилого дома
Перед проектная и проектная стадия	1.Местоположение района, престижность (по отношению к деловому центру, местам работы, жилым территориям, автодороге, наличие объектов социально культурного назначения; транспортная доступность; экологическая обстановка).

	2. Экономические факторы (факторы спроса и предложения, экономическая ситуация и состояние экономики, конъюнктура рынка и др.)
Стадия строительства	1.Местоположение 2.Площадь, размеры, материал стен (физические характеристики) 3.Конструктивные и объемно-планировочные решения (архитектурно-строительные характеристики) 4.Степень готовности объекта
Стадия эксплуатации	1.Площадь, год постройки – срок службы, техническое обеспечение и со стояние инженерных систем (физические характеристики) 2.Планировка, количество комнат, площадь (архитектурно-строительные характеристики) 3.Степень физического и функционального износа (в том числе состояние конструктивных элементов) 4.Местоположение

Недоучет различных факторов на любой стадии жизненного цикла объекта приведет в итоге к снижению его качества, поскольку существует непосредственная взаимосвязь этапов проектирования, строительства и эксплуатации.

Таким образом, из совокупности всех факторов, формирующих рыночную стоимость жилой недвижимости, на каждой стадии жизненного цикла основными являются спрос/предложение, местоположение, степень физического и морального износа, физические (площадь, этаж, материал) и архитектурно-строительные (планировка, количество комнат) характеристики (рис.1).

Рисунок 1 – Ключевые факторы при формировании рыночной стоимости объектов жилой недвижимости в течение жизненного цикла. Составлен Б.А.Суюновым

Выделенные на рисунке 3 факторы могут значительно снизить или увеличить рыночную стоимость на любой стадии объекта жилой недвижимости, что более детально представлено в таблице №3.

Таблица 3

Цен повышающие и цен понижающие факторы объектов жилой недвижимости

Ценообразующий фактор	Повышение рыночной стоимости	Понижение рыночной стоимости
Местоположение	1.Развитая инфраструктура (близкое расположение детских садов, школ, супермаркетов и т. д.)	1.Большая удаленность от общественного транспорта
	2. Близкое расположение парков/зеленых зон	2.Близость железных дорог, аэропортов, шумной автострады
	3. Пешеходная и транспортная доступность (близость к общественному транспорту	3.Промышленный район / район с плохой экологией
Внутреннее техническое состояние	1.Изолированные комнаты; квадратная форма комнат	1. Наличие смежных комнат
	2. Ухоженная и благоустроенная придомовая территория (детские и спортивные площадки, места отдыха)	2. Неблагоустроенная территория
Внешнее и техническое состояние	1. Наличие просторной парковки	1. Неопрятный подъезд
	2. Пригодное состояние подъезда, квартиры; ремонт; наличие пассажирских и грузовых лифтов	2. Плохое, непригодное к эксплуатации состояние квартиры; отсутствие ремонта
Материал стен	Кирпич, кирпич-монолит	Монолит, панель, блочное строительство
Год по стройки (планировка)	Новостройка, сталинка (индивидуальная, новая и улучшенная планировка)	Хрущёвка, брежневка, ленинградка
Ситуация на рынке	Высокий спрос на объекты аналоги	Большое предложение аналогичных объектов
Этаж	Средние этажи	1-й, 2-й и последний этажи
Площадь кухни	Более 8 м^2	Маленькая по площади (менее 8 кв.м)
Санузел	Раздельный	Совмещенный
Лоджия	Наличие лоджии / балкона (вт.ч. застекленные)	Отсутствие балкона / лоджии
Вид из окон	Панорамный вид из окна	Вид из окна на промышленные про изводства, стену дома, железную дорогу и др.

В конечном счете, все перечисленные ключевые факторы формируют спрос и предложение на рынке объектов жилой недвижимости.

Также важнейшими направлениями роста обеспеченности населения современным жильем в Узбекистане в последние годы стали развитие ипотечного кредитования и строительство доступного жилья. В Указе Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2019 года ПФ-5715 «О дополнительных мерах по развитию и расширению рынка

ипотечного кредитования» (3) отмечено, что расширение практики ипотечного кредитования в 2016–2020 годах обеспечило ввод в эксплуатацию более 92 000 домов. В результате около 400 000 граждан по всей стране улучшили свои жилищные условия. Указом также утверждена «Дорожная карта» по развитию системы ипотечного кредитования.

Кроме того, руководством и правительством страны много внимания уделяется строительству доступного жилья как на селе, так и в городах .[4,5]. Обратим внимание, что в основное это жилье возводится по типовым проектам, что существенно снижает затраты на проектирование и строительство, а также сроки строительства жилья.

Изложенное свидетельствует о том, что в Узбекистане идут позитивные процессы, нацеленные на повышение социального положения населения и рост обеспеченности комфортным жильем. Эти процессы влекут формирование относительно новых факторов, недостаточно учитываемых при оценке рыночной стоимости жилья.

В свою очередь на рынке жилья имеют место динамичные изменения, часть из которых вызвана внутренней миграцией и урбанизацией.

Именно поэтому вопросы качества оценки жилой недвижимости обрели актуальность и значимость. Отметим, что в рассматриваемой области ведутся исследования. Ряд из них, например [2,3], посвящены учету жизненного цикла жилья при проведении его оценки.

Научно-техническая литература и ряд практических примеров подтверждают, что изменчивость этих требований приводит к сокращению сроков морального износа жилых объектов. В табл.4 приведен ряд факторов, влияющих на изменение потребительских требований к жилью.

Несомненно, одним из важнейших и определяющих факторов является научно-технический прогресс, который в нашем случае выражается тем, что появляются новые приборы, оборудование, облегчающие ведение домашнего хозяйства, и расширяющие возможность проведение более глубокого отдыха и содержательного досуга.

Таблица-4

Факторы, влияющие на изменение потребительских требований к жилью

Первопричина (фактор)	Следствие	Конечный результат - Влияние на потребительские требования (запросы) к жилью
Научно-технический прогресс, инновационное развитие	Рост требований к образовательному уровню. Увеличение сроков и непрерывность обучения	Рост потребности в увеличении площади и количества основных помещений.
	Появление новых видов оборудования, бытовой техники	Рост потребности увеличения площадей вспомогательных помещений
Социально-экономическое	Рост благосостояния населения	

развитие общества	Рост насыщенности досуга	Рост потребности в изменении структуры помещений жилья, появление новых функций жилья
	Изменение состава семей	Требования к изменчивости (гибкости) структуры жилья во времени

Примечание. **Разработано Б.А.Суюновым на основе материалов исследования**.

К ним можно отнести новое кухонное оборудование, включая печи СВЧ, посудомойки, а также видео- и аудиоаппаратуру, персональные компьютеры и т. д. Научно-технический и социальный прогресс влияет на изменение функций жилья, поскольку высокоиндустриальное производство требует соответствующего уровня знаний. Это неразрывно связанно с необходимостью непрерывного образования, а значит требует увеличения функций жилья, например, в обеспечении условий для получения нужного образования, т.о. расширяются функции и увеличиваются загрузки жилья. Это касается не только учащихся, но и всех работающих жильцов. Подтверждением тому может также служить национальная образовательная программа, одним из основных принципов которой является непрерывность образовательного процесса. Таким образом, научно-технический и социальный прогресс многократно влияет на сокращение сроков морального износа жилья. Другим важным фактором, по нашему мнению, является демографический фактор, который может быть рассмотрен в двух аспектах: первый - динамика изменения состава семей в целом по стране; второй - динамика изменения, происходящих в семьях.

Ускоренный моральный износ жилья и динамичность урбанизации привели к новым явлениям и, в частности, к реновации, которая состоит в том, что на месте старых объектов возводятся новые строительные объекты, имеющие такие же или иные функции. Можно привести примеры успешных и эффективных реновaций в зарубежных странах, например в богатой инновациями в области строительства и других производств Голландии.

Особенно важным для условий Узбекистана является пример реновации, начатый в столице Российской Федерации [2]. Ее суть состоит в том, что на месте полносборного жилья, возведенного в 60-х – 70-х годах прошлого столетия, возводятся многоэтажные (20 и более этажей) жилые дома. В результате чего в выигрыше остаются жильцы старых домов, которые получают новые квартиры без дополнительных финансовых затрат, а также городские власти, получившие возможность реализовать в новые квартиры в достаточно престижных районах. Отметим, что при этом сохраняется большая часть старых коммуникаций.

Анализируя московский вариант реновации, отметим, что большинство сносимых домов имеют физический износ на уровне 50–60 %, т. е. 40–50 % стоимости этого жилья не самортизировано. Здесь следует отметить, что в других городах России, центрах субъектов Федерации намечается осуществление таких же реновационных программ, но в

существенно в более скромных масштабах.

С экономических позиций реновацию можно рассматривать в череде таких понятий текущий ремонт, капитальный ремонт, реконструкция, модернизация и, наконец, реновация. Все эти действия направлены на сохранение, восстановление и на воссоздание основных фондов. Появление и использование этого метода исходит из динамичного развития, как общества, так и научно-технического прогресса.

В жилищном строительстве сроки физического износа (100, 120 лет) намного превышают сроки морального износа, который в настоящее время существенно сокращаются. В этой отрасли имеются научные изыскания по снижению негативного влияния морального износа (например, обеспечение трансформируемой квартир в массовом жилищном строительстве и др.). Возникновение реновации вызвано рядом взаимосвязанных трендов:

-ускорением урбанизации, которая большей частью идет за счет роста больших городов;

Заключение. Таким образом развитие жилищного строительства, равно как и эксплуатация его «продукта» в виде готового жилья зависит от большого количества факторов. Среди них немаловажное значение принадлежит потребительским качествам жилья. И в конечном счете, обеспечение высоких потребительских качеств жилья, как показывает опыт высоко развитых стран, является одним из важнейших условий стабильного и поступательного социально-экономического развития общества.

Приведенные в статье факторы, влияющие на ценообразование жилой недвижимости на первичном и вторичном рынках, безусловно следует учитывать в оценочной деятельности, но при условии соблюдения их приоритетности, которая меняется как во времени, так и в пространстве (по регионам).

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Закон Республики Узбекистан «Об оценочной деятельности» - Ташкент, 1999.

2. Асаул, А.Н. Экономика недвижимости : учебник для вузов / А.Н. Асаул.– 3е изд. Стандарт третьего поколения. – СПб. : Питер, 2013. – 416 с.

3. Ўзбекистон Республикаси МБМС № 1, 2, 3, 5, 10;

4. Chernyshev, S.L. Modeling of economic systems and forecasting their development: textbook / S.L. Chernyshev. - M: Publishing house of MSTU im. N.E. Bauman, 2013 .- 231 c.

5. Economic and mathematical methods and applied models. Ed. V.V. Fedoseeva. - M.: UNITY-DANA, 2015 .- 391 c.

6. Суюнов Б.А. Совершенствование методики оценочных услуг жилой недвижимости на основе использования инновационных подходов. //Журнал “Мухандислик ва иқтисодиёт”, №4. – Ташкент: ноябрь 2024. -550-557 с.

7. Суюнов Б.А.,Суюнов А.С. Анализ рынка жилой недвижимости города Самарканда. // Конференции Луганск: Луганский государственный университет. 27-28 марта 2024 г.- 155-160 с.

TURIZM SOHASINI KLASTERLASHTIRISHNING INNOVATSION OMILLARI VA XUSUSIYATLARI

O.J.Botirov

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Botirov Og‘abek Jasurbek o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi
Email: *ogabek.botirov.06@mail.ru*
Tel: *+998973678875*

Received: 18 May 2025
Revised: 24 May 2025
Accepted: 21 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya*. Ushbu maqolada hududlar iqtisodiyoti rivojlanishida turistik innovatsion klaster o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Bu jarayonda yangi texnologiyalardan foydalanishni osonlashtirish, risklarni taqsimlash, hududning raqobatbardoshligini oshirishga o‘zaro hissa qo‘shadigan yangi bilimlar, mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish, tarqatish bo‘yicha o‘z faoliyatini amalga oshiradigan turli xil mulkchilik shaklidagi tashkilotlar majmui ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *turistik innovatsion klaster, aholi bandlik darajasi, tadbirkorlik va mahalliy ishlab chiqarishni subsidiyalash, innovatsion mahsulot, turizm bozorida raqobatbardoshlikka erishish, turizm industriyasi.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ФАКТОРЫ И ОСОБЕННОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОГО КЛАСТЕРИЗА

Аннотация. *В данной стате показана рол турисцко-инновационного кластера в развитии регионалной экономики. Научно и теоретически освешена совокупност организаций различних форм собственности, котириэ осушествляют свою деятелност по содействию исползованию нових технологий, разделению рисков, созданию и распространению нових знаний, продуктов и технологий, взаимно способствуюших повишению конкурентоспособности региона.*

INNOVATIVE FACTORS AND FEATURES OF TOURISM CLUSTERING

Abstract. *This article shows the role of the tourism and innovation cluster in the development of the regional economy. A set of organizations of various forms of ownership that carry out their activities to promote the use of new technologies, share risks, create and disseminate new knowledge, products and technologies that mutually contribute to increasing the competitiveness of the region are covered scientifically and theoretically.*

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida respublikamiz hududlari, alohida sektorlari va tarmoqlarni samarali rivojlantirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning tarmoq va rejalashtirish tamoyillari hozirgi vaqtda o‘zining hal qiluvchi rolini yo‘qotmoqda va bunda xo‘jalik sub’ektlarining innovatsion faolligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar tizimini yaratish yo‘li bilan milliy takror ishlab chiqarish tizimi doirasida mamlakat va uning hududlari rivojlanishiga faol va har tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va shakllarni yaratish zolzarb bo‘lib bormoqda. Shunga ko‘ra, hozirgi vaqtda aynan klaster yondashuvi ushbu talablarga to‘liq javob beradi hamda klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha turli tadbirlarni moliyalashtirishning moslashuvchan usullarini ta’minlashni nazarda tutuvchi hududlar darajasdagi mexanizmlar samarali shakllanib bormoqda.

Biroq, iqtisodiyotning ba’zi tarmoqlari korxonalari faoliyat bo‘yicha amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, klaster tashabbusi va yondashuvi iqtisodiy faoliyatga muayyan darajadagi qiyinchiliklar bilan kiritilmoqda. Respublikamiz turizm sohasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimini samarali amal qilishiga qaramasdan, uning hududlarida muhim loyihalar va bu masalalarning aniq nazariy-uslubiy ishlanmalari mavjud bo‘lsa ham amalda sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan klasterlash yondashuvi bo‘yicha bir qator muammolar mavjud. Bunda zamonaviy klasterlash tendensiyalari va tizimini joriy etishda, avvalambor, turistik klaster tuzilmalarini rejalashtirish va rivojlantirishda hududiy hokimiyat organlari, yirik korxonalar rahbarlari, xo‘jalik birlashmalari boshliqlari, kompaniyalarning top-menejerlari tomonidan tashqi va ichki muhitning bir qator shart-sharoitlari va omillarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, ushbu paragrafda turizm sohasida turli nazariy yondashuvlar va mualliflarning qarashlarini tadqiq etish asosida, biz, mamlakatimiz iqtisodiyotining klaster rivojlanishi uchun bir qator omillarni aniqlaymiz va klasterlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muammolariga alohida e’tiborimizni qaratamiz.

Shuningdek, turizm sohasini klaster rivojlanishining innovatsion yo‘nalish ekanligini aniqlash va uning tegishli omillarini alohida yo‘nalishlar bo‘yicha ajratib ko‘rsatish maqsadida turizm tadbirkorligida qo‘llaniladigan innovatsiyalarning asosiy turlarini tasniflash lozim. Mazkur innovatsiyalar quyidagilardan iborat:

1. **Mahsulot innovatsiyasi** – bu o‘z hududidagi raqobatchilarda ham, boshqa hududlar va davlatlardagi raqobatchi turistik tashkilotlarda ham mavjud bo‘lmagan innovatsion tavsifga ega bozor taklifini shakllantiradigan yangi turistik mahsulotni yaratish va uni joriy etish. Mahsulot innovatsiyasi turistik klasterlar mavjudligining birinchi bosqichida ularni rivojlantirishning eng keng tarqalgan variantidir, chunki bu vaziyatda innovatsiya turistik mahsulotni shakllantirish uchun innovatsion ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanishdan iborat bo‘lmaydi, balki bozorning yangiligi taklif qilingan ekskursiyani yangi marshrutini yaratishdan iborat.

2. Innovatsion jarayon – zamonaviy texnika va texnologiyalarni hamda raqamli xizmatlarni joriy etish, turistik firma va tashkilotlar faoliyatini avtomatlashtirish asosida turistlarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish. Mazkur holatda jarayon innovatsiyalari ko‘pincha mahsulot innovatsiyalari bilan birlashtiriladi hamda turistik mahsulotlar va xizmatlarni bozorda joriy etishning jozibadorligi va samaradorligini oshiradi. Bunday innovatsiyalarning klassik namunasi turoperatorlar va turagentlar tomonidan zamonaviy avtomatlashtirilgan bronlash tizimlaridan foydalanish hisoblanadi.

3. Boshqaruv innovatsiyalari – bu butun turizm industriyasi va alohida turizm tashkiloti doirasida innovatsion boshqaruv tizimi va usullarini joriy etish. Bunday boshqaruv innovatsiyalari ko‘pincha quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) ichki korporativ boshqaruv tizimlari va standartlari; b) o‘z-o‘zini tartibga solish institutini joriy etish; v) korporativ o‘zaro hamkorlikning yangi turlari; d) biznesni rivojlantirish strategiyalari va marketing strategiyalari majmuasini ishlab chiqish; ye) sayyohlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etishning yangi yo‘nalishlari va usullarini ishlab chiqish; f) turizm sohasi xodimlariga tegishli kasbiy talablarni qabul qilish.

4. Iste’molchilarga yo‘naltirilgan innovatsiyalar – iste’molchilar ehtiyojlarini qondirish, iste’molchilarning sodiqligini shakllantirish, iste’molchilar oldida turizm tashkiloti imijini yaxshilash, iste’molchilar va turizm firmalari va tashkilotlari o‘rtasida yangi aloqa kanallarini rivojlantirish, individual turizm xizmatlarini ko‘rsatishga qaratilgan biznesni tashkil etish usullarini tanlash. Yirik sayyohlik tashkilotlari mijozlarga chegirmalar va shaxsiy sayohat xizmatlarini taqdim etish uchun o‘z mijozlarining elektron ma’lumotlar bazasini yaratadilar.

5. Marketing innovatsiyalari – turistik firma va tashkilotlarda qo‘llaniladigan marketing strategiyalari majmuasini ishlab chiqish: bu quyidagilardan iborat: bozorning asosiy elementlari – talab va taklif muvofiqligiga erishish; ixtisoslashtirilgan tizimlar va tarqatish kanallarini shakllantirish; yangi turistik mahsulotni shakllantirish, uni xalqaro va milliy turistik bozorlarga olib chiqish yo‘nalishidagi faol tadbirlar; kontragentlar va doimiy mijozlar uchun turli chegirmalar va imtiyozlar tizimidan foydalangan holda tegishli narx strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish.

6. Logistik innovatsiyalar – bu turistlarni yetkazib berish, taqsimlash, joylashtirish, ularning harakatini tashkil etish bo‘yicha yangi strategik qarorlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan. Bunday innovatsiyalar turistik tashkilotlar va turizm markazlarida integratsiyalashgan axborot tizimlari bilan bog‘liq bo‘lgan bog‘lovchi reyslar ko‘magida kompleks bog‘lovchi havo transporti uzellari orqali turistlarning harakatlanishii bo‘yicha muqarrar yangi yechimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. So‘nggi innovatsion tendensiyalar axborot va intellektual logistika hisoblanuvchi virtual makonda axborot oqimlarining harakatini ifodalaydi.

7. Institutsional innovatsiyalar turizm industriyasini, shuningdek, turdosh tarmoqlarni boshqarishda davlatning roli va boshqa tartibga solish tizimlarini va me’yoriy jihatdan qat’iy mustahkamlangan qoidalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bunday innovatsiyalar uch turdagi kommunikativ hamkorlik asosida shakllanadi: 1. Davlat-xususiy sherikligi mexanizmi eng maqbul

va samarali usul hisoblanadi; 2. «Ma'muriyat – tadbirkorlar – ta'lim va fan vakillari – mahalliy hokimiyat» chizmasi bo'ylab simbiotik o'zaro munosabatlarni o'rnatish; 3. Tadbirkorlar va davlat hokimiyati organlari manfaatlarining tafovutli jihatlari bilan bog'liq ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar.

8. Resurs innovatsiyalari – yangi turistik mahsulotlar va xizmatlarni kelgusida shakllantirish va harakalantirish, loyihalashtirish, ixtisoslashtirilgan turistik va rekreatsion hududlarni rivojlantirish turistik resurslar xavfsizligini ta'minlash uchun har xil turdagi resurslardan (tabiiy, infratuzilma, tarixiy-madaniy, moddiy, moliyaviy, kadrlar, boshqaruv va boshqalar) foydalanish bilan bog'liq.

9. Tashkiliy va iqtisodiy innovatsiyalar ixtisoslashtirilgan turistik distenatsiya doirasida turizm biznesini tashkil etish va rivojlantirishning yangi hududiy va ekstraterritorial shakllarini yaratishga qaratilgan. Tashkiliy va iqtisodiy innovatsiyalar innovatsiyalar, konsentratsiya, ixtisoslashtirish, muvofiqlashtirish va xizmat ko'rsatish turizmi ishlab chiqarishini kooperatsiya qilish orqali raqobatdosh ustunliklarga erishish imkonini beradi. Binobarin, turizmdagi har qanday klaster loyihalari tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv innovatsiyalari bo'lganligi sababli o'z mazmuniga ko'ra innovatsion hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.

2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html

3. Safarova N.N. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini prognozlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent 2018 y. -19-21 b.

4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.

5. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Diss. PhD. – T.: TDTU, 2021. 13-14-b.

6. O.N.Xaitov "Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish" Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.

7. https://lex.uz/docs/6102462

INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI TABIIY TURISTIK RESURSLARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

M.M.Rabbimov, M.O.Samiyeva

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson reusrslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti tayanch doktoranti
Email: *muhriddinrabbimov@mail.ru*
Tel: *+99894 283 56 78*

Samiyeva Muxlisa Olim qizi
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Logistika yo‘nalishi 123-guruh talabasi
Email: *muxlisasamiyeva0@gmail.com*
Tel: *+998 90 898 52 06*

Received: 18 May 2025
Revised: 22 May 2025
Accepted: 28 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya*. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tabiiy resurslarga asoslangan turizm imkoniyatlari, ularni iqtisodiy muomalaga kiritish usullari, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan innovatsion strategiyalar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy turistik resurslar, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, barqaror turizm, ekoturizm, strategik rivojlanish, innovatsion mahsulot, turizm industriyasi.*

ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ПРИРОДНЫХ ТУРИСТСКИХ РЕСУРСОВ НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования природных туристских ресурсов на основе инновационных подходов. Анализируются возможности развития туризма на основе природных ресурсов, методы их введения в хозяйственный оборот, использование цифровых технологий и возможности обеспечения экологической устойчивости. По результатам исследования предлагаются инновационные стратегии развития данной территории.*

Ключевые слова: *природные туристские ресурсы, инновационный подход, цифровые технологии, устойчивый туризм, экотуризм, стратегическое развитие, инновационный продукт.*

WAYS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF NATURAL TOURIST RESOURCES THROUGH THE USE OF INNOVATIVE METHODS

Annotation. *This article discusses the issues of effective use of natural tourist resources based on innovative approaches. The opportunities for tourism based on natural resources, methods of their introduction into economic circulation, the use of digital technologies and the possibilities of ensuring environmental sustainability are analyzed.*

Keywords: *natural tourist resources, innovative approach, digital technologies, sustainable tourism, ecotourism, strategic development, innovative product, tourism industry.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda turizm sohasi iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu jarayonda tabiiy turistik resurslar muhim o‘rin tutadi. Ammo ulardan samarali foydalanish, ayniqsa innovatsion texnologiyalar yordamida, hali to‘liq shakllanmagan. Ushbu maqola shu muammoga yechim topish, mavjud imkoniyatlarni aniqlash va strategik takliflar berishga qaratilgan. Bugungi kunda turizm zamonaviy dunyoning muhim global ijtimoiy-iqtisodiy hodisasi sifatida ifodalanadi. Tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligiga qaramay, turizm industriyasi an'anaviy rivojlanishdan tashqari, raqobat bozorida ustunlikka erishish uchun innovatsiyalarni keng joriy eta olishi lozim.

Turizmda innovatsiyalar - yangi turistik marshrutlar, loyihalar va turlarni ilmiy va texnologik yutuqlar, IT texnologiyalar, shuningdek, boshqaruv va marketing sohalaridagi yetakchi tajribalardan foydalanish orqali tashkil etish, shu orqali mahalliy aholini band qilish, daromadlar oshishini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish hamda mintaqa va mamlakatning turistik imidjini yaxshilashga imkon beruvchi omillar tushuniladi.

O‘zbekiston katta turistik salohiyatga ega. Mamlakatimizda 8,4 mingga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar: Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqandda joylashgan (Bekmuradova, 2024). Bundan tashqari yurtimizning boy tarixi, madaniyati, milliy urf-odat va an'analari, iqlimi, tabiiy manzaralari turistlarni jalb qila oladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham turizm sohasiga innovatsiyalarning joriy etilayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilning dekabr oyidan respublikada xalqaro turistlar uchun elektron vizalar berish jarayoni boshlandi. Ko‘plab turistik obyektlar, mehmonxona va turar joylarda dastlabki to‘lov tizimlari yangilandi va onlayn to‘lov imkoniyatlari yaratildi. Ushbu misollar turizmdagi innovatsiyalarning bir qismigina bo‘lib, mazkur sohani rivojlantirish mamlakatning turistik imidjini yaxshilash, turistik oqimni ko‘paytirish, sayyohlar uchun yangi tajriba yaratishda katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar sharhi.

Aynan turizmdagi innovatsiyalarga oid tadqiqotlar ham ilmiy adabiyotlarda ko‘p uchraydi. Xususan, D. Buhalis, C. Costa "Turizm menejmenti dinamikasi: tendensiya, menejment va instrumentlar" asarida e-turizm konsepsiyasini ochib bergan. Sheldon (2020) "O‘zgarishlar uchun turizm tajribasini loyihalash" nomli tadqiqotida ekologik turizm, turizm madaniyati va ijtimoiy turizm sohasidagi innovatsiyalar mavzusini ochib bergan.

Mahalliy olimva tadqiqotchilar ham turizmning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyatiga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, Tuxliyevning (2023) bir qator tadqiqotlarida turizmni O‘zbekistonda rivojlantirish modellari va uning o‘ziga xos xususiyatlarini dchib bergan. Bundan tashqari, Astanakulovning (2024) "Turizm 4.0: turizm industriyasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" nomli tadqiqotida turizmda raqamlashtirish, avtomatlashtirish va robotizatsiya masalalarini ochib bergan.

Ammo olib borilgan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Ko‘p ilmiy adabiyotlarda innovatsiyalarga umumiy yondashiladi va iqtisodiy sektorning

xususiyatidan kelib chiqib har biriga alohida yechim taklif qilinmagan. Shuning uchun aynan turizmda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan innovatsiyalarni alohida tadqiq qilish lozim.

So‘ngi yillarda ko‘plab olimlar tomonidan innovatsion yondashuvlar asosida turizm sohasini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Masalan, M.K. Porter, P. Kotler, G. Ritchie kabi mualliflar innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatgan. O‘zbekistonda esa, turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, ekologik turizmni rivojlantirishga oid davlat dasturlari qabul qilingan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida innovatsiyalar va ularning bugungi kundagi o‘rni, innovatsiyalarning turizmda qo‘llanilishi, shuningdek, mamlakatimizda turizmga oid ayrim statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda, tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o‘ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o‘rganib chiqildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi.

Turizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning rolini tadqiq qilish nazariy jihatdan tadqiqotchilarning e’tiborini qaratadi. Sababi, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion jamiyat konsepsiyasi iqtisodiy rivolanish to‘g‘risidagi ilmiy tushunchalarni tubdan o‘zgartirih yubordi Innovatsivalarning kengavishi ularning inson havotining barcha

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Statistik tahlil (2020–2024 yillardagi ma’lumotlar asosida);

SWOT tahlil (Samarqand viloyatidagi ekoturizm resurslarining kuchli va zaif tomonlari);

Ekspert baholash usuli (turizm sohasi mutaxassislari fikrlariga asoslangan);

Komparativ (taqqoslash) usul.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning rolini tadqiq qilish nazariy jihatdan tadqiqotchilarning e’tiborini qaratadi. Sababi, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion jamiyat konsepsiyasi iqtisodiy rivolanish to‘g‘risidagi ilmiy tushunchalarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Innovatsiyalarning kengayishi, ularning inson hayotining barcha jabhalarida tadbiq qilinishi turizm sohasidagi menejmentning yangi ko‘rinishga o‘tishini taqozo etdi.

Bundan tashqari, tizimli, kompleks, texnologik yondashuvni amalga oshirish turizmda innovatsion faoliyatning asosiy talabi hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion rivojlanish xususiyatlarini o‘rganis muhim ahamiyat kasb etadi

Innovatsion texnologiyalar sayohat jarayonini nafaqat sayyohlar, balki turizmning barcha ishtirokchilari uchun soddalashtiradi. Bu esa mamlakatga turistlar oqimining ko‘payishiga turtki bo‘la oladi. Biroq, innovatsion texnologiyalarning turizm oqimiga ta’sirini baholashda ko‘plab omillar, xususan, texnologiyalarning mavjudligi, sayyohlar ehtiyoji va tashrifdan maqsadi, turistik yo‘nalishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olinishi jihatidan murakkab bo‘lishi mumkin.

1-jadval.

Samarqand viloyatidagi asosiy tabiiy turistik resurslar.

Hudud	**Resurs nomi**	**Turizm imkoniyati**	**Infratuzilma holati**
Urgut	Hazrati Dovud	Ziyorat, ekoturizm	Yaxshi
Jomboy	Eko-Zarafshon	Ekoturizm	O‘rtacha
Ishtixon	Orolcha	Eko-dam olish	Past
Nurobod	Teshiktosh, Omonqoton	Eko-yurish	Yaxshi

2-rasm.

2020-2024 yillarda ekoturistik obyektlarga tashrif buyurgan turistlar soni (ming nafar).

Yil	Mahalliy turistlar	Xorijiy turistlar
2020	45	5
2021	52	7
2022	63	12
2023	77	15
2024	89	18

Hozirgi kunda O‘zbekistonga xorijdan tashrif buyurgan shaxs elektron vizani rasmiylashtirishi mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizga 90 dan ortiq mamlakat fuqarolari vizasiz tartibda tashrif buyurishlari mumkin100. Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar va tenglik asosida Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) ishtirokchilari uchun ikki tomonlama vizasiz rejim joriy etilgan, xususan: Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Moldova, Rossiya Federatsiyasi, Qirg‘iziston, va Tojikiston.

Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo‘lsak, turizmni rivojlantirish uchun keng qo‘llaniladigan bir qancha innovatsion texnologiyalarga guvoh bo‘lishimiz mumkin (1-jadval). Mazkur texnologiyalar sayyohlarga keng imkoniyat va qulayliklarni yaratibgina qolmay, turdan yaxshi taassurot olishlarini ham ta’minlaydi.

Turizm yaxshi rivojlangan mamlakatlardan biri Fransiyada ham bir qator innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, Shahar va muzeylar, restoranlar, transport xizmatlarini topishga yordam beruvchi mobil ilovalar va veb-saytlar, san’at galereyalari va muzeylarda AR/VR texnologiyalari, IoT (Internet of Things), xavfsiz omonat tizimi, gastronomic turizm platformalari mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar nafaqat turizm, balki iqtisodiyotning boshqa sektorlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Ularning qo‘llanilishining asosiy sababi turizm ishtirokchilari uchun yetarlicha qulayliklar yaratish, turistik operatsiyalar sifatini oshirish va raqobatbardosh bozor sharoitini yaratishdan iborat.

Innovatsiyalar yangi turlarni ishlab chiqish, mijozlarning xohish va istagidan kelib chiqish takliflar yaratish va turdan taassurotni yaxshilashga bevosita hissa qo‘shadi.

Birinchi navbatda, sayyohlarda turdan qoladigan taassurotlarni yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar sayyohlarga turni qulayroq va ta’sirliroq o‘tishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, tabiiy va madaniy resurslarni muhofaza qilish va samarali boshqarish uchun ekologik/yashil texnologiyalar va turizm modellarini qo‘llash lozim.

Umuman olganda, innovatsion texnologiyalar Respublikamiz mehmondo‘stlik sanoati uchun istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi. Mutaxassislar ulardan zamonaviy va jozibador turistik takliflarni yaratish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish va turistik taassurot sifatini yaxshilashda foydalanishlari mumkin.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash mumkinki, tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish uchun:

- Innovatsion texnologiyalar (AR, VR, mobil ilovalar) joriy etilishi;
- Ekoturizm obyektlarida raqamli xaritalar va online navigatsiya xizmatlari yo‘lga qo‘yilishi;
- Mahalliy aholini turizm xizmatlariga jalb etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish kerak.

Taklif va tavsiyalar.

1. Ekoturizmni raqamlashtirish milliy strategiyasini ishlab chiqish;
2. Har bir viloyat uchun ekologik turizm platformasi yaratish;
3. Innovatsion texnologiyalarni o‘rgatishga qaratilgan treninglar tashkil etish;
4. Tabiiy resurslar asosida yillik ekofestivallar o‘tkazish;
5. Xorijiy investorlarni jalb qilish uchun ochiq ma’lumotlar bazasini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Porter M. Raqobat ustunligi. Harvard Business Review, 2020.
2. Kotler P., Bowen J., Marketing for Hospitality and Tourism. Pearson, 2019.
3. OECD Investing in Human Capital: A Pathway to Economic Growth and Social Inclusion. OECD Publications, Paris. 2020.
4. UNDP Human Capital and Sustainable Development: Global Trends and National Strategies. United Nations Development Programme, New York. 2021.
5. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. “The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan” https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25
6. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova “Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan” ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

Internet ma’lumotlari:

7. https://siat.stat.uz/reports-filed/3505/table-data
8. https://www.lex.uz
9. https://www.un.org/ru/
10. https://www.who.int/
11. https://ec.europa.eu/eurostat
12. https://www.pewresearch.org/
13. https://www.springer.com/
14. https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?contextual=default&locations=UZ&view=chart

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA’MINOTI TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI

O.E.Arzikulova

Samarqand davlat univeristeti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi
Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: *barchin967@gmail.com*
Tel: *+99890 505 42 43*

Received: 11 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 16 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, baholash mezonlari va iqtisodiy mohiyati keng yoritilgan. Resurs ta’minotining faqat xarid va yetkazib berish jarayonlari bilan cheklanmasdan, balki rejalashtirish, taqsimlash, zaxiralash, nazorat qilish va optimallashtirish kabi strategik boshqaruv funksiyalarini ham o‘z ichiga olishi asoslab berilgan. Tizim samaradorligini aniqlovchi mezonlar – vaqt omili, sifat ko‘rsatkichi, xarajatlar samaradorligi va moslashuvchanlik – tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *resurs ta’minoti, xizmat ko‘rsatish korxonalari, iqtisodiy mohiyat, xarajatlarni optimallashtirish, daromadlar barqarorligi, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, logistika avtomatlashtirish, ERP, SCM, strategik boshqaruv.*

ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РЕСУРСНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ

Аннотатsiя: *В статье комплексно рассматривается понятие ресурсного обеспечения на предприятиях сферы услуг, его особенности, критерии оценки и экономическая сущность. Подчеркивается, что ресурсное обеспечение не ограничивается процессами закупок и поставок, а включает в себя такие функции стратегического управления, как планирование, распределение, резервирование, контроль и оптимизатsiя. Проанализированы критерии, определяющие эффективность системы: фактор времени, показатель качества, экономическая эффективность и гибкость.*

Ключевые слова: *ресурсное обеспечение, предприятия сферы услуг, экономическая сущность, оптимизатsiя затрат, стабильность доходов, конкурентоспособность, устойчивое развитие, автоматизатsiя логистики, ERP, SCM, стратегическое управление.*

THE CONCEPT, CONTENT AND ECONOMIC IMPORTANCE OF RESOURCE SUPPORT IN SERVICE ENTERPRISES

Abstract: *The article comprehensively examines the concept of resource support in service enterprises, its features, evaluation criteria and economic essence. It is emphasized that resource support is not limited to procurement and supply processes, but also includes strategic management functions such as planning, distribution, reserve, control and optimization. The criteria that determine the effectiveness of the system are analyzed: the time factor, quality indicator, economic efficiency and flexibility.*

Keywords: *resource provision, service enterprises, economic essence, cost optimization, income stability, competitiveness, sustainable development, logistics automation, ERP, SCM, strategic management.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish tarmog‘i milliy iqtisodiyotning eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi segmentlaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot tarkibida tobora ko‘proq ulush egallab borayotgani, bu jarayonda transport-logistika, turizm, moliya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda talabning ortib borishi iqtisodiyotning barqaror o‘sishida xizmat ko‘rsatish korxonalarining rolini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tizimlarda raqobatbardoshlikni ta’minlash, mijoz ehtiyojlarini to‘liq qondirish va xizmat sifatini yuqori darajada ushlab turish bevosita resurs ta’minotini oqilona boshqarishga bog‘liqdir.

Resurs ta’minoti xizmat ko‘rsatish korxonalarining barcha faoliyat yo‘nalishlari uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u moddiy, moliyaviy, mehnat va axborot resurslarini belgilangan muddat, sifat va hajmda taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Agar ishlab chiqarish korxonalarida resurs ta’minoti ko‘proq xomashyo va materiallar oqimiga bog‘liq bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish sohasida bu jarayon inson kapitali va bilimga asoslangan resurslardan tortib, innovatsion texnologiyalar, texnik vositalar va axborot tizimlari kabi keng ko‘lamli komponentlarni qamrab oladi.

So‘nggi yillarda xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minotini samarali boshqarish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bunga bir nechta omillar sabab bo‘lishi mumkin: birinchidan, global bozor integratsiyasi natijasida ta’minot zanjirlarining murakkablashuvi; ikkinchidan, mijozlar ehtiyojlari va talabining tez o‘zgarishi; uchinchidan, texnologik yangiliklarning joriy etilishi orqali xizmat ko‘rsatish jarayonining qayta tashkil qilinishi.

Mazkur mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, resurs ta’minoti boshqaruvi tizimini takomillashtirish orqali xizmat ko‘rsatish korxonalari nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki xarajatlarni optimallashtiradi, xizmat ko‘rsatish muddatini qisqartiradi va mijoz qoniqishini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlaydi va bozor ulushini kengaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti tushunchasi, uning mazmuni va iqtisodiy mohiyatini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Zero, resurs ta’minoti tizimi — bu faqat ta’minotchidan mahsulot yoki xizmat olish emas, balki strategik boshqaruv, samaradorlikni oshirish va barqaror rivojlanishning asosiy kafolatidir.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti tushunchasi, mazmuni va iqtisodiy mohiyatiga oid ilmiy izlanishlar turli yo‘nalishlarda olib borilgan bo‘lib, xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari mazkur sohaning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Xorijiy tadqiqotlarda resurs ta’minoti ko‘pincha logistika menejmenti va ta’minot zanjiri boshqaruvi (Supply Chain Management, SCM) konsepsiyalari bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, Chopra va Meindl (2016) resurs ta’minotini “korxonaning strategik va operatsion darajada resurs oqimlarini boshqarish orqali qiymat yaratish jarayoni” sifatida talqin qiladi. Christopher (2017) esa ta’minot

tizimining asosiy maqsadi xarajatlarni minimallashtirish va mijoz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish ekanligini ta’kidlaydi.

Boshqa manbalarda, jumladan, Lambert va Cooper (2000) ishlarida resurs ta’minoti tizimi yetkazib beruvchi–korxona–iste’molchi zanjirida integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, samarali resurs ta’minoti tizimi nafaqat moddiy oqimlarni, balki moliyaviy va axborot oqimlarini ham qamrab olishi lozim.

So‘nggi yillarda resurs ta’minotida raqamli texnologiyalarning o‘rni alohida o‘rganilmoqda. Ivanov, Tsipoulanidis va Schönberger (2019) raqamli logistika tizimlari yordamida real vaqt rejimida talab va taklifni moslashtirish, zaxiralarni optimallashtirish va uzilishlarni kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

O‘zbekiston olimlari tomonidan xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosan uchta yo‘nalishga urg‘u berilgan: 1) resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, 2) logistika tizimini rivojlantirish, 3) xizmat sifatini ta’minlash orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

Xolmatov A. (2020) o‘z tadqiqotida xizmat ko‘rsatish sohasida moddiy va mehnat resurslarini optimal taqsimlash xizmat sifati va tezkorligini belgilovchi asosiy omil ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, xizmat jarayonidagi uzilishlarning 60 foizi resurs ta’minotidagi nomutanosibliklar bilan bog‘liq.

Ismoilov B. (2021) milliy sharoitda resurs ta’minoti tizimining samaradorligini oshirish uchun strategik ta’minotchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik siyosatini joriy etish zarurligini taklif qiladi. U, shuningdek, logistika xarajatlarini kamaytirish maqsadida regional ta’minot markazlarini tashkil etish bo‘yicha konseptual model ishlab chiqqan.

Karimov M. (2019) O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish korxonalarining asosiy muammosi sifatida resurs ehtiyojlarini aniq prognozlashdagi qiyinchiliklar va logistika infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. U prognozlashda Demand Forecasting va ABC/XYZ tahlili metodlarini qo‘llashni taklif etadi.

Rasulov Sh. (2022) o‘z izlanishlarida xizmat ko‘rsatish sohasida resurs ta’minotini boshqarishda raqamli texnologiyalarning rolini o‘rgangan. Unga ko‘ra, ERP va SCM platformalarini joriy etish orqali xarid, ombor va logistika jarayonlarini integratsiyalash xizmat tezligini 20–25 foizga oshirishi mumkin.

Mamadaliyev N. (2023) esa xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minotini ekologik barqarorlik tamoyillari asosida tashkil etish masalasini yoritadi. U “yashil logistika” konsepsiyasini milliy sharoitga moslashtirib, chiqindilarni kamaytirish va energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-martdagi PQ–161-son qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalari sifatida zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish, ta’minot tizimlarini raqamlashtirish, zaxira boshqaruvini optimallashtirish va malakali kadrlar tayyorlash masalalari belgilab berilgan bo‘lib, bu ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti tizimini o‘rganishda, sohaga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarni tahlil qilish, soha ekspertlari va amaliyotchi mutaxassislar bilan intervyular o‘tkazish orqali ularning fikrlarini yig‘ish va tahlil qilish, resurs ta’minotining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida so‘rovlar va anketalar tuzish, olingan ma’lumotlarni statistik qayta ishlash hamda ular asosida resurs ta’minotining korxona iqtisodiy natijalariga ta’sirini baholash ishlari amalga oshirilgan.

Tahlil va natijalar.

Resurs ta’minoti – bu korxona yoki tashkilotning strategik va operatsion maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot va boshqa turdagi resurslarni belgilangan muddat, sifat va hajmda uzluksiz yetkazib berish jarayonidir. U faqatgina resurslarni xarid qilish yoki yetkazib berish emas, balki ularni rejalashtirish, taqsimlash, zaxiralash, nazorat qilish va optimallashtirish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi.



1-rasm. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minotining o‘ziga xos xususiyatlari

Resurs ta’minoti tizimining samaradorligi quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

– vaqt omili – resurslarning kerakli paytda yetkazib berilishi;

– sifat ko‘rsatkichi – resurslarning belgilangan sifat standartlariga mosligi;

– xarajatlar samaradorligi – minimal xarajat bilan maksimal natijaga erishish;

– moslashuvchanlik – talab va sharoit o‘zgarishlariga tezkor javob berish qobiliyati.

Xizmat ko‘rsatish sohasida resurs ta’minoti tushunchasi nafaqat moddiy-texnik jihatlarni, balki inson kapitali, bilimlar oqimi, mijozlar bilan aloqalar va innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini ham qamrab oladi. Shu bois, uni faqat xarid yoki logistika

jarayoni sifatida emas, balki strategik boshqaruvning ajralmas elementi sifatida baholash lozim.

Resurs ta’minoti boshqaruvi xizmat ko‘rsatish korxonasining iqtisodiy natijalariga bevosita va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. U nafaqat xizmat ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi, balki korxonaning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uning iqtisodiy mohiyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda izohlash mumkin:

Xarajatlarni optimallashtirish. Resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tannarxini sezilarli darajada kamaytiradi. Optimal xarid siyosati, ta’minotchilar bilan qulay shartnomalar tuzish, logistika va zaxira boshqaruvini optimallashtirish orqali ortiqcha xarajatlar minimallashtiriladi. Masalan, ABC/XYZ tahlili yordamida zaxiralarni toifalash ortiqcha saqlash xarajatlarini kamaytirib, aylanma mablag‘larni tezlashtiradi. Bu esa korxona rentabelligini oshiradi va foyda marjasini kengaytiradi.



2-rasm. xizmat ko‘rsatish korxonasining iqtisodiy mohiyatining asosiy yo‘nalishlari

Daromadlar barqarorligini ta’minlash. Mijoz ehtiyojlarini to‘liq va o‘z vaqtida qondirish sotuv hajmining barqaror o‘sishini ta’minlaydi. Agar resurs ta’minoti tizimi talab prognozlariga asoslangan holda ishlasa, xizmat ko‘rsatishdagi uzilishlar minimal darajaga tushadi, mijozlar ishonchi ortadi va qayta sotib olish ulushi ko‘payadi. Bu jarayon korxona daromadlarini mavsumiy o‘zgarishlardan kamroq ta’sirlanadigan holatga keltiradi.

Raqobatbardoshlikni oshirish. Tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish korxonaga bozorda ustunlik beradi. Resurs ta’minoti tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan korxona yangi mijozlarni jalb etishda, mavjud mijozlarni saqlab qolishda va xizmat ko‘rsatish hududini kengaytirishda raqobatchilardan oldinga chiqadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va xizmat standartlarini joriy etish orqali korxona bozorda premium-segmentga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Barqaror rivojlanish. Uzoq muddatli strategik rejalashtirish asosida resurslar ta’minotini kafolatlash korxonaga bozor sharoitidagi noaniqliklar va tavakkalchiliklarga bardosh berish imkonini beradi. Barqaror resurs ta’minoti tizimi nafaqat bugungi kundagi operatsion ehtiyojlarni, balki kelajakdagi rivojlanish maqsadlarini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, ekologik toza resurslarga bosqichma-bosqich o‘tish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va “yashil logistika” tamoyillarini qo‘llash orqali korxona uzoq muddatda ijtimoiy va ekologik jihatdan ham barqaror rivojlanadi.

Shunday qilib, resurs ta’minotining iqtisodiy mohiyati faqat xarid va yetkazib berish jarayonlari bilan cheklanmaydi. U butun korxona iqtisodiy strategiyasining asosi bo‘lib, moliyaviy natijalar, xizmat sifati, mijoz qoniqishi va raqobat ustunligini ta’minlovchi eng muhim boshqaruv funksiyalaridan biridir.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti tizimini to‘g‘ri va samarali tashkil etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmat sifati va mijozlar qoniqishini ta’minlashda muhim strategik vosita hisoblanadi. Mazkur tizimning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi korxonaning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini uzluksiz yuritish, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlar barqarorligini saqlash imkonini beradi.

Birinchidan, resurs ta’minoti tizimi sifatli tashkil etilganda xizmat ko‘rsatish sifati sezilarli darajada oshadi. Moddiy, moliyaviy, mehnat va axborot resurslarining o‘z vaqtida va to‘liq hajmda taqdim etilishi xizmat jarayonidagi uzilishlarning oldini oladi, bu esa mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mijozlar bazasining kengayishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish bozor sharoitida raqobat ustunligini ta’minlaydi, natijada mavjud mijozlar saqlanib qoladi va yangi mijozlarni jalb etish imkoniyati kengayadi. Strategik ta’minotchilar bilan hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi va resurs yetkazib berishning barqarorligi mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchan javob berish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, korxona rentabelligini oshirishga xizmat qiladi. Logistika jarayonlarini avtomatlashtirish, ombor boshqaruvini optimallashtirish, zaxira hajmini ilmiy asoslangan metodlar orqali belgilash ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa korxona foyda marjasining oshishiga bevosita olib keladi.

Masalan, integratsiyalashgan axborot tizimlari (ERP, SCM) joriy etilishi resurslar harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi, bu esa xizmat ko‘rsatish tezligi va barqarorligini oshiradi. Shuningdek, ta’minotchilar bilan uzoq muddatli strategik shartnomalar tuzish xarid jarayonidagi noaniqliklarni kamaytirib, narx barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti nafaqat moddiy-texnik vositalarni yetkazib berish jarayonini, balki ularni rejalashtirish, taqsimlash, zaxiralash, nazorat qilish va optimallashtirish kabi strategik boshqaruv funksiyalarini ham o‘z ichiga oladi. Resurs ta’minoti tizimining samaradorligi vaqt omili, sifat ko‘rsatkichi, xarajatlar samaradorligi va moslashuvchanlik kabi mezonlar asosida baholanadi.

Iqtisodiy mohiyat nuqtayi nazaridan, resurs ta’minoti boshqaruvi korxona xarajatlarini optimallashtirish, daromadlar barqarorligini ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tizim samaradorligini oshirishda strategik ta’minotchilar bilan uzoq muddatli hamkorlik, logistika jarayonlarini avtomatlashtirish va integratsiyalashgan axborot tizimlaridan (ERP, SCM) foydalanish muhim omillar hisoblanadi.

Amaliy jihatdan, resurs ta’minotini takomillashtirish xizmat ko‘rsatish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi, mijozlar qoniqishini oshiradi va korxona rentabelligini ko‘taradi. Natijada, xizmat ko‘rsatish korxonalari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu bois, xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minoti tizimini zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, ilg‘or axborot texnologiyalari va “yashil logistika” tamoyillari asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Chopra, S., Meindl, P. Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation. – 6th ed. – Boston: Pearson, 2016. – 524 p.

2. Christopher, M. Logistics and Supply Chain Management. – 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2017. – 347 p.

3. Lambert, D. M., Cooper, M. C. Issues in supply chain management // Industrial Marketing Management. – 2000. – Vol. 29(1). – P. 65–83.

4. Ivanov, D., Tsipoulanidis, A., Schönberger, J. Global Supply Chain and Operations Management. – Springer, 2019. – 578 p.

5. Xalmatov A. Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasida resurs ta’minotini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – №4. – B. 112–118.

6. Ismoilov B. R. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida strategik ta’minot siyosati va uni rivojlantirish yo‘nalishlari // Bozor, pul va kredit. – 2021. – №6. – B. 87–93.

7. Karimov M. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ehtiyojlarini prognozlash va logistika tizimini takomillashtirish // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2019. – №2. – B. 75–82.

8. Rasulov Sh. A. Raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatish sohasida resurs ta’minotini boshqarish // Iqtisod va moliya. – 2022. – №5. – B. 103–110.

9. Mamadaliev N. E. “Yashil logistika” tamoyillari asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurs ta’minotini tashkil etish masalalari // Logistika va ta’minot zanjirini boshqarish. – 2023. – №1. – B. 44–50.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-martdagi PQ–161-son qarori “Xizmatlar sohasini 2026-yilgacha rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”. – Lex.uz.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT BOSHQARUVINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

I.A.Sanakulova

Samarqand davlat univeristeti Kattaqo‘rg‘on filiali, Samarqand, O‘zbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Sanakulova Iroda Abrorovna
Samarqand davlat univeristeti Kattaqo‘rg‘on filiali
Email: *irodasanakulova06@gmail.com*
Tel: *+99877 404 47 22*

Received: 11 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 16 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlatimiz rahbariyati tomonidan raqamli iqtisodiyotga oid huquqiy asoslar hamda qonunlar yaratilib, elektron hukumat infratuzilmasi jadal o‘sishga erishdi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan bir qator farmon va qarorlar, yurtimizda raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumat tizimlarini joriy etish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirilgan holda aholiga tezkor, shaffof va qulay shaklda taqdim etishni ta’minlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Biznes, e-hukumat, elektron xizmatlar, soliq, bojxona tizimlari, raqamli transformatsiya.*

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. *В этой статье отмечается, что руководство нашей страны создало правовые основы и законы, касающиеся цифровой экономики, и достигло быстрого роста инфраструктуры электронного правительства. Ряд указов и постановлений, подписанных главой нашего государства Ш.М.Мирзиёевым, направлены на внедрение цифровой экономики, систем электронного правительства в нашей стране и обеспечение предоставления государственных услуг населению в цифровой форме в быстрой, прозрачной и удобной форме.*

Ключевые слова: *Бизнес, электронное правительство, электронные услуги, налоговые, таможенные системы, цифровая трансформация, цифровые технологии.*

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF PUBLIC ADMINISTRATION IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotation: *In this article, the leadership of our country has created a legal framework and laws related to the digital economy, and the e-government infrastructure has achieved rapid growth. A number of decrees and resolutions signed by the head of our state Sh.M.Mirziyoyev are aimed at ensuring the implementation of the digital economy, e-government systems in our country, and the provision of public services to the population in a fast, transparent, and convenient form in a digitized form.*

Keywords: *Business, e-government, electronic services, tax, customs systems, digital transformation, digital technologies.*

XXI asrga kelib raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanib, jahon miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga tub o‘zgarishlar olib kelayotganligi barchamiz uchun yangilik emas. Bu jarayon raqamli iqtisodiyot deb atalib, jahon mamlakatlarining iqtisodiyoti hamda siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurgan. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, samaradorlikni oshirish, korrupsiyaviy jarayonlarning ildiziga bolta urish shu bilan birgalikda aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Davlat boshqaruvi deganda, davlat organlarining tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati hisoblanib, ushbu faoliyat qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshiradi hamda ijro etish jarayonida qonunlarga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta‘minlash maqsadida farmoyish berish huquqiga egan hisoblanadi. Davlat boshqaruvi xalq deputatlari kengashining nazorati hamda rahbarligi ostida amalga oshiriladi. Bu faoliyat ijtimoiy turmushning barcha tarmoqlarida xususan, xalq xo‘jaligi, ijtimoiy hamda madaniy sohalarda va sohalararo tashkiol etilib, qonuniy hujjatlarga asoslanadi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni katta tezlik bilan amalga oshirilmoqda, bu esa mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda muhim omilga aylangan. Raqamli hukumat davlat boshqaruvini yanada samarali qilish va fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yaxshilash maqsadida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, e-hukumat va elektron xizmatlar, soliq va bojxona tizimlarida joriy etilgan raqamli platformalar bu sohalarda yanada o‘zgarishlarni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, e-hukumat platformalari orqali fuqarolar va biznes subyektlari davlat xizmatlariga onlayn tarzda murojaat qilib, zarur hujjatlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Shuningdek, davlat xodimlari o‘rtasida axborot almashinuvi va muloqotning samaradorligi oshmoqda, bu esa boshqaruv jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining davlat boshqaruvida ahamiyatni oshirishga harakat qilgan bo‘lishiga qaramay, raqamli transformatsiyaning ayni jarayonlari 2017-yildan so‘ng faollashdi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan raqamli iqtisodiyotga oid huquqiy asoslar hamda qonunlar yaratilib, elektron hukumat infratuzilmasi jadal o‘sishga erishdi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan bir qator farmon va qarorlar, yurtimizda raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumat tizimlarini joriy etish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirilgan holda aholiga tezkor, shaffof va qulay shaklda taqdim etishni ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayonning muhimligi hamda dolzarbligi, nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki raqamli texnologiyalar rivoji, mamlakatning iqtisodiy samaradorligini oshirish, korrupsiya ildiziga bolta urish va fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘li bilan jamiyatning barcha soha va tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda jamiyat hayotining har qanday jabhasini axborot-kommunikasiya texnologiyalarisiz tasavvur qilishning iloji yo‘q. Shunga muvofiq, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborotkommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, shunday chora-tadbirlarning yangi bosqichini, ustuvor vazifalarni belgilab berishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 5 oktyabrdagi PF6079-son Farmoni alohida ahamiyatga egadir. Ushbu Farmon Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Farmon bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, 2020 - 2022 yillarda hududlarni raqamli transformasiya qilish dasturlari, 2020 - 2022 yillarda tarmoqlarni raqamli transformasiya qilish dasturlari, hududlardagi 29 ta namunaviy tumanlarda (shaharlarda) 2020 yilda va 2021 yil I choragi yakuniga qadar raqamli transformasiya qilish loyihalarini ko‘zda tutuvchi “yo‘l xarita”lari hamda strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”lari tasdiqlanib, ularda amalga oshiriladigan tadbirlar, ularning muddatlari va mas'ul ijrochilari aniq belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston -2030” dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni ushbu sohadagi islohotlarning markaziy hujjati hamda isboti hisoblanadi. Ushbu dastur doirasida, mamlakatning barcha hududlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ular davlatning boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, davlat iqtisodiyotining raqobatbar-doshligini kuchaytirish hamda aholining farovonligini yuksaltirishga qaratirilgan. “Raqamli O‘zbekiston -2030” dasturi raqamli transformatsiyaning barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi: bu dastur davlat boshqaruvidan tortib iqtisodiyot, sog'liqni saqlash ta’lim, va boshqa muhim sohalar va tarmoqlargacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalishda qabul qilingan davlat hujjatlari, dasturlari, farmon va qarorlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarida katta o‘zgarishlarga zamin yaratadi.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilinganidan so‘ng davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog’liq bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, elektron hukumat xizmatlarining raqamli qamrovi kengaydi, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” faoliyati kuchaytirildi, davlat xizmatlari hamda raqamli tranformatsiyalarning integratsiyasi amalga oshirildi hamda ushbu xizmatlarining 70% dan ortig‘i raqamlashtirildi. Xususan, soliq, bojxona, notarius, pasportlash va kadastr tizimlarida raqamli transformatsiya

bosqichma-bosqich yakunlandi. Biroq, hozirgi holat shuni ko‘rsatadiki, to‘liq, mukammal va barqaror raqamli boshqaruv tizimiga erishish uchun bir qator dolzarb muammolar bartaraf etilishi zarur.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimiga tub o‘zgarishlar olib kirmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), blokcheyn va “aqlli shahar” konsepsiyalari davlat xizmatlarini samarali, shaffof va tezkor tashkil etishda asosiy vositaga aylanmoqda. Bu jarayon davlat boshqaruvi sifatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va aholiga qulay sharoit yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston ham bu borada “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida keng ko‘lamli islohotlar olib bormoqda.

2. Asosiy rivojlanish tendensiyalari

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruvi quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

1. Elektron hukumat (e-Government) — davlat xizmatlarini onlayn ko‘rsatish tizimining kengayishi.
2. Ochiq ma’lumotlar (Open Data) — davlat tashkilotlarining statistik va boshqa ma’lumotlarni ochiq taqdim etishi.
3. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish — qaror qabul qilishda AI texnologiyalaridan foydalanish.
4. Blokcheyn texnologiyalari — davlat reyestrlarini ishonchli yuritish.
5. Masofaviy boshqaruv va onlayn yig‘ilishlar — pandemiya davridan so‘ng keng joriy etilgan.
6. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish — davlat ma’lumotlarini himoya qilishning ilg‘or usullari.

3. Tahliliy jadval

Yo‘nalish	**Amaldagi tendensiya**	**Kutilayotgan natija**	**O‘zbekiston tajribasi**
Elektron hukumat	Xizmatlarning 80% onlayn	Byurokratiya kamayishi, vaqt tejalishi	my.gov.uz portali
Ochiq ma’lumotlar	Ochiq ma’lumotlar bazalari soni ortmoqda	Shaffoflik va ishonch oshishi	data.gov.uz platformasi
Sun’iy intellekt	Soliq, transport, tibbiyotda qo‘llanmoqda	Qarorlar tez va aniq bo‘lishi	Davlat soliq qo‘mitasi AI risk tahlili
Blokcheyn	Huquqiy tajriba bosqichida	Korrupsiya xavfini kamaytirish	Yer kadastrida blokcheyn pilot loyihalari
Kiberxavfsizlik	Himoya tizimlari modernizatsiya qilinmoqda	Ma’lumotlarning ishonchli saqlanishi	Kiberxavfsizlik markazi tashkil etilgan

Xulosa

Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruviga quyidagi asosiy ijobiy ta’sirlarni ko‘rsatmoqda:

- Samaradorlik — xizmatlar tezroq va aniqroq bajariladi.
- Shaffoflik — korrupsiya xavfi pasayadi.
- Aholi uchun qulaylik — xizmatlardan masofadan foydalanish imkoniyati kengayadi.

- Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv — qarorlar real vaqtdagi ma’lumotlarga tayangan holda qabul qilinadi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik xatarlarining oshishi, raqamli tengsizlik va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjud.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat boshqaruvining rivojlanishi zamonaviy davlatni samarali, shaffof va aholiga yaqinlashtirish yo‘lidagi muhim bosqichdir. O‘zbekiston bu borada aniq strategiya va chora-tadbirlar belgilagan bo‘lib, kelgusida elektron xizmatlar sifatini oshirish, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi ilg‘or texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali davlat boshqaruvi tizimi yanada takomillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html
3. Safarova N.N. Milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta’sirini prognozlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent 2018 y. -19-21 b.
4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.
5. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Diss. PhD. – T.: TDTU, 2021. 13-14-b.
6. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.
7. https://lex.uz/docs/6102462
8. UNDP Human Capital and Sustainable Development: Global Trends and National Strategies. United Nations Development Programme, New York. 2021.
9. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. “The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan” https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25
10. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova “Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan” ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

Internet ma’lumotlari:

11. https://siat.stat.uz/reports-filed/3505/table-data
12. https://www.lex.uz
13. https://www.un.org/ru/
14. https://www.who.int/
15. https://ec.europa.eu/eurostat
16. https://www.pewresearch.org/

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

T.U.Nurimbetov

Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Nurimbetov Timur Uzakbergenovich
Qoraqalpoq davlat universiteti xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori
Email: *timurnurimbetov@gmail.com*

Received: 20 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 11 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasining bugungi holati, rivojlanish yo‘nalishlari va muammolari tahlil qilingan. Mavjud qayta ishlash korxonalari soni, ishlab chiqarish quvvatlari va eksport salohiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda bir qator muhim strategiya va dasturlar haqida hamda, davlat siyosatining roli, investitsiyaviy loyihalar, klasterlashtirish va agrologistika markazlari tashkil etish kabi chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalt so‘zlar: *Qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, infratuzilma, eksport, investitsiya, klaster, agrologistika.*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ ПЕРЕРАБОТКИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

Аннотация: *В статье анализируются текущее состояние, тенденции развития и проблемы инфраструктуры переработки сельскохозяйственной продукции в Узбекистане. Приводится информация о количестве действующих перерабатывающих предприятий, производственных мощностях и экспортном потенциале. Обсуждается ряд важных стратегий и программ, реализованных правительством Узбекистана в последние годы для совершенствования системы переработки сельскохозяйственной продукции, а также роль государственной политики, инвестиционных проектов, кластеризации и создания агрологистических центров.*

Ключевые слова: *Переработка, сельское хозяйство, пищевая промышленность, инфраструктура, экспорт, инвестиции, кластер, агрологистика.*

PROSPECTS FOR DEVELOPING INFRASTRUCTURE FOR PROCESSING AGRICULTURAL PRODUCTS

Annotatsion: *The article analyzes the current state, development trends and problems of the agricultural processing infrastructure in Uzbekistan. Information is provided on the number of existing processing enterprises, production capacities and export potential. A number of important strategies and programs implemented by the government of Uzbekistan in recent years to improve the agricultural processing system are discussed, as well as the role of state policy, investment projects, clustering and the establishment of agrologistics centers.*

Keywords: *Processing, agriculture, food industry, infrastructure, export, investment, cluster, agrologistics.*

Kirish.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash – qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘shimcha qiymat yaratish va mahsulotlar qiymatini oshirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Chuqur qayta ishlash orqali xom ashyodan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish eksportbop va raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z agrar salohiyati bilan ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga intilayapti. 2019 yili tasdiqlangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida meva-sabzavot yetishtirish, saqlash, chuqur qayta ishlash va eksportni barqaror oshirib borish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati turli mulkchilik shaklidagi minglab korxonalar tarmog‘idan iborat bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash iqtisodiyotning muhim tarmog‘iga aylanib bormoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada umumiy ro‘yxatdan o‘tgan oziq-ovqat sanoati korxonalari soni 28,7 mingtani tashkil etadi, shundan 16,5 mingta korxona faoliyat yuritmoqda. Qolgan qismi turli sabablar bilan vaqtincha yoki to‘xtatilgan holda turibdi. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning taxminan 1,2 mingtasi meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan bo‘lsa, 1,3 mingtasi sutni qayta ishlash korxonalari va 668 tasi go‘shtni qayta ishlash korxonalaridir; qolgan 13,4 mingta sub’ekt esa non, yog‘-moy, konservalar, ichimliklar va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Bu ko‘rsatkichlar qayta ishlash tarmog‘ining qamrovi keng ekanini ko‘rsatadi [2].

Oziq-ovqat sanoati yalpi sanoat ishlab chiqarishida salmoqli ulushga ega. 2020 yilga kelib oziq-ovqat sanoatining sanoat tarmoqlari umumiy hajmidagi ulushi 16,7% ni tashkil etgan edi. So‘nggi uch yilda ushbu ulush yanada oshib, 2023 yilda 16,6% ga yetgani qayd etilgan, bu oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sur’atlari umumiy sanoat o‘sishidan baland bo‘lganini anglatadi. Oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining umumiy qiymati ham dinamik o‘sish ko‘rsatib, 2019 yilda 35,3 trln so‘m bo‘lgan yalpi oziq-ovqat sanoati mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2023 yilga kelib ikki baravardan ko‘proq miqdorga, ya’ni 86,3 trln so‘mga yetdi. Bu o‘sishga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni rag‘batlantirishga qaratilgan islohotlar va investitsion loyihalar turtki bo‘ldi. Shuningdek, 2023 yil yakunlari bo‘yicha oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining eksport hajmi 1,3 mlrd AQSh dollariga yaqinlashib, o‘tgan yilga nisbatan 1,3 barobar o‘sishga erishilgani ma’lum qilindi. Eksport qilingan mahsulotlar orasida meva-sabzavot konservlari, tomat pastasi, sharbat va nektarlar, quritilgan meva hamda sabzavotlar, sut va go‘sht mahsulotlari salmoqli o‘rin tutmoqda [3].

Qayta ishlash infratuzilmasi tarkibiga qishloq xo‘jaligi xom ashyosini qabul qilish punktlari, saqlash omborlari (shu jumladan, sovitkichli kameralar), tashish vositalari, zavod va sexlar, qadoqlash uskunalari va mahsulotni standartlash hamda sertifikatlash uchun laboratoriyalar kiradi. Hozirgi kunda respublika bo‘yicha meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashning o‘rnatilgan yillik quvvati 3,25 mln tonna atrofida, sutni qayta ishlash quvvati 3,1 mln tonna va go‘shtni qayta ishlash

quvvati 458 ming tonnaga yetkazilgani qayd etilgan. Bu raqamlar 2023 yil davomida quvvatlarni sezilarli oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilganini ko‘rsatadi (masalan, meva-sabzavot qayta ishlash quvvati +185 ming tonnaga ko‘paygan). Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy yetishtirilgan hajmi bilan solishtirilganda, qayta ishlangan qism hali nisbatan kam ulushni tashkil etadi. Masalan, 2023 yili mamlakat bo‘yicha 11,6 mln tonna sabzavot, 3,1 mln tonna meva va 2,6 mln tonna poliz ekinlari yetishtirilgani hisobga olinsa, meva-sabzavot mahsulotlarining qayta ishlanish darajasi taxminan 18% atrofida ekani ko‘rinadi. Xuddi shunday, yillik sut yetishtirish 12 mln tonnaga yaqin bo‘lib, uning taxminan choryak qismi sanoat usulida qayta ishlanmoqda, qolgan qismi esa hozircha qayta ishlanmagan holda iste’mol yoki sotuvga yo‘naltirilgan. Bu holat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasida hali katta zaxira va imkoniyatlar mavjudligini anglatadi [4].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda bir qator muhim strategiya va dasturlar amaliyotga tadbiq etilmoqda. Ularning asosiy maqsadi – **qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish**, ya’ni yetishtirishdan tortib yakuniy mahsulotni eksport qilishgacha bo‘lgan bosqichlarda samarali infratuzilma yaratishdir.

Davlat dasturlarida 2030 yilgacha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini sezilarli oshirish belgilangan. Jumladan, Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish **2020–2030 strategiyasi** doirasida qayta ishlash ulushini 2030 yilga borib 30% ga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Buni amalga oshirish uchun respublikada qo‘shimcha 3,4 mln tonna qayta ishlash quvvatlarini barpo etish rejasi mavjudligi ham ushbu strategik hujjatda qayd etilgan. Strategiya ijrosi natijasida agrar sektorning qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyati keskin ortishi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmining mutanosib ravishda ko‘payishi kutilmoqda [5].

Qayd etilgan davlat siyosati va loyihalarning izchil amalga oshirilishi yaqin va o‘rta muddatli istiqbolda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasini yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. **2030 yilga qadar** belgilangan maqsadlarga erishilsa, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi keskin oshadi va qishloq xo‘jaligida qo‘shilgan qiymat sezilarli darajada yuksaladi. Strategik rejalarga muvofiq, agrosanoat majmuida yaqin 5 yil ichida yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga ko‘paytirish va oziq-ovqat mahsulotlari eksport ko‘rsatkichlarini 2 baravarga oshirish ko‘zlangan. Buni amalga oshirish uchun qayta ishlash korxonalari raqobatbardosh mahsulotlar turini kengaytirishi va yangi bozorlarga chiqishi zarur bo‘ladi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda va dastlabki samaralarini bermoqda. Sohada faol korxonalar soni ortib, yangi quvvatlar ishga tushirilmoqda, oziq-ovqat sanoati ulushi iqtisodiyotda ortayotgani kuzatilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, mavjud quvvatlardan to‘liq foydalanish va mahsulotlar sifati hamda turini yaxshilash uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, klaster va kooperatsiyani kuchaytirish, ilg‘or texnologiyalarni jalb etish ishlari

davomiyligi talab etiladi. Davlat tomonidan belgilangan strategiya va loyihalar o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshsa, yaqin kelajakda O‘zbekiston nafaqat o‘z ichki talabini to‘liq qondiruvchi, balki qishloq xo‘jaligi xom ashyosidan yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarib eksport qiladigan barqaror agro-sanoat iqtisodiyotiga ega mamlakatga aylanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish asoslari.

Hozirgi kunda mamlaktimizda qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirishda bajariladigan ishlarni mexanizatsiyalash darajasi ancha past bo‘lib, bu ko‘rsatgich paxtachilikda 70-75%, g‘allachilikda 85-90%, em-xashak tayyorlashda 80-85%, sabzavot-polizchilikda 70-75%, bog‘ va uzumchilikda esa 50-55% ni tashkil etmoqda. Shu bilan birga etishtirilgan ishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash ishlari ham talab darajasida emas.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakat milliy iqtisodiyotidagi o‘rni juda muhim bo‘lib, aholining 63 foizi qishloqda yashaydi. Mehnatga yaroqli aholi bandligining 35 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Shuni alohida takidlash kerakki, hozirgi davrda texnikalar kuchi bilan har qanday cho‘lni go‘zal, yashnagan vodiyga aylantirish mumkin, lekin bir vaqtni o‘zida uning aksi ham bo‘lishi hech gap emas. Shuning uchun texnikani qo‘llashda nihoyatda ehtiyot bo‘lish talab etiladi, har bir traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasini to‘g‘ri ishlatish, ulardan to‘g‘ri foydalanish, har bir ishni qachon

va qanday amalga oshirishni bilish qishloq xo‘jaligi sohasida ishlaydigan har bir mutaxassis uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash infratuzilmasi so‘nggi yillarda sezilarli ravnaq topdi va ushbu yo‘nalishdagi islohotlar davom etmoqda. Maqolada keltirilgan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, oziq-ovqat sanoatida korxonalar soni va quvvatlari oshib borayotgan bo‘lsa-da, ularning ko‘p qismi to‘liq quvvat bilan ishlayotgani yo‘q. Muammolar asosan texnologik yangilanish zarurati, xom ashyo ta’minotida uzilishlar va infratuzilma bo‘g‘inlarining yetarlicha uyg‘unlashmaganida namoyon bo‘ladi. Davlatning qishloq joylarda qayta ishlash va saqlash tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlari o‘z samarasini bermoqda: agrologistika markazlari tashkil etilmoqda, qishloq xo‘jaligi kooperativlari tuzilib, xom ashyo bazasi mustahkamlanmoqda, investitsiyalar yordamida yangi zamonaviy korxonalar qurilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. PF-5853-сон 23.10.2019. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

2. “Qishloq xo‘jaligini o‘z vaqtida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash mexa nizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.05.2018 yil PQ-3712 son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (2019) – *“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”*, 2019 yil 29 oktabr

4. “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llabquvvatlashga oid chora- tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son qarori.

5. “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-36 (2024) – *“Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”*, 2024 yil 16 fevral.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ-113 (2023) – *“2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”*, 2023 yil 5 aprel.

8. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot etishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik kartalar. 2016-2020 y.y. Toshkent. 2016, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, 1- 2 qismlar.

9. *“Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash”*, Advice.uz portali, qishloq xo‘jaligida mahsulotlarni qayta ishlashning ahamiyatiga doir tushuntirish materiali

HUDUDIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK-INNOVATSION KLASTERLARNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

A.Q.Erbo‘tayev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Erbo‘tayev Azimjon Qahramon o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
Email: *azimjon.erbotayev96@mail.ru*
Tel: *+998 90 102 97 96*

Received: 20 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 11 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizm sohasida innovatsion klasterlarni shakllantirishning iqtisodiy va institutsional asoslari hamda ularning hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Turizm-innovatsion klasterlar – bu turizm resurslarini samarali boshqarish, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlar sifatini oshirish orqali hududda iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladigan ko‘p subyektli tizimdir.*

Kalit so‘zlar: *turizm klasteri, innovatsion rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, klaster yondashuvi, davlat-xususiy sheriklik, turistik-innovatsion klaster, institutsional mexanizm, raqobatbardoshlik, resurs integratsiyasi, turizm eksporti.*

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТСКО-ИННОВАЦИОННЫХ КЛАСТЕРОВ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация: *В статье анализируются экономические и институциональные основы формирования инновационных кластеров в сфере туризма и их роль в развитии экономики региона. Туристско-инновационные кластеры представляют собой многосубъектную систему, способствующую активизации экономической деятельности в регионе посредством эффективного управления туристскими ресурсами, разработки инновационных продуктов и повышения качества услуг.*

Ключевые слова: *туристический кластер, инновационное развитие, региональная экономика, кластерный подход, государственно-частное партнерство, туристско-инновационный кластер, институциональный механизм, конкурентоспособность, интеграция ресурсов, экспорт туризма.*

INSTITUTIONAL BASIS AND DEVELOPMENT MECHANISMS OF TOURISM-INNOVATION CLUSTERS IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY

Annotation: *This article analyzes the economic and institutional foundations of the formation of innovative clusters in the tourism sector and their role in the development of the regional economy. Tourism-innovation clusters are a multi-subject system that serves to strengthen economic activity in the region through the effective management of tourism resources, the development of innovative products and improving the quality of services.*

Keywords: *tourism cluster, innovative development, regional economy, cluster approach, public-private partnership, tourism-innovation cluster, institutional mechanism, competitiveness, resource integration, tourism export.*

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizda boy madaniy meros, tarixiy obidalar, rang-barang milliy urf-odatlar, noyob tabiiy manzaralar va mehmondo‘st xalq borligi turizm salohiyatining yuksak ekanligini ko‘rsatadi. Shu boisdan, turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish mumkin.

Zamonaviy iqtisodiyotda klaster yondashuvi turli sohalarda, xususan, turizmda ham muhim rol o‘ynaydi. Turizm klasteri – bu bir hududda joylashgan, turizm bilan bog‘liq xizmatlar va mahsulotlarni taklif qiluvchi tashkilotlar, korxonalar, ta’lim muassasalari, infratuzilma obyektlari va boshqa ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi asosida shakllangan tizimdir. Bunday klasterlar orqali resurslar yanada samarali taqsimlanadi, innovatsion g‘oyalar tezroq joriy qilinadi va xizmatlar sifati oshadi.

Shuningdek, turizm klasterini samarali tashkil etish va uni davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish bu sohada muvozanatli rivojlanishni ta’minlaydi. Qonunchilik bazasini mustahkamlash, infratuzilmalarni rivojlantirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlili.

Turizm sohasining rivojlanishi va hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni haqidagi ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlarda, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham keng tarqalgan. Turizm industriyasining innovatsion rivojlanishi, klasterlar tashkil etilishi va davlat boshqaruvi tizimining roli haqida o‘tkazilgan tadqiqotlar turizmning barqaror rivojlanishiga olib keladigan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon bermoqda.

O‘zbekiston olimlari turizm klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishda hududiy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, X.D.Turg‘unov o‘z tadqiqotlarida turizmning hududiy rivojlanishdagi o‘rni va turistik resurslardan samarali foydalanishning muhimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, turizm klasterlari hududiy iqtisodiyotning samarali rivojlanishida asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular hududdagi turizm resurslarini birlashtirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Turg‘unovning ta’kidlashicha, hududiy boshqaruv tizimi samarali bo‘lsa, turizm sektori o‘zining potentsialini to‘liq amalga oshira oladi.

Shuningdek, A.A.Azizov o‘z ilmiy ishlarida turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. U turizm klasterlarini tashkil etishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ekologik va madaniy merosni saqlash, va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish kerakligini yozadi. Azizov, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan investitsiyalar va loyihalar orqali turizmni rivojlantirishning samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, Sh.J.Qodirov turizmni rivojlantirishda ilmiy, ta’lim va konsalting tashkilotlari hamkorligi zarur ekanligini ta’kidlagan. Uning fikricha, turizm-innovatsion klasterlar nafaqat

hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlariga talabni oshirish va turizm resurslaridan samarali foydalanishga ham katta hissa qo‘shadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda turizm klasterlarining mavjud holatini o‘rganish uchun tahlil va sintetik metodlar qo‘llanildi. Bu metod orqali turizm sohasidagi klasterlar va innovatsion tizimlarning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar, mavjud muammolar va ularga qarshi kurashish usullari aniqlanadi. Shuningdek, turizm-innovatsion klasterlar faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari tahlil qilindi. Tahlil metodidan foydalangan holda, turizm klasterlarining hududiy iqtisodiyotga ta’siri va ularning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida davlat boshqaruvi turizm klasterlari doirasida iqtisodiy faoliyatning yangi sharoitlariga moslashishi kerak. Klasterni qurish va rivojlantirish funksiyalarni aniq taqsimlash bilan birgalikdagi faoliyatda kuchlarni birlashtirishni nazarda tutadi, agar ular bo‘lmasa, har bir alohida tuman yoki shahar o‘z muammolarini to‘liq va samarali hal qila olmaydi.

Turistik klasterni yaratishda dastlabki bosqichida tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayoni hududiy hokimiyat organlariga tegishli bo‘lishi va davlat-xususiy sheriklik doirasida amalga oshirilishi kerak. Bunday birlashma barcha ishtirokchilarning teng manfaatlarini hisobga olgan holda ixtiyoriy asosda tuzilishi, hududiy darajadagi birlashmalar esa, o‘z navbatida, ushbu hududlardagi korxonalar birlashmasiga ham tashabbus ko‘rsatishi kerak. Shu bilan birga, hududiy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yangi qurilishlarni rejalashtirishi, yirik loyihalar, ekologik dasturlarni amalga oshirishi, hududda qulay investitsiya muhitini yaratish muammolarini hal etishga qodir muvofiqlashtiruvchi rolini o‘ynashi kerak.

Hududlarda klaster siyosatini amalga oshirish sanoatni innovatsion rivojlantirish va hududiy iqtisodiyotni jonlantirishda muhim rol o‘ynaydi, jumladan:



1-rasm. Hududlarda klaster siyosatini amalga oshirish istiqbollari

Klaster siyosatining samarali amalga oshirilishi hudud iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi va uning vazifalari quyidagi yo‘llar orqali jadallashtirishga olib keladi:

– hududning savdo balansi, aholi bandligi darajasi, byudjetga ajratmalarning o‘sishi va boshqalar ko‘rsatkichlarini yaxshilanishi;

– asosiy innovatsiyalarni ma’lum vaqt va ma’lum bir iqtisodiy makonda birlashtirish va yangi texnologiyalar va bilimlarni uzatish tizimini yaratish;

– texnologik bilimlarning turli manbalaridan va texnologik aloqalardan foydalanish;

– umumiy innovatsion mahsulotni umumiy iqtisodiy makonda mavjud munosabatlar orqali tarqatish;

– mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish.

Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda taqdim etilgan turizm sohasining innovatsion rivojlanishini ta’minlash yondashuvlarini o‘rganish, uning rivojlanish muammolari va omillarini aniqlash, hudud iqtisodiyotiga ta’sirini baholash, turizm va innovatsion rivojlanishning institutsional asoslarini takomillashtirish imkonini berdi. Turizm industriyasining innovatsion rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolda hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashga olib keladi, chunki uning ta’siri quyidagi uchta komponentning birligida namoyon bo‘ladi:

– iqtisodiy (byudjet daromadlarining ortishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlariga talabning oshishi va boshqalar);

– ijtimoiy (aholi migratsiyasining qisqarishi, bandlik darajasini oshishi, xizmat ko‘rsatish va turistik faoliyatni rivojlantirish va boshqalar);

– atrof-muhit (atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari va boshqalar).

Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasidagi innovatsion faoliyatning roli 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Bir qator mualliflar innovatsion klasterlarni protoklasterlar va sanoat klasterlari bilan bir qatorda hududiy klasterlarning modellaridan biri sifatida qarashadi. Mualliflarning ta’kidlashicha, innovatsion klasterlarning o‘ziga xos xususiyati, ularning tashqi bozorlarga yo‘naltirilganligi va eksportni rivojlantirishi hisblanadi.

Shu bilan birga, respublikamiz hududlarida turizm industriyasini rivojlantirishning asosiy muammosi, turistik mahsulotning mazmuniga va uni tashqi bozorlarga olib chiqishga yetarlicha e’tibor bermaslikdir. Bundan tashqari, eksportga yo‘naltirilgan turizm klasteri tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, moliyaviy va intellektual resurslar integratsiyasida namoyon bo‘ladigan bunday klasterning innovatsion xususiyatini aniqlash zarur.

“Turistik va innovatsion klaster” tushunchalarining mohiyatini “turistik klaster” va “innovatsion klaster” tushunchalarining kombinatsiyasi orqali ham ko‘rib chiqish mumkin.

“**Turistik klaster”** – turistik mahsulot va xizmatlarni yaratish, turizm bozorida raqobatbardoshlikka erishish maqsadida ma’lum bir hududning turistik resurslaridan foydalanadigan tadbirkorlik tuzilmalari, hokimiyat davlat organlari, turizm sohasida faoliyat yurituvchi jamoat tashkilotlari va turdosh tarmoqlar yig‘indisidir.

Innovatsion klaster deganda, yangi texnologiyalardan foydalanishni osonlashtirish, risklarni taqsimlash, hududning raqobatbardoshligini

oshirishga o‘zaro hissa qo‘shadigan yangi bilimlar, mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish va tarqatish bo‘yicha o‘z faoliyatini amalga oshiradigan turli xil mulkchilik shaklidagi tashkilotlar majmui tushuniladi.

Ikkala ta’rif ham tizimli yondashuvga mos keladi va turistik va rekreatsion klasterning quyidagi ta’rifini shakllantirishga imkon beradi.



2-rasm. Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda dam olish va turizm sohasidagi nnovatsion faoliyatning ahamiyati

Turistik-innovatsion klaster – innovatsion ishlanmalar asosida yakuniy yuqori raqob

atbardosh turizm mahsulotini (xizmatini) yaratish maqsadida xususiy va davlat korxonalari, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududidagi birlashmadir.

Xorijiy yondashuvlarni o‘rganish natijalariga ko‘ra, biz, turizm va innovatsion klasterlarning quyidagi xususiyatlarini aniqladik:

– ilmiy, konsalting va ta’lim tashkilotlarini o‘z ichiga olgan klaster ishtirokchilarining maxsus tuzilmasi;

– rivojlangan innovatsion infratuzilma, yuqori malakali

mutaxassislar va investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish;

– tashqi bozorlarga yo‘naltirilganlik;

– intellektual va moliyaviy resurslarni birlashtirish;

– innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.

Shunday qilib, biz “turistik innovatsiyalar klasteri” kategoriyasining asosiy elementlarini aniqladik (faoliyatning xususiyatlari va maqsadlari, funksiyalari va ishtirokchilari) va ular uning mazmunini ifodalaydi. “Turistik innovatsiyalar klaster” kategoriyasining tarkibiy elementlari 3-rasmda keltirilgan.

“Turistik klaster” va “innovatsion klaster” tushunchalarini aniqlashga yondashuvlarni o‘rganish natijasida uchta asosiy yondashuv aniqlandi: tizimli (ob’ektlar va sub’ektlar tizimi), tarkibiy (sub’ektlarning batafsil tuzilishi) va jarayonli (hamkorlik jarayoni, sa’y-harakatlarni birlashtirish). Biz “turistik va innovatsion klaster” (TIC) tushunchasini ta’riflashda tizimli yondashuvdan foydalanishni taklif qilamiz: bular turizm sohasidagi tashkilotlarning keng doirasini yaratish, rivojlantirish va tarqatish bo‘yicha faoliyatni birgalikda amalga oshiradigan majmuadan iborat turizmani tashkil etadi.

Turizm va innovatsiyalar klasteri faoliyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– turizm industriyasi va turdosh sohalarda (davlat-xususiy sheriklik, assotsiatsiyalar shaklida) faoliyat yurituvchi turizm va innovatsion klaster subektlari (xo‘jalik tuzilmalari, hokimiyat va davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy va ta’lim tashkilotlari) o‘rtasida hamkorlik mavjudligi; kasaba uyushmalari va boshqalar);

– turistik-innovatsion klaster sub’ektlari tomonidan turistik obektlar joylashgan hududning (turizm-innovatsion klaster ob’ekti) turizm resurslaridan birgalikda foydalanishi;

– klaster a’zolari o‘rtasida vertikal (turizm industriyasining oziq-ovqat zanjiri doirasida) va gorizontal (turizm mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi tuzilmalar o‘rtasida) o‘zaro aloqalarning mavjudligi;

– turizm-innovatsion klaster faoliyatining yagona maqsadining mavjudligi, ya’ni klaster ob’ektlari va subektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsiyalarni joriy etish orqali rekreatsion ehtiyojlarni qondirish.

Turizm mahsuloti turizm sohasi va tegishli sohalardagi bir qator korxona va tashkilotlar tomonidan shakllantiriladi va taqdim yetiladi, shu sababli turizm bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sifati birinchi o‘ringa chiqadi, bu yagona mahsulotni ishlab chiqish va yetkazib berish doirasidagi hamkorlikda ham, iste’molchi uchun sog‘lom raqobatda ham namoyon bo‘ladi. Turizm bozori ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarining mavzularidan biri innovatsiyalardir, chunki innovatsion turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, innovatsion turizm resurslarini muomalaga jalb qilish, nostandart biznes jarayonlarini (masalan, logistika yoki marketing sohasida) joriy etish bozorning bitta ishtirokchisi yoki faqat davlat organlari tomonidan amalga oshirilmaydi. Bu, birinchi navbatda, turizm industriyasining institutsional tuzilishini isloh qilish va arxitektura innovatsiyalarini joriy etishni talab qiladi.

3-rasm. “Turistik-innovatsion klaster” toifasi atributlari

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyati jihatidan Markaziy Osiyodagi yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mavjud tabiiy, madaniy va tarixiy resurslardan samarali foydalanish, ularni innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shu nuqtai nazardan, turizm klasterlarini yaratish va ularni davlat tomonidan samarali tartibga solish mamlakatimizda turizm industriyasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, turizm-innovatsion klasterlar hududiy iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Ular nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ijtimoiy barqarorlik, aholi bandligini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday klasterlar yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish, risklarni taqsimlash va bozor raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, turizm klasterlarini muvaffaqiyatli shakllantirishda davlatning faol ishtiroki, ya'ni normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamkorlik esa klasterlar samaradorligini yanada oshiradi.

Yakunda aytish mumkinki, O‘zbekistonda turizm klasterlarini shakllantirish va ularni davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish, nafaqat turizm sektorining rivojlanishiga, balki butun iqtisodiyotning innovatsion o‘sishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. Ushbu yo‘nalishda ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish kelajakda mamlakatimizda zamonaviy, barqaror va raqobatbardosh turizm industriyasini yaratishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Turg‘unov X.D. Turizm va hududiy iqtisodiyot. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2021-y.
2. Azizov A.A. Innovatsion yondashuvlar asosida turizmni rivojlantirish. Tashkent: O‘zbekiston iqtisodiyot akademiyasi nashriyoti, 2020-y.
3. Qodirov Sh.J. Turizm sohasida ilmiy va ta’lim tashkilotlari hamkorligi. Tashkent: O‘zbekiston ilmiy-akademik nashriyoti, 2019-y.
4. Aliyev F. Global miqyosda turizm klasterlari: innovatsiyalar va raqobatbardoshlik. Journal of Tourism Research, 15(2), 58-67, 2022-y.
5. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.
6. Porter M. Raqobat ustunligi. Harvard Business Review, 2020.
7. Kotler P., Bowen J., Marketing for Hospitality and Tourism. Pearson, 2019.
8. OECD Investing in Human Capital: A Pathway to Economic Growth and Social Inclusion. OECD Publications, Paris. 2020.
9. UNDP Human Capital and Sustainable Development: Global Trends and National Strategies. United Nations Development Programme, New York. 2021.
10. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. “The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan” https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25
11. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova “Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan” ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

Internet ma’lumotlari:

12. https://siat.stat.uz/reports-filed/3505/table-data
13. https://www.lex.uz
14. https://www.un.org/ru/
15. https://www.who.int/
16. https://ec.europa.eu/eurostat
17. https://www.pewresearch.org/
18. https://www.springer.com/
19. https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?contextual=default&locations=UZ&view=chart
20. https://lex.uz/docs/6102462

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA INSON KAPITALINING KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

U.R.Eshbo'riyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Eshbo'riyev Umarbek Rashidovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti
Email: *umarbek.eshburiyev@gmail.com*
Tel: *+998 91 550 50 99*

Received: 20 May 2025
Revised: 28 May 2025
Accepted: 11 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirishda inson kapitalining o'rni va ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Inson kapitalining tarkibiy qismlari – ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, malaka, motivatsiya va salomatlik holatining kichik biznesning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri miqdoriy va sifat jihatidan o'rganildi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali kadrlar, kasbiy tayyorgarlik va samarali rag'batlantirish tizimlari kichik biznesning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Tahlil natijalari asosida inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish, malaka, kasb-hunar ta'limi, motivatsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimi, innovatsion salohiyat, mehnat unumdorligi, raqobatbardoshlik, tadbirkorlik vakolatlari, biznes samaradorligi.*

ВЛИЯНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье представлен углубленный анализ роли и влияния человеческого капитала на развитие малого бизнеса в Республике Узбекистан. Изучено количественное и качественное влияние компонентов человеческого капитала – образования, профессиональной подготовки, навыков, мотивации и состояния здоровья – на экономическую эффективность малого бизнеса. Результаты исследования показывают, что высококвалифицированные кадры, профессиональная подготовка и эффективные системы стимулирования являются важным фактором конкурентоспособности и устойчивого развития малого бизнеса. На основе результатов анализа разработаны стратегические рекомендации по развитию человеческого капитала.*

Ключевые слова: *малый бизнес, человеческий капитал, экономическое развитие, навыки, профессиональная подготовка, мотивация, здравоохранение, система образования, инновационный потенциал, производительность труда, конкурентоспособность, предпринимательские компетенции, эффективность бизнеса.*

THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL ON SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF INNOVATION DEVELOPMENT

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the role and impact of human capital on the development of small businesses in the Republic of Uzbekistan. The impact of the components of human capital - education, professional training, skills, motivation and health status - on the economic efficiency of small businesses was studied quantitatively and qualitatively. The results of the study show that highly qualified personnel, professional training and effective incentive systems are an important factor in the competitiveness and sustainable development of small businesses. Based on the results of the analysis, strategic recommendations for the development of human capital were developed.*

Keywords: *small business, human capital, economic development, skills, vocational training, motivation, healthcare, education system, innovative potential, labor productivity, competitiveness, entrepreneurial competencies, business efficiency.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlashda kichik biznes subyektlarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish, bandlikni ta’minlash, hududiy farqlarni kamaytirish va ijtimoiy–iqtisodiy muvozanatni saqlashda kichik biznes muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab–quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Ayni vaqtda, kichik biznesni rivojlantirishning samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslarga, balki inson kapitalining sifati va salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Chunki zamonaviy biznes yuritish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda malakali, bilimli va ijtimoiy faollikka ega inson resurslarining roli beqiyosdir. Inson kapitali – bu faqatgina bilim va ko‘nikmalarning jamlanmasi emas, balki tashabbuskorlik, kasbiy kompetensiyalar, sog‘liq, kommunikatsion salohiyat va ijodiy fikrlash kabi ko‘rsatkichlarni ham o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish, xususan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasbiy tayyorlovni kuchaytirish, sog‘liqni saqlashni yaxshilash va ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida kichik biznesda malakali kadrlar ulushi ortib, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shu jihatdan olib qaralganda, kichik biznesning barqaror rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi ulushining ortishi uchun inson kapitalining ta’sirini kompleks tarzda o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va bu yo‘nalishda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy–amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston va jahon miqyosida inson kapitali va kichik biznes o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish so‘nggi yillarda iqtisodiy nazariyada dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, kichik biznesning barqaror rivojlanishida inson omilining ta’siri, ya’ni bilim, malaka, salomatlik, kasbiy tayyorgarlik, innovatsion qobiliyatlar va ijodiy fikrlash kabi tarkibiy elementlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda.

Dastlab, inson kapitali nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan G. Bekker (Gary Becker) o‘zining tadqiqotlarida inson salohiyatini iqtisodiy resurs sifatida talqin qilib, uni ishlab chiqarish omili sifatida baholagan. Bekkerga ko‘ra, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar – ta’lim, sog‘liqni saqlash va professional tayyorgarlik – iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biridir [1].

Theodore Schultz esa inson kapitalini “rivojlanishning eng muhim manbasi” sifatida talqin qilib, uni ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatgan. Uning fikriga ko‘ra, kambag‘allikni bartaraf etish, ish bilan bandlikni oshirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirishda ta’limli insonlar muhim rol o‘ynaydi [2].

Xalqaro tashkilotlar – Jahon banki, UNDP, OECD – tomonidan tayyorlangan

hisobotlarda ham inson kapitali indeksining iqtisodiy rivojlanish va xususan, kichik va o‘rta biznesdagi muvaffaqiyatga ta’siri doimiy o‘rganiladi. “Human Capital Index” hisobotida ko‘rsatilishicha, inson kapitaliga sarmoya kiritgan mamlakatlarda kichik bizneslarning o‘sish sur’atlari yuqoriroq bo‘ladi [3].

O‘zbekistonlik olimlar ham bu borada turli tadqiqotlar olib borgan. Jumladan:

A.Xudoyqulov kichik biznes subyektlarida inson kapitalini rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratib, kadrlar malakasi, ta’lim tizimining moslashuvchanligi va innovatsion qobiliyatlarning kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Unga ko‘ra, inson kapitalining sifati bevosita kichik korxonalar samaradorligiga ta’sir qiladi [6].

S. Karimov kichik biznesda tadbirkorlik madaniyati, kasbiy bilimlar va boshqaruv kompetensiyalarining yetishmasligi holatini tahlil qilgan holda, bunday korxonalar uchun o‘quv markazlari, inkubatorlar va mentorlik tizimlarini joriy qilishni taklif qiladi [7].

D. Normurodov esa o‘z tadqiqotlarida inson kapitalini hududiy rivojlanish bilan bog‘lab o‘rganadi. Uning fikricha, qishloq joylarda kichik biznesni rivojlantirish uchun mahalliy aholining kasbiy tayyorgarligi va texnik bilimlarini oshirish muhim ahamiyatga ega [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar bandligini ta’minlash va kichik biznesni qo‘llab–quvvatlashga oid” qarorlari, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “Inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasi”, “Biznesni rivojlantirish dasturi” kabi davlat hujjatlari mazkur mavzuning me’yoriy–huquqiy bazasini tashkil etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Bandlik vazirligi, hamda Savdo–sanoat palatasi tomonidan e’lon qilingan hisobotlar va statistik byulletenlar kichik biznesda inson kapitalining roli va uning rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun muhim amaliy manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifatida kvantitativ va sifatli tadqiqot usullarini o‘z ichiga oladi. Kvantitativ usulda kichik bizneslar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, inson kapitalining turli jihatlari (ta’lim, malaka, tajriba, motivatsiya va boshqalar)ning biznes muvaffaqiyatiga ta’siri o‘rganiladi. Sifatli tadqiqot usulida esa kichik biznes rahbarlari va ishchilari bilan intervyular o‘tkazilib, inson kapitalining o‘sish strategiyalari va uning biznes samaradorligiga ta’siri haqidagi fikrlar yig‘iladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar

Kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida inson kapitalining roli beqiyosdir. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, aynan yuqori malakali ishchi kuchi, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan xodimlar va ilg‘or kasbiy kompetensiyalar kichik biznesning barqaror rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitalining sifati faqatgina formal ta’lim darajasi bilan emas, balki xodimlarning kasbiy mahorati, yangiliklarga ochiqligi, muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati va tashkilotga bo‘lgan sodiqligi kabi ko‘plab ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi.

O‘tkazilgan tadqiqot jarayonida kichik biznes vakillari – rahbarlar va xodimlar – bilan o‘tkazilgan

so‘rovnomalar asosida aniqlanishicha, xodimlarning malakasini muntazam oshirish va ularni turli trening dasturlariga jalb qilish kompaniya samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. So‘rovnoma qatnashchilarining aksariyati (60 foizdan ortig‘i) o‘z ish faoliyatida ishtirok etgan treninglar natijasida o‘z kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashgani, innovatsion yondashuvlarga moslashgani va bu orqali ish unumdorligi oshganini qayd etishgan. Bunday treninglar nafaqat xodimlar malakasini oshiradi, balki ularning kasbiy motivatsiyasini ham kuchaytiradi, ishga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi va jamoaviy ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalariga ko‘ra, motivatsiya kichik biznes samaradorligida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xodimlarning ishga bo‘lgan ijobiy munosabati, o‘z kasbidan qoniqish hosil qilishi, shuningdek, o‘z mehnati uchun adolatli baholanishi – bularning barchasi ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori motivatsiyaga ega ishchilar, odatda, yangi tashabbuslarni ilgari surish, ishga ijodiy yondashish va rahbariyat oldiga muqobil takliflar kiritishda faollik namoyon etadilar. Ayniqsa, yaxshi ish haqi, rag‘batlantiruvchi bonus tizimi, karyera o‘sish imkoniyatlari va ish joyidagi ijobiy muhit xodimlarning motivatsiyasini oshirishda muhim omillar sifatida e’tirof etilgan.

Tadqiqot davomida kichik biznes rahbarlari va ularning xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar asosida shakllantirilgan 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 65 foizi kichik biznes muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil sifatida ta’lim va malakani ko‘rsatishgan. Bu holat shuni anglatadiki, ishchilarni doimiy kasbiy rivojlantirish, ularga mos zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish kichik biznes uchun ustuvor ahamiyatga ega. Shu sababli, malaka oshirish kurslari va trening dasturlarining tizimli joriy etilishi kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim strategik vositaga aylanishi lozim.



1-rasm. Inson kapitalining kichik biznes muvaffaqiyatiga ta’siri, (%)

2-rasm orqali ishchilarning motivatsiyasi va ularning ish unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritib berilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 55 foiz respondentlar yuqori samaradorlikka erishishda mos maosh va bonus tizimining muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Bu esa kichik bizneslarda moddiy rag‘batlantirish tizimlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, 30 foiz respondentlar karyera o‘sish imkoniyatlarini muhim deb hisoblagan, bu esa xodimlar uchun professional yo‘nalishdagi o‘sishni rag‘batlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, ish muhitining qulayligi (15%) nisbatan kam ahamiyatga ega deb topilgan bo‘lsa-da, bu jihat ham xodimlar barqarorligi va motivatsiyasida inkor etib bo‘lmas rol o‘ynaydi.



2–rasm. Kichik biznesda motivatsiyaning roli, (%)

3-rasmda kichik biznesda tashkil etilgan trening va malaka oshirish dasturlarining samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Respondentlarning 60 foizi kasbiy ko‘nikmalarni oshirish bo‘yicha treninglar samaradorligini yuqori baholagan. 50 foiz ishtirokchilar esa yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini kichik biznes uchun muhim deb hisoblaydi. Bu holat texnologik yangiliklarga tez moslashish va raqobat ustunligini ta’minlashda uzluksiz o‘rganish muhimligini tasdiqlaydi. Shuningdek, 40 foiz respondentlar rahbarlik va menejment ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar ishchi kuchining boshqaruv salohiyatini oshirishda muhim deb hisoblaydi, biroq bu holat boshqa ko‘nikmalarga nisbatan nisbatan pastroq ko‘rsatkichga ega.

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesda inson kapitali ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Xodimlarning bilim darajasi va kasbiy salohiyati oshgan sari korxonaning ichki boshqaruv sifati, mahsulot yoki xizmat sifati va nihoyat, bozor ishtiroki darajasi ham ortib boradi. Shunday ekan, kichik biznes subyektlarining muvaffaqiyati uchun inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tizimli yondashuvlar ishlab chiqilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.



3–rasm. Trening va malaka oshirishning kichik biznes samaradorligiga ta’siri, (%)

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning muvaffaqiyati bevosita inson kapitalining sifati va samarali boshqaruviga bog‘liqdir. Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

– inson kapitali kichik biznesning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. xodimlarning kasbiy malakasi, ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va bilim darajasi kompaniyaning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

– trening va malaka oshirish dasturlari ishchilarning samaradorligini oshiradi. tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishchilarning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan investitsiyalar ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

– motivatsiya darajasi — kichik biznes samaradorligini belgilovchi muhim omildir. yaxshi ish haqi, bonuslar, martaba o‘sishi imkoniyatlari xodimlarning faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni kompaniya muvaffaqiyatiga ko‘proq hissa qo‘shishga undaydi.

– kichik biznesda inson kapitaliga qaratilgan kompleks yondashuv zarur. ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy himoya va motivatsiya tizimlarining uyg‘unlashuvi orqali kuchli inson kapitali shakllantiriladi.

– davlat siyosati va institutlar tomonidan ko‘rsatilayotgan ko‘mak inson kapitalining rivojlanishini rag‘batlantiradi. Xususan, kasb-hunar markazlari, inkubatorlar, mentorlik tizimlari va yengilliklar orqali kichik biznesni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Umuman olganda, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda inson kapitali ustuvor yo‘nalish sifatida e’tiborga olinishi zarur. Bu orqali nafaqat biznes samaradorligi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligi ham ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Becker, G.S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. University of Chicago Press.
2. Schultz, T.W. (1971). Investment in Human Capital: The Role of Education and Research. Free Press.
3. World Bank. (2020). Human Capital Index 2020 Update: Human Capital in the Time of COVID-19. Washington, DC.
4. UNDP. (2023). Inclusive Growth and Human Development Report. New York.
5. OECD. (2021). Skills for Jobs Indicators: Measuring Mismatches in the Labour Market. OECD Publishing.
6. Xudoyqulov A. (2022). "Kichik biznesda inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlari". Iqtisodiyot va innovatsiya, №3, 45–52-bet.
7. Karimov S. (2021). "Kichik tadbirkorlikda boshqaruv kompetensiyalarining ahamiyati". Tadbirkorlik asoslari, №4, 31–36-bet.
8. Normurodov D. (2022). "Qishloq hududlarida kichik biznesni rivojlantirishda inson kapitalining roli". Hududiy rivojlanish jurnal, №2, 19–27-bet.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (2022-yil 28-yanvar, PQ-60-son).
10. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi statistik byulletenlari (2020–2024).
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2023). Inson kapitali va kichik biznes tahlili bo‘yicha hisobot.
12. Aliyev F. Global miqyosda turizm klasterlari: innovatsiyalar va raqobatbardoshlik. Journal of Tourism Research, 15(2), 58-67, 2022-y.
13. O.N.Xaitov “Hududiy turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. Samarqand. 2024. 256-b.
14. UNDP Human Capital and Sustainable Development: Global Trends and National Strategies. United Nations Development Programme, New York. 2021.
15. M.M.Rabbimov, Z.T.Bakayev, B.Sh.Safarov. “The Impact of Cultural Heritage on Economic Growth in the Example of Museum Development in Uzbekistan” https://doi.org/10.1007/978-3-031-65343-8_25
16. M.M.Rabbimov, D.K.Usmonova “Artificial Intelligence Powered Strategies to Enhance the Competitiveness of Healthcare Institutions in Uzbekistan” ICONSTEM 2024 https://doi.org/10.1109/iconstem60960.2024.10568608

Internet ma’lumotlari:

17. https://siat.stat.uz/reports-filed/3505/table-data
18. https://www.lex.uz
19. https://www.un.org/ru/
20. https://www.who.int/
21. https://ec.europa.eu/eurostat
22. https://www.pewresearch.org/

SAMARQAND VILOYATIDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Y.P.Urinboyeva

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Yulduz Pirnazarovna Urunbayeva
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori., dotsent
Email: *yulduzurinboyeva@gmail.com*
Tel: *+998905052105*

Received: 16 May 2025
Revised: 26 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher’s Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada Samarqand viloyatida muzey turizmini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzeylarning turizm infratuzilmasidagi o‘rni, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri, shuningdek, muzey turizmining barqaror rivojlanish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Samarqand viloyatidagi muzeylashtirilgan Registon ansambli misolida muzey turizmini rivojlantirishda iqtisodiy samradorlikning oshishi tahlil qilingan va kelgusidagi moliyaviy o‘sishning aniq ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: funksiya, muzeylashtirish, korrelyatsiya, regressiya, statistika, model, koeffitsent, diagramma, traektoriya, test, prognoz.*

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ МУЗЕЙНОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: *В данной научной статье анализируется экономическая эффективность развития музейного туризма в Самаркандской области. В исследовании рассматривается роль музеев в туристической инфраструктуре, их экономическое и социальное воздействие, а также механизмы устойчивого развития музейного туризма. На примере музеефицированного ансамбля Регистан в Самаркандской области анализируется повышение экономической эффективности развития музейного туризма, разрабатываются конкретные показатели будущего финансового роста и даются рекомендации.*

Ключевые слова: *функция, музеефикация, корреляция, регрессия, статистика, модель, коэффициент, диаграмма, траектория, тест, прогноз.*

ECONOMIC EFFICIENCY OF MUSEUM TOURISM DEVELOPMENT IN THE SAMARKAND REGION

Annotation: *This scientific article analyzes the economic efficiency of developing museum tourism in the Samarkand region. The study examines the role of museums in the tourism infrastructure, their economic and social impact, as well as mechanisms for the sustainable development of museum tourism. Using the example of the museumized Registan ensemble in the Samarkand region, the increase in economic efficiency in developing museum tourism is analyzed, specific indicators of future financial growth are developed, and recommendations are given.*

Keywords: *function, museumification, correlation, regression, statistics, model, coefficient, diagram, trajectory, test, forecast.*

Kirish.

Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlanishining asosiy resurslari sifatida viloyatda joylashgan va muzeylashtirilgan tarixiy yodgorliklardan foydalanish yanada ko‘proq turistlarni jalb qilish hisoblanadi.Bundan kelib chiqadiki, Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlanishiga asosiy ta’sir etuvchi omil bo‘lib muzeylashtirilgan tarixiy yodgorliklarni jozibadorligi bo‘lsa, tarixiy yodgorliklarning jozibadorligini ta’minlash ushbu tarixiy obida tamonidan olinadigan moliyaviy natijalar hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bo‘lib hisoblanadi.

Har qanday natijaga funksional omillar hamda korrelyatsion omillar singari ikki guruh omillar ta’sir qiladi.Funksional omillar bu omilning bir birlikga o‘zgarishi natijasida natijani qancha miqdorda o‘zgarganligini hisoblash mumkin bo‘lgan omillar hisoblansa, korrelyatsion bog‘liqlikdagi omillarni bir birlikga o‘zgarishi natijasida natija qancha miqdorda o‘zgarishini aytish mumkin emas.

Samarqand viloyatida 20 dan ortiq yirik muzey faoliyat yuritadi, ulardan 5 tasi xalqaro miqyosda tanilgan. 2024-yilda muzeylarga tashrif buyurgan sayyohlar soni 1,2 million kishini tashkil etgan, bu 2020-yilga nisbatan 40% o‘sishni ko‘rsatadi. Muzey turizmi orqali hudud byudjetiga tushgan daromadlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Ammo, ko‘plab muzeylarda marketing, raqamlashtirish, va interaktiv xizmatlar yetarli emas.

Xalqaro iqtisodiyotda bugungi kunda korrelyatsion bog‘liqlikdagi omillarni kam statistik xatolik bilan bog‘liqligini baholash hamda ushbu omillar asosida prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Buni aniqlashda ma’lumotlarni korrelyatsion-regression tahlildan o‘tkazish lozim bo‘ladi. Korrelyatsion-regression tahlil statistik tahlil usullaridan biri bo‘lib, ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlash va bu bog‘liqlik asosida prognoz qilish imkoniyatini beradi.

Korrelyatsion-regression tahlil quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

birinchidan, muommo aniqlanadi va yechim bo‘yicha maqsad qo‘yiladi. Bu bosqichda tahlil qilinadigan o‘zgaruvchilar (mustaqil va bog‘liq o‘zgaruvchilar) aniqlanadi;

ikkinchidan, tahlil qilinadigan o‘zgaruvchilar bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi. Bu bosqichda tanlangan o‘zgaruvchilarga oid aniq va ishonchli statistik ma’lumotlar yig‘iladi. Ma’lumotlar yetarli miqdorda, bir davrga tegishli va aniq bo‘lishi kerak;

uchinchidan, ma’lumotlar dastlabki tahlildan o‘tkaziladi. Bu bosqichda jadval tuzish, o‘zgaruvchilar qiymatlarini ko‘rsatish, diagramma chizish, bu orqali bog‘liqlikni vizual baholash amalga oshiriladi. Normal taqsimotga moslik, ekstremal qiymatlar borligi tekshiriladi;

to‘rtinchidan, korrelyatsiya tahlili o‘tkaziladi. Bu bosqichda korrelyatsiya koeffetsenti hamda korrelyatsiya darajasi baholanadi;

beshinchidan, regression tahlil amalga oshiriladi. Bu bosqichda bog‘liq o‘zgaruvchi, mustaqil o‘zgaruvchi, erkin had hamda regressiya koeffitsentlari asosida regressiya funksiyasi ishlab chiqiladi;

oltinchidan, regressiya modelining statistik ahamiyatliligi tekshiriladi;

yettinchidan, regressiya modeli asosida prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi;

sakkizinchidan, olingan natijalar talqin qilinadi hamda tegishli xulosalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot davomida yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida Samarqand viloyatidagi asosiy tarixiy yodgorliklardan biri, muzeylashtirilgan "Registon" ansambli tanlab olindi hamda birinchi bosqich sifatida "Registon" majmuasini rivojlantirish hamda unga ta'sir etuvchi korrelyatsion bog'liqlikdagi omillarni ta'sirini aniqlash maqsad qilib olindi.Tadqiqotning ikkinchi bosqichi sifatida natijaviy ko'rsatkich qilib "Registon" ansamblining asosiy natijaviy ko'rsatkichi ansamblning tushumi sifatida olinib unga ta'sir etuvchi korrelyatsion bog'liqlikdagi omillar sifatida quyidagilar tanlab olindi.

Y – ansamblning tushumi;
$X_1 - majmuadagi\ xodimlar\ soni$;
$X_2 - jami\ turistlar\ soni$;
$X_3 - mahalliy\ turistlar\ soni$;
$X_4 - xorijiy\ turistlar\ soni$;
$X_5 - dam\ olish\ maskanlari\ soni$;
X_6
$- turizm\ sohasiga\ kiritilgan\ innovatsiyalar\ s$

Tanlab olingan natijaviy ko'rsatkich hamda natijaga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar yig'ildi (1-jadval).

1-jadval

"Registon" ansamblining 2015-2024-yillardagi tushumi hamda unga ta'sir etuvchi omillar dinamikasi

	Registon ansambli tushumi (so'mda)	Registon xodimlari soni (birlikda)	Jami turistlar soni (birlikda)	Mahalliy turistlar soni (birlikda)	Xorijiy turistlar soni (birlikda)	Dam olish maskanlari soni, dona	Turizm sohasiga olib kirilgan innovatsiyalar soni, dona
2015	865448142	45	200600	168600	32000	30	25
2016	1330611089	41	237000	202500	34500	42	30
2017	2549211595	40	706265	647865	58400	120	42
2018	5032351636	40	1209969	1115737	94232	163	54
2019	8772495000	42,5	1159767	1002774	156993	201	62
2020	1668735000	32	188488	178720	9768	256	65
2021	4616578794	43,5	680264	647835	32429	256	25
2022	9522482593	45,5	1027951	914461	113490	261	15
2023	15049262894	47,5	1025510	822117	203393	282	26
2024	25563463344	47,5	1160700	865490	295210	305	30

Tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida natija hamda omillar o'rtasidagi bog'liqlikni vizual baholash maqsadida natija hamda omillarni harakat traektoriyalari GRETL dasturi yordamida bir diagrammada aks ettirildi (1-diagramma).

Olingan natijalardan ko‘rish mumkinki, harakat traektoriyalari bo‘yicha beshinchi omildan tashqari qolgan barcha omillar ma’lum darajada yaqin hisoblanadi. Natijaviy ko‘rsatkichga omillar ta’sirini aniqlashda asosan juft korrelyasiya qo‘llaniladi. Juft korrelyasiyani aniqlash bizga bir-birini takrorlaydigan omillarni aniqlash imkonini beradi hamda natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir etish darajasi kuchsiz bo‘lgan omillarni aniqlash uchun foydalaniladi.



1-diagramma.Natija va omillar o‘rtasidagi bog‘liklik

Ushbu usul bilan juft korrelyasiyani aniqlash orqali regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillarni aniqlab olamiz va ularni regressiya tenglamasiga kiritamiz.

Buning uchun quyidagi juft koeffisient korrelyasiya formulasidan foydalanildi:

$$r = \frac{\overline{YX} - \overline{Y} * \overline{X}}{\sigma_Y * \sigma_X}$$

Bunda $\bar{Y}$, $\overline{X}$,–natijaviy va omillarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha miqdorlari;

$\overline{YX}$ – natija bilan omillarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarninng ko‘raytmasi;

σ_u, σ_x -natijaviy va omillarning o‘rtacha kvadratik chetlanishi.

Koeffistent korrelyasiyaning miqdori (-1)dan (+1)gacha oraliqdagi bog‘liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Koeffistentning miqdori quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Koeffistent korrelyasiyaci (-1) va (+1)ga qancha yaqin bo‘lsa natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik shuncha zich bo‘ladi.

2. Agar r = 0 bo‘lsa bular o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘q, degan xulosa uchun asos bo‘ladi.

3. Agar 0 < r < 1 bo‘lsa ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqliq bevosita to‘g‘ri bo‘lib, bir xil yo‘nalishga ega bo‘ladi.

4. -1< r < 0 bo‘lsa ular o‘rtasidagi bog‘liqlik teskari ekanligini ko‘ramiz.

5. r = 1 (-1) bo‘lsa ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional, degan xulosaga kelish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu formuladan foydalangan holda GRETL dasturi yordamida o‘zaro takrorlanuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagicha juft korrelyasiya koeffisentlari matrisasi tuzildi. Hisoblashlar natijalari quyidagi ko‘rsatkichlarni berdi (2-jadval).

2-jadval

“Registon” ansambliga tushum va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro bir-biri bilanjuft korrelyasion bog‘liqligi

Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6
1,0000	0,6315	0,6789	0,5517	0,9678	0,6828	-0,2426
	1,0000	0,4851	0,4055	0,6477	0,1667	-0,7447
		1,0000	0,9856	0,7537	0,5583	0,0165
			1,0000	0,6318	0,5117	0,0579
				1,0000	0,5710	-0,1492
					1,0000	0,0060
						1,0000

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkiki, natijaga tanlab olingan omillardan X1 omil 63 foiz, X2 omil 48 foiz, X3 omil 93 foiz, X4 omil 63 foiz, X5 omil 57 foiz bog‘liq hamda X6 omil esa natija bilan bog‘liqlikga ega emas.Bog‘lanishga ega bo‘lmagan X6 omilni modeldan chiqarib yuborgan holda qolgan beshta omil asosida kichik kvadratlar usulidan foydalanib quyidagi natijalar olindi (3-jadval).

3-jadval

Kichik kvadratlar usuli orqali natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajalarining natijaviy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Koeffisent	Statistik xatolik	Statistika	r-ko‘rsatkich	Bog‘liqlik darajasi
1	const	−8,56613e+09	6,05091e+09	−1,416	0,2160	
2	X1	1,64901e+08	1,46222e+08	1,128	0,3106	
3	X2	72978,7	9334,72	7,818	0,0005	***
4	X3	−76555,9	10079,0	−7,596	0,0006	***
5	X4	2,03138e+07	6,48649e+06	3,132	0,0259	**
6	X5	−8,56613e+09	6,05091e+09	−1,416	0,2160	

*- natija hamda omilo‘rtasida bog‘liqlik bor;

**- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha;

***- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki, natijaga ta’sir qiluvchi X1 hamda X5 omillar birgalikdagi testdan muvaffaqiyasiz o‘tdi. X2, X3 hamda X4 omillar esa birgalikdagi testdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Ammo X2 omil bilan X3 va X4 omillar bog‘liqlik darajasini yuqoriligi inobatga olinib multikolleniarlikni oldini olish maqsadida X2 omil ham modeldan chiqarib yuborildi hamda qolgan ikki omil X3 va X4 omil bo‘yicha kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda qayta testdan o‘tkazildi (4-jadval).

4-jadval

Kichik kvadratlar usuli orqali natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajalarining natijaviy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Koeffisent	Statistik xatolik	t-statistika	r-ko‘rsatkich	Bog‘liqlik darajasi
1	const	−9,15305e+07	1,46132e+09	−0,06264	0,9518	
2	X3	−2167,99	2552,24	−0,8494	0,4237	
3	X4	87461,1	9920,65	8,816	<0,0001	***

*- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik bor;

**- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha;

***- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki X3 hamda X4 omil asosida olib borilgan testdan X3 omilning r qiymati 0,1dan 161ata bo‘lganligi sababli testdan muvaffaqiyasiz o‘tdi.Tadqiqot davom ettirildi hamda qolgan omillar juftliklari asosida bir necha marta testlar o‘tkazildi hamda X4 va X5 omillar juftligi asosida kichik kvadratlar usuli orqali amalga oshirilgan testdan ushbu ikki omil muvaffaqiyatli o‘tganligi aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

Kichik kvadratlar usuli orqali natija hamda omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajalarining natijaviy ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Koeffisent	Statistik xatolik	Tstatistika	r-ko‘rsatkich	Bog‘liqlik darajasi
1	const	−2901020000	1,23603e+09	−2,347	0,0513	*
2	X4	72775,4	7640,96	9,524	<0,0001	***
3	X5	15131500	7,05166e+06	2,146	0,0690	*

*- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik bor;

**- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik o‘rtacha;

***- natija hamda omil o‘rtasida bog‘liqlik yuqori.

Ushbu ikki omilning birgalikdagi kichik kvadratlar usuli testining umumiy natijalariga ko‘ra asosiy ko‘rsatkichlardan biri determinatsiya koeffitsenti 0,950834ga tengligi aniqlandi.Determinatsiya koeffitsenti – regressiya modelining aniqlik darajasini bildiradi ya’ni, mustaqil o‘zgaruvchilar bog‘liq o‘zgaruvchidagi umumiy o‘zgarishning necha foizini tushuntirib berayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga,

ushbu ikki omil hamda natija bo‘yicha kichik kvadratlar usuli bo‘yicha amalga oshirilgan statistik testning umumiy natijalariga ko‘ra umumiy *p* qiymat 0,000011 ga tengligi aniqlandi.Tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida olingan natijalarni normal taqsimot testidan o‘tkazildi hamda quyidagi natijalar olindi (2-diagramma).



2-diagramma. Normal taqsimot testi natijalari

Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki Xi-kvadrat ko‘rsatkich 0,586 ni tashkil qilib (–3:3) oraligiga tushushi hamda tanlab olingan omillarning barchasi birgalikda normal taqsimot testlaridan muvaffaqiyatli o‘tganligi aniqlandi.Olib borilgan o‘rganishlar hamda tadqiqotlar natijasida “Registon” ansamblining tushumi hamda unga ta’sir etuvchi X4 va X5 omillar o‘rtasida quyidagi regressiya tenglamasi ishlab chiqildi.

$$y = 72775,4 * x_4 + 15131500 * x_5 - 2901020000$$

O‘rganilgan o‘n yil hamda ushbu regressiya tenglamasi asosida “Registon” ansambli tushumining 2027-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish imkoniyatiya yaratiladi. Shu bilan birga ishlab chiqilgan modelga qo‘yilishi lozim bo‘lgan, testlardan muvaffaqiyatli o‘tgan $X_4 - xorijiyturistlarsoni$ hamda $X_5 - damolish\ maskanlarisoni$ning o‘rtacha o‘zgarish darajasi X4 omil 28 foiz X5 omil 29 foizga teng ekanligi aniqlandi.Agar danatijaga ta’sir qiluvchi omillar keying uch yilda ham shu o‘rtacha darajani saqlab qolsa, ularning dinamikasi quyidagicha o‘zgarishi aniqlandi (6-jadval).

6-jadval

Modelga kiritilgan omillarning o‘rtacha o‘zgarish darajasi saqlab qolingandagi natijalari

Yillar	X4	X5
2025	377 869	393
2026	483 672	508
2027	619 100	655

Agar modelga kiritilgan hamda barcha statistik testlardan muvaffaqiyatli o‘tgan ushbu ikki omil shu tartibda o‘sib borsa “Registon” ansamblining tushumi 2025-2027-yillarda quyidagicha bo‘ladi (7-jadval).

7-jadval

“Registon” ansambli tushum hajmining 2027-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2025	2026	2027
“Registon” ansambli tushum hajmi (so‘mda)	30 552 021 742,52	39 978 408 317,18	52 061 448 249,89

Agarda $X_4 - xorijiy\ turistlar\ soni$ hamda $X_5 - dam\ olish\ maskanlari\ soni$ning o‘rtacha o‘zgarish darajasi X4 omil 28 foiz X5 omil 29 foizga o‘sib borsa “Registon” ansamblining 2027-yilga borib tushumi 52 061 448 249,89 so‘mga yetishi prognoz qilindi (2.4.4-diagramma).



3-diagramma. “Registon” ansambli tushumining 2027-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari

Tadqiqot natijasida aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlari quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

Birinchidan, ansamblining keyingi strategik rejalarini ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ansamblining moliyaviy natijalarini bir qismini prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Toshkent sh.,2018 yil 26 avgust).

2.Brejneva M. L., Kultura i vzaimodeystvie narodov v muzeynых, nauchnых i obrazovatelnых proцessax – vajneyshie faktorы stabilnogo
razvitiya stran Evrazii: sb. nauch. tr.: v 2 ch. Omsk: Izdat. dom «Nauka»,2021. – Ch. 2. –186 s.

3.Zdasюk N.M., Uchebnaya programma uchrejdeniya vыsshego obrazovaniya uchubnoy dissipline mezeynogo turizma, 2015, 8 s.

4.Ziba Ya., Muzeynыy turizm: opredeleniya, ponyatiya i problemы ego razvitiya, 118 s. - Эkonomicheskie nauki -International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 10-4 (85), 2023.

5. Muxamedova M.S., Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2013.-174.

6. Myagtinoy N. V. ; Muzeevedenie:Ucheb. posobie Vladim. gos.un-t. – Vladimir : Izd-vo VlGU, 2010. – 114 s.

ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Sh.U.Tashmatov

Samarqand iqtisodiyot va serves instituti, Samarqand, O‘zbekiston.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Tashmatov Sharaf Urokboyevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktoranti
Email: *sh.tashmatov@gmail.com*
Tel: *+998933353216*

Received: 16 May 2025
Revised: 26 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

Annotatsiya: *Ushbu maqolada elektron tijoratning global va milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, rivojlanish tendensiyalari hamda unga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Elektron tijoratning shakllanish tarixi, nazariy asoslari va turli olimlar bergan ta’riflar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, elektron savdo jarayonlari, uni tashkil etish bosqichlari va yangi texnologiyalarning (BNPL, blokcheyn, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, bulutli xizmatlar, zamonaviy to‘lov texnologiyalari) ta’siri yoritilgan. O‘zbekiston misolida elektron tijoratning hozirgi holati, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy bozordagi ommaviy marketpleyslar hamda mavjud muammolar (logistika, kadrlar yetishmasligi, ishonchsizlik va infratuzilma cheklanishlari) tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, onlayn savdo, internet platformalar, sun’iy intellekt, blokcheyn, virtual reallik, bulutli texnologiyalar, to‘lov tizimlari, marketpleys, Raqamli O‘zbekiston – 2030.*

ЭЛЕКТРОН ТИДЖОРАТНИНГ РИВОДЖЛАНИШИ ВА УНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Аннотация: *В статье рассматривается роль электронной коммерции в мировой и национальной экономике, её тенденции развития и влияющие факторы. Анализируются история формирования, теоретические основы и различные определения электронной торговли, предложенные учёными. Также раскрываются процессы электронных сделок, этапы их организации и влияние современных технологий (BNPL, блокчейн, искусственный интеллект, виртуальная и дополненная реальность, облачные сервисы, современные платёжные системы). На примере Узбекистана изучается текущее состояние электронной коммерции, реформы в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», работа ведущих маркетплейсов, а также существующие проблемы (логистика, нехватка кадров, недоверие потребителей и ограниченность инфраструктуры).*

Ключевые слова: *электронная коммерция, цифровая экономика, онлайн-торговля, интернет-платформы, искусственный интеллект, блокчейн, виртуальная реальность, облачные технологии, платёжные системы, маркетплейс, Цифровой Узбекистан – 2030.*

DEVELOPMENT OF ELECTRONIC COMMERCE AND ITS MODERN TENDENCIES

Annotation: *The article analyzes the role of e-commerce in the global and national economy, its development trends, and influencing factors. The historical formation, theoretical foundations, and various scholarly definitions of e-commerce are reviewed. In addition, the processes of electronic trade, its organizational stages, and the impact of modern technologies (BNPL, blockchain, artificial intelligence, virtual and augmented reality, cloud services, and payment innovations) are discussed. Using Uzbekistan as an example, the current state of e-commerce, reforms within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, major marketplaces, and existing challenges (logistics, shortage of specialists, consumer trust, and infrastructure limitations) are examined.*

Keywords: *e-commerce, digital economy, online trade, internet platforms, artificial intelligence, blockchain, virtual reality, cloud technologies, payment systems, marketplace, Digital Uzbekistan – 2030.*

KIRISH

Oxirgi yillarda elektron tijorat hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi dunyo bo'ylab kuzatilmoqda. Bunga sabab, elektron tijorat Global raqamli inqilob hamda Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi hisobiga zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi va o'z imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga raqamli texnologiyalarning jadal kirib borishi hamda onlayn-platformalarining ommalashuvi iste'molchilar uchun ham, ishlab chiqaruvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratdi. Natijada, elektron tijorat nafaqat iste'molchilarga qulaylik yaratishda, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirishda iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylandi.

Binobarin, kelajakda o'z biznesini imkon qadar raqamlashtirgan va optimallashtirgan tadbirkor muvaffaqiyat qozonadi. Ayni paytda, kompaniyalar va iste'molchilarning raqamli segmentga o'tishi ma'lum qiyinchiliklar, xarajatlar va xavflar bilan bog'liq. Bu jihat nafaqat iqtisodchi-tadqiqotchilar tomonidan, balki davlat boshqaruv organlaridan ham jiddiy e'tiborni talab etadi; oqilona, ammo ortiqcha bo'lmagan aralashuv zarur.

Raqamli texnologiyalarni faol joriy etayotgan O'zbekiston uchun elektron tijoratning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Elektron platformalar va raqamli yechimlar xizmatlarning ochiqligi va shafffofligini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va mamlakatning global raqamli makonga integratsiyalashuvini tezlashtiradi.

Axborot texnologiyalari va Internetning jadal rivojlanishi tadbirkorlar uchun ham butunlay yangi muhitni yaratib, yangi bozorlar paydo bo'lishiga, yangi tovar va xizmatlarga talabning yuzaga kelishiga, printsipial jihatdan yangi biznes-modelning shakllanishiga turtki berdi. Axborot texnologiyalarining turli sohalarda jadal qo'llanilishi, globalizatsiya bilan birgalikda, zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishini va yangi sharoitlarda o'rganilishi kerak bo'lgan muammolarni belgilab beradi.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron tijoratni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini raqamli xizmatlar bilan ta'minlash va logistika tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda savdo platformalari, to'lov tizimlari, axborot bazalari va logistika xizmatlarining integratsiyalashuvini samarali ta'minlash muhim strategik vazifa etib belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Elektron tijorat sohasining nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq qilishda katta hissa qo'shgan xorijlik va mahalliy olimlar sifatida D. Koze, D. Eymor, T. Vilson, M. Reynolds, N. Reynolds, A. Demidov, I.T. Balabanov, I. Gerashchenko, V.I. So, V.N. Bugorskiy, S.A. Dyatlov, O.A. Kobelev, L.S. Klimchenya, S.A. Yurasov, Ye.V. Makarenkova, V.V. Tsarev, X.T.Abdurahmonov, M.A.Rahimova, A.X.Turg'unov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, A. Summer, S. Serpuxov, T. Hoffman, M. Makpill kabi olimlar tomonidan elektron tijoratni rivojlantirishning ayrim jihatlariga

bag‘ishlangan ilmiy ishlar alohida e’tirofga loyiq.

Internet-do‘kon tashkil etish bo‘yicha biznes loyihalarining samaradorligini baholash usullari tizimini yaratishning ayrim jihatlari D. Brachchi, G. Bekker va S.Chuguyevlarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

“Elektron tijorat” atamasiga berlgan dastlabki ta’riflardan biri amerikalik iqtisodchi olim Devid Kozening ilmiy asarlarida uchraydi. Olimning fikricha, elektron tijorat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi o‘ziga xos usul sifatida ta’riflanadi. Elektron tijoratni elektron savdo bilan aynanlashtiruvchi ushbu ta’rifga bir qator olimlar qo‘shilishadi (masalan, D. Eymor, Ye.V. Makarenkova, L.S. Klimchenya va boshqalar).

Biroq, L.P.Gavrilov elektron tijoratni “standartlashtirilgan va innovatsion axborot texnologiyalariga asoslangan tijorat operatsiyalari” deb ta’riflaydi.

Yana bir rus olimi I.B. Stukalova esa o‘z asarlarida asosiy e’tiborni elektron tijorat sohasidagi asosiy tendentsiyalar va xatarlarni o‘rganishga qaratadi. Muallifning fikricha, “elektron biznes” – “elektron tijorat” – “elektron savdo” kabi o‘zaro bog‘langan tushunchalarning muayyan iyerarxiyasi bo‘lishi lozim. Shunga yaqin bo‘lgan fikrni M.A. Medvedeva ham e’tirof etadi.

Shunday qilib, “elektron tijorat” ta’rifi bo‘yicha tadqiqotlar XX asrning oxirida boshlangan va hozirgi kungacha davom etmoqda. Biroq, ushbu kategoriyaning iqtisodiy mohiyati bo‘yicha yagona to‘xtamga kelinmagan.

Shu sababli, ushbu muammoni o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy ishlarning etarli soniga qaramay, individual jihatlarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi, chunki elektron tijorat bozori doimo tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar doimiy ravishda o‘zgarib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida analiz, sintez, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil va nazariy umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Elektron tijoratning shakllanishi 1960-yillarda elektron axborot almashinuvi (EDI) va elektron pul o‘tkazmalari (EFT)dan boshlangan. 1990-yillarda internet ommalashishi bilan birinchi onlayn do‘konlar tashkil etildi. 1994-yilda Amazon onlayn kitob do‘koni sifatida ish boshlab, keyinchalik global platformaga aylandi. 2000-yillarda elektron tijoratning rivojlanishi yangi to‘lov shlyuzlari, xavfsiz tranzaksiyalar va mobil tijorat bilan mustahkamlandi. 2010-yillardan esa smartfonlar va mobil ilovalar bu sohadagi asosiy drayverga aylandi.

Ko‘pgina ekspertlarning fikricha, zamonaviy elektron tijorat nafaqat onlayn tovar va xizmatlarni sotib olish yoki sotish imkoniyati, balki daromad olish va mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan haqiqiy biznesdir.

Bizning fikrimizcha, “elektron tijorat” “elektron savdo”ga nisbatan kengroq tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– elektron axborot almashinuvi (Electronis Data Interchange, EDI);

– elektron pul o‘tkazmalari (Electronic Funds Transfer, EFT);

– elektron savdo (e-trade);

– elektron pullar (e-cash);

– elektron marketing (e-marketing);

– elektron banking (e-banking);

– elektron sug‘urta xizmatlari (e-insurance) va boshqalar.

Yuqorida bayon etilganlarga asoslanib “elektron tijorat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq: ***elektron tijorat*** – bu elektron shaklda amalga oshiriladigan Internet va xususiy aloqa tarmoqlari orqali ma’lumotlar, xizmatlar va tovarlarni sotishni o‘z ichiga olgan, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydigan har qanday tijorat operatsiyalari va bitimlardir.

Elektron savdo esa, maqsadli auditoriya bilan muloqot qilish formatini aniqlash, onlayn bozorda ishlash uchun zarur infratuzilmani yaratish, internet platformasini tanlash, internet-marketing kanallari va vositalarini sozlash va rejalashtirilgan foydaga erishishga qaratilgan bir qator boshqa harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Elektron savdoni tashkil etish bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi: bozor holati tahlili; elektron savdo kanallarini tanlash; sotish samaradorligini ta’minlash; kontrolling, yakuniy nazorat va onlayn savdo samaradorligini baholash. Maxsus xususiyatlar, o‘ziga xosliklar va qo‘llanilayotgan targ‘ibot vositalaridan kelib chiqib, hozirgi kunda turli xil onlayn platformalar qo‘llaniladi: elektron birja maydonchalari, korporativ saytlar, onlayn forumlar va ixtisoslashgan onlayn klublar, lendinglar, info-bloglar va jurnallar, onlayn savdo maydochalari, e’lonlar taxtasi va boshqalar.

1-jadval

Bozorda elektron savdoni tashkil etish bosqichlar

Bosqichlar	Maqsad	Vazifalar
1	Internetda bozor holati tahlili	- tovar va xizmatlar bozorining onlayn-bozorini tahlil qilish; - raqobatchilarning internet-marketingini tahlil qilish; - onlayn xizmatlar bozorida tashkilotlar iste’molchilarining maqsadli auditoriyasini o‘rganish; - bozordagi korxonalarning internet platformalari parametrlarini tahlil qilish.
2	Elektron savdo kanallarini tanlash	- maqsadli auditoriya segmentini aniqlash; - o‘zaro aloqa formatini aniqlash; - tovarlar va xizmatlarning xususiyatlarini aniqlash (sotib olish chastotasi, hajmi, narxi); - zaruriy internet platformalarini ajratish.
3	Sotish samaradorligini ta’minlash	- kompaniyaning tashkiliy tuzilishiga marketing bo‘limining kiritilishi yoki internet-marketing funktsiyalarini marketing agentliklariga autsorsing qilish; - internet-marketing vositalarini tanlash va qo‘llash.
4	Kontrolling	- joriy statistikani kuzatish; - marketing vositalarini yakuniy tanlash; - byudjetni qayta taqsimlash.
5	Yakuniy nazorat va onlayn savdo samaradorligini baholash	- rejaga muvofiq auditorlik ishlari; - rejadan chetlashish holatlarida harakatlarni to‘g‘ilash; - qayta aloqani yo‘lga qo‘yish.

Raqamli iqtisodiyotning muhim elementi bo‘lgan elektron tijorat xizmatlar samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash va sohani modernizatsiya qilish orqali undagi o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Shunday qilib, elektron tijorat xizmatlarining faollashuvi sotishni tashkil etish sohasida innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga, shuningdek, yuqori texnologiyali mahsulotlarning paydo bo‘lishiga olib keldi:

1. Foizsiz bo‘lib to‘lash texnologiyasi (BNPL), bu uzluksiz to‘lov uchun elektron tijorat xizmatlari orqali to‘lovlarni taqsimlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya qo‘shimcha to‘lov usullarini talab qilmasdan yoki xaridorning kredit tarixiga ta’sir qilmasdan marketpleisning o‘rtacha chek qiymatini oshiradi.

2. Blokcheyn texnologiyalari elektron tijorat xizmatlari doirasida tranzaktsiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

3. Sun’iy intellekt yuqori texnologiyali mahsulotlar uchun raqamli kanallarda marketing va sotish tizimlarini ishlab chiqish muammolarini hal qiladi. Sun’iy intellektdan foydalanish katta ma’lumotlar to‘plamlarini avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash, auditoriya so‘rovlarini o‘tkazish, mijozlarning xohish-istaklari bo‘yicha ma’lumot to‘plash, axborot va reklama matnlarini yaratish imkonini beradi.

4. Raqamli ekotizimlar va superservislar raqamli kanallar va elektron tijorat vositalarini yagona raqamli makonga birlashtiradi. Ekotizimlar va superservislarni tashkil qilish ko‘p sonli o‘zaro bog‘langan kanallar orqali yuqori texnologiyali mahsulotlarni targ‘ib qilish imkonini beradi, bu esa moliyaviy natijalarni yaxshilaydi va elektron tijorat xizmatlari samaradorligini oshiradi.

5. Elektron tijorat xizmatlaridagi chat-botlar va ovozli yordamchilar mahsulotni tadbiq qilish va sotishda inson aralashuvini minimallashtiradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish vositalari asosan aqlli qurilmalar, ya’ni smartfonlar, aqlli kolonka, noutbuklar hisoblanishadi. Elektron tijorat xizmatlarini ko‘rsatishda chatbotlar va ovozli yordamchilardan foydalanish natijasida zaruriy tovarlarni mijozlarning talab va istaklariga mos xususiyatlar bo‘yicha qidirib topish jarayoni soddalashadi.

6. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish mijozlarga to‘g‘ri tovarlarni tanlashda, ularni virtual kiyib ko‘rish yoki joylashtirishda, shuningdek, iste’molchiga yonaltirilganlik tamoyilini maksimal darajada amalga oshirishda ko‘maklashadi. Natijada, raqamli platformalar orqali sotishning o‘rtacha chek qiymati va konversiya oshadi.

7. Bulutli texnologiyalar iste’molchilar, ularning xohish-istaklari va qayta aloqa natijalari to‘g‘risidagi katta hajmli ma’lumotlarni saqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu ma’lumotlarni qayta ishlash orqali bulutli texnologiyalar potensial va real iste’molchilar talablariga mos keluvchi sodiqlik dasturlarini shakllantirish yoki yangilashga ko‘maklashadi.

8. To‘lov texnologiyalari va xizmatlari nafaqat elektron tijorat platformalaridagi moliyaviy tranzaksiyalar xavfsizligi darajasini oshiradi, balki to‘lov usullarining kopligi (bank rekvizitlari yordamida karta o‘tkazmalari, kontaktsiz to‘lov tizimlari,

tezkor to‘lov tizimlari, QR kodli to‘lovlar va boshqalar) hisobiga xaridlar sonini ham ko‘paytiradi.

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishi ijobiy tendentsiyaga ega. O‘sishning asosiy omillari sifatida yangi mijozlarning doimiy oqimi, logistika va biznes jarayonlarini optimallashuvi, yangi elektron tijorat formatlarining paydo bo‘lishi va boshqalarni kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatimizda Internet foydalanuvchilari soni 30,1 milliondan oshdi va bu alohi sonining 80,1 foizini tashkil etadi. Bunga asosiy sabab mobil aloqa qamrovi 100 foizlik marraga yaqinlashib qolganidir. Elektron tijorat rivojlanishiga hissa qo‘shadigan yana bir muhim omil sifatida tovar va xizmatlar uchun onlayn to‘lovni amalga oshirish imkonini beruvchi onlayn-bankingni ko‘rsatish mumkin. 2024 yilga kelib, O‘zbekistonda 3 ta to‘lov tizimi (Humo, Uzcard, QulayPul) hamda 49 ta to‘lov tashkiloti ro‘yxatga olingan.

Elektron tijoratning yangi formati sifatida marketpleyslarni keltirish mumkin. “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” taqdim etgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda eng ommalashgan mahalliy marketpleislar “Uzum Market”, “Market Yandex Go”, “Zoodmall”, “Sello”, “Olcha”, “Asaxiy” va boshqa platformalar hisoblanadi. Ushbu onlayn-resurslar nafaqat tovar va xizmatlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratibgina qolmay, balki tadbirkorlarga yanada kengroq iste’molchilar auditoriyasini qamrab olishiga yordam beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan marketpleyslar orasida faol foydalanuvchilar soni bo‘yicha “Uzum Market” o‘zining oyiga taxminan 2 millionlik foydalanuvchilari bilan yetakchilik qiladi, keyingi o‘rinlarni Zoodmall va Sello marketpleislari egallab, ularning foydalanuvchilari, mos ravishda, oyiga 1,5 million va 150-200 ming kishini tashkil etadi.

Milliy elektron tijorat bozori hali etuklikka erishmagan va rivojlanish bosqichida. O‘zbekiston elektron tijorat bozorining o‘ziga xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

− ko‘pincha yirik elektron tijorat o‘yinchilari etkazib beruvchilarga o‘z shartlarini qo‘yib kelmoqda, shu bilan bir paytda, kichik onlayn-do‘konlar etkazib beruvchilar tomonidan qo‘yilgan shartlarga rozi bo‘lishga majbur;

− iste’molchilarning ishonchsizligi tufayli onlayn buyurtmalar uchun asosiy to‘lov usuli tovarni olgandan keyin to‘lov bo‘lib qolmoqda;

− logistik infratuzilmaning butun mamlakat bo‘ylab bir tekis rivojlanmaganligi elektron tijoratning faqat katta shaharlarda konsentrasiyalashuviga olib kelgan;

− hozirgi kunda elektron tijorat bozoridagi asosiy muammolardan biri – bu kadrlar etishmasligi hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori malakali xodimlar (IT mutaxassislari, internet-marketologlar, axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar) yetishmaydi. Davlatimiz tomonidan ko‘rilayotgan sa’y-harakatlarga qaramay, O‘zbekistonda IT-mutaxassislarining yetishmasligi muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Elektron tijorat sohasidagi tadqiqotlari butun dunyo bo‘ylab tadqiqotchilarning e’tiborini tortadigan dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda *elektron tijorat rivojlanishida bir qator muhim*

tendentsiyalar kuzatilib, ular tarmoqning kelajagini belgilab beradi.

Nihoyat, muhim tendensiyalardan biri – bu onlayn to‘lovlar va kriptovalyutalarning rivojlanishidir. Har yili tobora ko‘proq kompaniyalar qulay va xavfsiz onlayn to‘lov usullarini taklif etmoqda, bu esa elektron tijoratning o‘sishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kriptovalyutalar elektron tijorat sohasida tobora muhimroq rol o‘ynay boshladi va xalqaro tranzaksiyalar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Xulosa qilib aytganda, elektron tijorat nafaqat biznes jarayonlarining tezligi va samaradorligini oshiradi, balki davlat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga ham zamin yaratadi. Natijada, mamlakat o‘z iqtisodiyotini raqamlashtirib, global bozorlar bilan integratsiyani yangi bosqichga olib chiqadi, innovatsion yechimlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda elektron tijorat rivojlanishning dastlabki bosqichida. Internet qamrovining kengayishi, onlayn xarid qilish madaniyatining shakllanishi va fintech xizmatlarining rivojlanishi bilan ushbu soha sezilarli darajada o‘smoqda. Hozirgi kunda elektron tijoratning rivojlanishi quyidagilarga bog‘liq:

- internet va mobil aloqalarining kengayishi;
- to‘lov tizimlarining rivojlanishi;
- logistika tizimlarining takomillashuvi;
- takomillashgan huquqiy baza;
- davlatning faol qo‘llab-quvvatlashi va boshqalar.

Bulardan tashqari, infratuzilmani yaxshilash, raqamli savodxonlikni oshirish, kiber-xavfsizlikni kuchaytirish va davlat-xususiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, transchegaraviy savdoni qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston kompaniyalarini xalqaro bozorga chiqishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov X.T. Elektron tijoratning rivojlanish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022. №3. – B. 114.
2. David R. Kosiur. Understanding Electronic Commerce. Redmond, Wash.: Microsoft Press, 1997. – 287 p.
3. Rahimova M.A. Elektron tijoratda raqamli tafovut muammosi // Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: IQTISODIYOT, 2023. – b. 67-73.
4. Turg‘unov A.X. Elektron tijoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2021. №2. – b. 89-93.
5. Брагин Л.А., Никишин А.Ф. и др. Электронная коммерция. - Москва: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2020. – 192 с.
6. Гаврилов, Л.П. Электронная коммерция: учебник и практикум для вузов / Л.П. Гаврилов. – М.: Юрайт, 2023. – 579 с.
7. Климченя Л.С. Электронная коммерция. – Минск: Высшая школа, 2016. – 426 с.
8. Макаренкова Е.В. Электронная коммерция: учебное пособие. – М.: ЕАОИ, 2010. – 136 с.

BALANCING FINANCIAL AND NON-FINANCIAL REWARDS: EXPLORING EMPLOYEE MOTIVATION AND PERFORMANCE IN EMERGING ECONOMIES

M.Y.Kengboyeva

The Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan.

OPEN ACCESS
HCSD

Correspondence
Kengboyeva Mavluda Yuldashbayevna
An English teacher at Foreign Languages School at the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
Email: *mavludakengboeva@gmail.com*
Tel: *+998503309669*

Received: 16 May 2025
Revised: 26 May 2025
Accepted: 26 June 2025
Published: 30 June 2025

Funding source for publication: Samarkand State University.

Publisher's Note: HCSD stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.

Copyright: Journal Human capital and social development © 2 by Samarkand State University is licensed https://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/

BALANCING FINANCIAL AND NON-FINANCIAL REWARDS: EXPLORING EMPLOYEE MOTIVATION AND PERFORMANCE IN EMERGING ECONOMIES

Annotatsion: *Employee motivation is a critical factor influencing company success, especially in the volatile contexts of emerging economies. Organizations in these regions face growing challenges in balancing limited financial resources with the necessity of maintaining a highly dedicated and productive workforce. This paper examines the dual effect of financial and non-financial incentives on employee performance, referencing recent theoretical and empirical research. The analysis indicates that although financial incentives - such as compensation, bonuses, and profit-sharing - act as immediate extrinsic motivators for performance and retention, non-financial incentives - such as recognition, empowerment, meaningful work, and career advancement - are essential for fostering long-term engagement and creativity.*

Keywords: *employee motivation, monetary incentives, non-monetary benefits, developing economies, organizational performance, human resource management.*

БАЛАНС ФИНАНСОВЫХ И НЕФИНАНСОВЫХ ВОЗНАГРАЖДЕНИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ МОТИВАЦИИ И РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ В СТРАНАХ С ФОРМИРУЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ

Аннотация: *Мотивация сотрудников является одним из важнейших факторов, влияющих на успех компании, особенно в нестабильных условиях развивающихся стран. Организации в этих регионах сталкиваются с растущими трудностями при балансировании ограниченных финансовых ресурсов с необходимостью сохранения высококвалифицированной и продуктивной рабочей силы. Это статья рассматривает двойное влияние финансовых и нефинансовых стимулов на производительность труда сотрудников, ссылаясь на недавние теоретические и эмпирические исследования. Анализ показывает, что хотя финансовые стимулы, такие как вознаграждение, бонусы и совместное использование прибыли, действуют в качестве непосредственных внешних стимулов для достижения результатов и удержания, нефинансовые и продвижение по службе - имеют важное значение для поощрения долгосрочной вовлеченности и креативности.*

Ключевые слова: *мотивация сотрудников, денежные стимулы, неденежные вознаграждения, развивающиеся экономики, организационная результативность, управление человеческими ресурсами.*

MODDIY VA NOMODDIY RAG'BATLARNI MUVOZANATLASH: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR SHAROITIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI O'RGANISH

Annotatsiya: *Xodimlarni rag'batlantirish kompaniya muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib, bu ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning dinamik va o'zgaruvchan sharoitlarida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu mintaqalardagi tashkilotlar cheklangan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, yuqori darajada sadoqatli va unumdor ishchi kuchini saqlab qolish zarurati o'rtasida muvozanatni ta'minlashda tobora ortib borayotgan murakkabliklarga duch kelmoqda. Mazkur maqola so'nggi nazariy va empirik tadqiqotlar tahliliga asoslanib, moliyaviy hamda nomoliyaviy rag'batlantirish omillarining xodimlar faoliyatiga ko'rsatadigan ikki tomonlama ta'sirini o'rganadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kompensatsiya, bonuslar va foydani taqsimlash kabi moliyaviy rag'batlantirish vositalari xodimlarning qisqa muddatli ishlash samaradorligini oshirish va ularni tashkilotda ushlab qolishda muhim tashqi motivator sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, e'tirof etish, kasbiy o'sish imkoniyatlarini kengaytirish, mazmunli ish muhiti va martaba rivoji kabi nomoliyaviy rag'batlantirishlar xodimlarning uzoq muddatli sadoqati, ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *xodimlarni rag'batlantirish, moddiy rag'batlar, nomoddiy imtiyozlar, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, tashkilot faoliyati samaradorligi, inson resurslarini boshqarish.*

1. Introduction

Employee motivation has been a pivotal focus in management and organizational behaviour research for over half a century. As global competition escalates and labour markets transform, firms encounter increasing pressure to establish effective motivating systems that synchronize individual and organizational objectives. In developed economies, financial compensation and professional growth opportunities are typically institutionalized; conversely, in emerging economies like Uzbekistan, Kazakhstan, or Indonesia, organizations function within resource-limited and culturally dynamic contexts. Under such circumstances, the ability to motivate employees effectively is both a managerial and strategic necessity (Armstrong & Taylor, 2020).

Historically, organizations in transitional markets have prioritized financial incentives, presuming that higher pay directly correlates with enhanced production (Taylor, as cited in Armstrong & Taylor, 2020). This method meets employees' basic needs and reduces turnover, although it neglects to address more profound motivational aspects, including belonging, purpose, and personal development. As economies diversify and educational levels rise, employees increasingly value respect, recognition, and autonomy with financial stability (Bektemirov, 2021). As a result, non-financial motivators—such as empowerment, purposeful work, and professional advancement—have become essential supplements to compensation and bonuses.

This study aims to examine the dual influence of financial and non-financial motivators on employee performance in emerging economies. Utilizing classical and contemporary motivational theories, it presents a cohesive framework for reconciling extrinsic and intrinsic rewards (Herzberg, 1959; Vroom, 1964; Deci & Ryan, 2000). This report enhances the existing research on culturally sensitive and context-specific human resource approaches in developing markets.

2. Review of Literature and Theoretical Framework

2.1 Overview of Employee Motivation

Employee motivation has always been a cornerstone of organizational efficacy and human resource management. Motivated personnel demonstrate higher levels of dedication, creativity, and performance, hence enhancing corporate competitiveness and innovation. Armstrong and Taylor (2020) assert that motivation dictates “the direction, effort, and persistence of behaviour in the workplace.” In emerging economies, motivational dynamics are shaped by socioeconomic instability, cultural norms, and changing labour markets, rendering the equilibrium between financial and non-financial motivators especially vital.

2.2 Financial Motivators and Extrinsic Rewards

Financial motivators, or extrinsic rewards, encompass tangible incentives such as salary, bonuses, allowances, and performance-based pay. Classical approaches, including Taylor’s Scientific Management, highlighted financial incentives as the principal motivator of production (Armstrong & Taylor, 2020). Subsequent frameworks, like Vroom’s (1964) Expectancy Theory, propose that individuals are motivated when they anticipate that effort will result in performance and desirable outcomes, frequently manifested as money rewards.

Empirical studies consistently support the short-term effectiveness of financial incentives. Sudiardhita et al. (2018) discovered that competitive compensation packages improve employee productivity and decrease turnover rates. Robinson (2012) noted that pay satisfaction is a significant predictor of organizational loyalty in developing regions. Excessive reliance on monetary compensation may lead to "motivation decay" if extrinsic rewards become normalized or inflation diminishes their true value.

2.3 Non-Financial Motivators and Intrinsic Rewards

Non-financial motivators appeal to psychological and social requirements that transcend monetary rewards. Herzberg's (1959) Two-Factor Theory differentiates between hygiene factors, which avert dissatisfaction (e.g., wage and working circumstances), and motivators, which foster satisfaction (e.g., recognition and achievement). In modern organizations, non-financial motivators encompass recognition programs, empowerment, learning opportunities, meaningful work, and supportive leadership. Research conducted by Paais and Pattiruhu (2020) revealed that intrinsic motivators substantially enhance job satisfaction and organizational commitment among employees in Indonesian service sectors. Panait and Panait (2018) similarly emphasize that employees who feel their efforts are appreciated are more inclined to create and collaborate. These findings suggest that non-financial incentives sustain engagement, even when financial resources are limited.

2.4 Integrative Perspectives on Motivation

Recent studies highlight that financial and non-financial motivators are not mutually exclusive but rather complementary. Deci and Ryan's (2000) Self-Determination Theory (SDT) asserts that optimal motivation occurs when individuals perceive autonomy, competence, and relatedness. Organizations that combine pay incentives with opportunities for personal development attain more sustainable performance results. Research in emerging markets indicates that hybrid strategies—associating performance bonuses with recognition and career progression—improve both extrinsic and intrinsic motivation (Pang & Lu, 2018; Triantafillidou & Koutroukis, 2022). The synergy between the two types of motivators is especially crucial in economies where monetary incentives alone may not adequately compensate for inflation, uncertainty, or restricted job mobility.

2.5 Cultural and Contextual Influences

Motivation is inherently contextual. Cultural norms, leadership styles, and organizational practices influence employee perceptions and reactions to rewards. Hofstede (2011) contended that in collectivist societies, collaboration and acknowledgment frequently surpass individual monetary incentives. Conversely, more individualistic cultures may prefer direct financial incentives. In emerging nations, macroeconomic volatility and institutional changes further complicate motivational techniques. In times of turbulence, employment security and polite treatment serve as more compelling motivators than salary increases (Bektemirov, 2021). Effective HR systems must be adaptable and culturally responsive, integrating global theories with local contexts.

2.6 Conceptual Framework

This study conceptualizes employee motivation as a dual-path process, wherein financial motivators provide fundamental stability and external satisfaction, while non-financial motivators enhance intrinsic engagement and innovation. Leadership and organizational culture are suggested as moderating variables that influence the relative strength of each pathway. This framework guides the ensuing methodological approach and thematic analysis, seeking to explain how the equilibrium between these motivator types affects overall employee performance in emerging economies.

3. Methodology

3.1 Research Design

This research employed a qualitative, interpretivist methodology through the analysis of secondary data. The interpretivist approach posits that employee motivation is socially constructed and is most effectively comprehended through the meanings attributed by individuals and organizations to their experiences (Alharahsheh & Pius, 2020). The objective was not to evaluate theories but to develop a contextualized comprehension of how financial and non-financial incentives collectively impact employee performance in emerging economies.

A qualitative synthesis was appropriate for three primary reasons. First, it facilitated the integration of varied findings from previous empirical and conceptual research. Second, it enabled the examination of cultural and leadership influences that are challenging to quantify. Third, qualitative analysis aids in theory development by uncovering patterns and relationships within established knowledge (Braun & Clarke, 2006).

3.2 Data Sources and Selection Criteria

Data were obtained from peer-reviewed journals, institutional reports, and scholarly publications published between 2017 and 2024. The utilized databases comprised ScienceDirect, Taylor & Francis Online, SAGE Journals, and Google Scholar.

The following inclusion criteria were applied:

1. The study examined employee motivation, leadership, or HR practices in emerging or developing economies.
2. The paper was published in English and subject to peer review.
3. It provided empirical data, conceptual analysis, or comparative insight relevant to financial and non-financial motivation.

A total of 54 sources were examined, consisting of 46 journal articles and 8 organizational reports. Studies solely focusing on Western economies were omitted unless they provided essential theoretical frameworks (e.g., Herzberg, Vroom, or Deci & Ryan).

3.3 Data Analysis

The data were examined utilizing thematic analysis, adhering to Braun and Clarke's (2006) six-phase framework:

1. Acquaintance with the data
2. Creation of preliminary codes
3. Exploring themes
4. Analysing themes
5. Identifying and designating themes
6. Generating the conclusive synthesis

Themes were categorized based on conceptual frameworks, including financial security, recognition and empowerment, leadership influence, and hybrid motivation systems. This

methodology facilitated the development of an integrative model that delineates the interconnections among motivators, leadership, and performance.

3.4 Reliability and Ethical Considerations

The research conformed to the trustworthiness criteria established by Lincoln and Guba (1985):

- Credibility through cross-verification of data across multiple sources.
- Transferability ensured by including studies from diverse emerging economies.
- Dependability maintained through transparent documentation of analytic steps.
- Confirmability upheld by grounding interpretations strictly in published evidence.

As secondary research, this study did not involve human participants; thus, no ethical clearance was required. Proper citation and acknowledgment were observed throughout to ensure academic integrity.

Results

4.1 Financial Motivators as the Foundation of Stability and Performance

Research findings consistently indicate that financial incentives are fundamental to employee performance, particularly in resource-limited environments. Competitive salaries, performance-related bonuses, and allowances improve concentration, decrease turnover, and foster loyalty (Sudiardhita et al., 2018; Ololube, 2017). Employees perceive fair compensation as organizational respect and stability. In developing economies characterized by inflation and economic uncertainty, consistent pay serves as both a financial and psychological safeguard.

Nonetheless, the review suggests that the marginal value of financial incentives diminishes over time. Upon fulfilment of fundamental expectations, employees pursue acknowledgment, development, and purpose. This corroborates Herzberg's (1959) argument that compensation mitigates dissatisfaction but does not ensure motivation.

4.2 Non-Financial Motivators as Drivers of Engagement and Creativity

Non-financial incentives such as recognition, empowerment, and development—proved to be the strongest drivers for long-term engagement. Research in Southeast Asia and Central Asia (Paais & Pattiruhu, 2020; Bektemirov, 2021) indicates that employees prioritize recognition, autonomy, and career progression over minor salary increments. Transformational leadership, mentorship, and learning opportunities are identified as key motivators that contribute to sustained performance and reduced turnover. This is consistent with Deci and Ryan’s (2000) Self-Determination Theory, which emphasizes autonomy and competence as fundamental to intrinsic motivation.

4.3 Synergistic Effects of Financial and Non-Financial Motivation

The synthesis indicates that financial and non-financial incentives are mutually reinforcing. Organizations that integrate competitive compensation with recognition, trust, and developmental opportunities attain enhanced performance outcomes. Hybrid systems—associating bonuses with performance evaluations, public recognition, and professional training—have been

identified as particularly effective (Pang & Lu, 2018). This synergy maintains motivation across both extrinsic and intrinsic dimensions, reducing the risks of burnout and disengagement.

4.4 The Role of Leadership and Organizational Culture

Leadership practices serve as critical moderators in the correlation between motivation and performance. Ethical, transparent, and participative leadership improves employees' perceptions of equity and inclusion. Leaders who acknowledge accomplishments, delegate responsibilities, and foster inclusivity enhance the motivational effects of both monetary and non-monetary incentives (Triantafillidou & Koutroukis, 2022). In contrast, authoritarian or non-transparent management styles diminish the motivational efficacy of even optimally structured reward systems.

4.5 Cultural and Economic Context

Cultural factors and economic stability profoundly influence the effectiveness of motivators. In collectivist cultures, such as those in Central Asia, teamwork, social harmony, and recognition are prioritized over individual bonuses (Hofstede, 2011). Nevertheless, economic fluctuations render financial stability essential. Consequently, firms must design flexible techniques that reconcile immediate financial requirements with enduring psychological involvement.

5. Discussion

The results of this study reinforce the assertion that employee motivation is a multifaceted construct shaped by both extrinsic and internal variables. In developing economies, where companies frequently have resource limitations, a nuanced understanding of motivation is crucial. The findings indicate that financial incentives establish a crucial basis for performance consistency, but non-financial incentives foster enduring engagement, innovation, and dedication.

5.1 Integration with Motivation Theories

The results strongly correspond with Herzberg's Two-Factor Theory (1959), which differentiates between hygienic factors and genuine motivators. Monetary incentives function as hygiene factors—mitigating unhappiness without necessarily fostering innovation. In contrast, non-financial factors like recognition and achievement act as motivators that augment job satisfaction and emotional commitment.

Likewise, Vroom's (1964) Expectancy Theory is supported by the observation that employees are motivated when they perceive that effort results in desirable outcomes. In volatile economic conditions, the perception of equity in financial compensation enhances expectancy, while acknowledgment and empowerment bolster intrinsic motivation. Furthermore, Self-Determination Theory (Deci & Ryan, 2000) offers a comprehensive framework, positing that autonomy, competence, and relatedness constitute the psychological basis of enduring motivation. The interaction of financial and non-financial motivators addresses these fundamental needs, leading to enhanced performance and corporate citizenship behaviours.

5.2 Leadership and Organizational Culture

Leadership emerges as a crucial moderating factor in motivational results. Transformational leaders that empower people, communicate openly, and acknowledge contributions augment both extrinsic and intrinsic motivation.

Conversely, transactional leadership, which depends exclusively on contingent rewards, may enhance performance in the short term but frequently does not foster long-term loyalty. A supportive organizational culture marked by trust, fairness, and respect enhances the efficacy of both financial and non-financial incentives. This indicates that motivational tactics should be integrated into overarching organizational values rather than regarded as standalone HR practices.

5.3 Implications for Practice

The study highlights the necessity for cohesive motivation systems that cater to employees' economic and psychological requirements from a managerial perspective.

Firstly, organizations must guarantee equitable and transparent financial compensation to fulfill employees' fundamental expectations and sustain performance consistency.

Secondly, they should complement these systems with non-monetary incentives, including acknowledgment, educational opportunities, and collaborative decision-making.

Third, HR professionals must tailor motivation programs to align with the local cultural context, acknowledging that collectivist norms may necessitate group-oriented recognition and social rewards.

